

March, 2025

Volume 2, Issue 1



№ 005

Management and Future Technologies

SCIENTIFIC JOURNAL

journal.umft.uz

ISSN 3060-5008

Jurnal sohalari: menejment, dasturiy injiniring, sun'iy intellekt texnologiyalari, kompyuter injiniringi, infokommunikatsiya injiniringi, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, pedagogika va psixologiya, matematika va fizika

Tahririyat kengashi raisi

t.f.d., prof. O'tkir Xamdamov

"University of Management and Future Technologies" universiteti rektori

Bosh muharrir

t.f.f.d. dot. Muhriddin Muxiddinov

"University of Management and Future Technologies" universiteti Ilmiy va uslubiy ishlar bo'yicha prorektori

Tahririyat kengashi a'zolari

t.f.d., prof. Xakim Zaynidinov

t.f.d., prof. Muxammadjon Musayev

t.f.d., prof. Shavkat Fozilov

f-m.f.d. prof. Aripov Mersaid

f-m.f.d. prof. Alov Raxmatillo

t.f.d., prof. Marat Raxmatullayev

t.f.d., prof. Dilnoz Muxamediyeva

i.f.d., prof. To'xir Hasanov

i.f.d., prof. To'liqin Boboqulov

t.f.d., prof. Jamshid Sultonov

f-m.f.d. prof. Dildora Muhamediyeva

i.f.d., prof. Sherzod Rajabov

p.f.d., prof. Qurbonniyoz Panjiyev

p.f.d., prof. Muhabbat Hakimova

t.f.d., prof. Nargiza Usmanova

p.f.d., prof. Nishonboy Kiyamov

p.f.d., prof. Qutlug'bek Qodirov

t.f.d., dot. Halimjon Xujamatov

t.f.d., dot. Ibragim Atadjanov

Muharrirlar

Farhod Ahmedov (J. Koreya)

Sherzod Mustafaqulov (O'zbekiston)

Akmalbek Abdusalomov (J. Koreya)

Bahtiyor Akmuradov (O'zbekiston)

Sherzod Abdullayev (O'zbekiston)

Shabir Ahmad (J. Koreya)

Dilshod Rahmatov (Germaniya)

O.A. Hidayov (Germaniya)

Akmaljon Abdullayev (O'zbekiston)

Jinsoo Cho (J. Koreya)

Jamshid Elov (O'zbekiston)

Young Im Cho (J. Koreya)

Fazliddin Maxmudov (J. Koreya)

Alpamis Kutlimuratov (O'zbekiston)

Faheem Khan (J. Koreya)

Lilia Tightiz (J. Koreya)

Shahnoza Sultanova (O'zbekiston)

Safiullah Khan (Buyuk Britaniya)

Seytkamal Medetov (Fransiya)

Avaz Qaxxorov (O'zbekiston)

Doston Xasanov (O'zbekiston)

Sabina Umirzakova (J. Koreya)

Elmurod Urinov (O'zbekiston)

Muhriddin Umarov (O'zbekiston)

Urmanov Odil (J. Koreya)

Sobir Radjabov (O'zbekiston)

Dizayner

Eshmetov Daler

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan 212842-raqamli guvohnoma bilan 26.01.2024 sanasida ro'yxatdan o'tkazilgan. Jurnal OAK Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367-son qarori bilan 05.00.00 – Texnika fanlari ixtisosliklari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

- 7** Nodirbek Abdulxayev
VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN SIMULYATSIYA YARATISHDAGI UCH O'LCHOVLI DASTURLARNI TAHLIL QILISH VA UNING SAMARADORLIGINI ANIQLASH
- 16** Mannon Ochilov; Orzimurod Xolmatov
O'ZBEK TILIDA SAVOL-JAVOB TIZIMINI YARATISHDA T5 MODELINING QO'LLANILISHI
- 26** Ravshan Shirinboyev; Ma'ruf Tojiyev; Jo'ra Kuvandikov
FIRE DETECTION BASED ON OPTICAL FLOW TECHNOLOGY
- 37** Ilyos Xujayarov; Quvonchbek Norqo'ziyev
THE CONSTRUCTSIM MUHITIDA ROS YORDAMIDA AVTONOM MOBIL ROBOTLARNING LOKALLASHTIRISH VA KARTOGRAFIYALASH ASOSIDA NAVIGATSIYA ALGORITMLARI TAHLILI
- 46** Muhsinjon O'ktamov; Sirojiddin Saydullayev; Muhriddin Muxiddinov
CHUQUR O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHILAR HARAKATCHANLIGI VA MUSTAQILLIGINI OSHIRISH
- 61** Odilbek Asqaraliyev
KORPORATIV TIZIMLARARO AXBOROT OQIMLARINI BOSHQARISHNING GRAF NAZARIYASIGA ASOSLANGAN MATEMATIK MODEL
- 83** Farxat Rajabov
YER OSTI SUVI NAZORAT QUDUQLARIDA SATHI VA TARKIBINI TAHLIL QILISH INOVATSION USULI

97

Nasiba Xalikova; Saida Beknazarova

TECHNOLOGIES OF 3D SCIENTIFIC VISUALIZATION AND GEOMETRIC MODELING IN DIGITAL BIOMEDICINE

112

Шохида Юсупова; Огабек Матёкубов

РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД ДЛЯ ЗАЩИТЫ ОТ QRLJACKING И CLICKJACKING ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ВХОДА ЧЕРЕЗ QR-КОДЫ

127

Utkir Xamdamov; Bekzod Turg'unov

PARALAKS TASVIRLAR ASOSIDA KUZATUVDAGI OB'EKTGACHA MASOFANI O'LCHASH ANIQLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI

139

Axmedova Xusniya

THE ISSUE OF PARAPHRASING SENTENCES IN UZBEK LANGUAGE

150

Asror Ulashev; Aynakulov Toxir

KITOB SAVDOSI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDA AVTOMAT-LASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMINING O'RNI

172

Faxriddin Nuraliev; Nuriddin Tojiev; Behzod Tahirov

ANIZOTROP TERMO-ELEKTRO-MAGNIT PLASTINALARNING NOCHIZIQLI KUCHLANLANGANLIK-DEFORMASIYALANGANLIK JARAYONLARINI MATEMATIK MODEL VA HISOBLASH TAJRIBALARI

182

Maksud Sharipov; Xushnudbek Adinayev

O'ZBEK TILI MATNLARIDA SO'ROQ GAPLARNI ANIQLASHNING QOIDAGA ASOSLANGAN ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

190

Sirojiddin Xalilov

SUN'IY INTELLEKT USULLARI YORDAMIDA VIDEOTASVIRDAN SHAXSNING YUZ TASVIRI HAMDA OBEYKTLARNI ANIQLASH ALGORITMLARI

204

Akmal Axatov; Ma'ruf Tojiyev

TASHKILOTLARDA HUUJATLARNI QAYTA ISHLASH JARAYONLARINI BOSHQARISHNING IMITATSION MODEL: OMMAVIY XIZMAT KO'RSATISH TIZIMLARI MISOLIDA

218

Azizbek Raximov; Baxtiyor Akmuradov
**TELEKOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASHDA KONTEKSTGA ASOSLANGAN BO'LAKLI HASHING
ALGORITMLARI**

238

Barxayotjon Uzakov
**NEFT QAYTA ISHLASH SANOATIDAGI REKTIFIKATSIYA KOLONNASI
JARAYONINING MATEMATIK MODELLARI**

251

Elmurod Urinov; Muhridin Qulmatov
**O'ZBEK TILIDAGI MATNLARNI MORFOLOGIK TOKENLASH MASALASI VA
YECHIMLARI**

263

Farrukh Akhmedov; Bakhtiyor Akmuradov; Zukhra Bozorboyeva
MATNDAN NUTQ SINTEZLASHNING KLASSIK YONDOSHUVLARI

IJTIMOIIY FANLAR

282

Алмаз Инятов
ПУТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

296

Dilbar Raximova
**O'SPIRIN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SHAXSIY
YETUKLIK XUSUSIYATLARINING TA'SIRI**

MATEMATIKA VA FIZIKA FANLARI

308

Yarashbek Yusupov; Nargiza Baymatova
**RAYS SO'NISHILI SIGNALLARNI TO'G'RI ANIQLASH EHTIMOLLIGINI
BAHOLASH**

TEXNIKA FANLARI



Muallif

Nodirbek Abdulxayev

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of Management and Future Technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; abdulxayev.nodirbek@gmail.com

VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN SIMULYATSIYA YARATISHDAGI UCH O'LCHOVLI DASTURLARNI TAHLIL QILISH VA UNING SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Annotatsiya: Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan virtual reallik (VR) inson hayotining turli jabhalarida, jumladan, ta'lim, tibbiyot, harbiy, sanoat va o'yin industriyasida keng qo'llanilmoqda. VR texnologiyasiga asoslangan simulyatsiyalar foydalanuvchilarga real dunyoga yaqin tajribalarni taqdim etib, ularning o'quv va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada VR texnologiyasiga asoslangan simulyatsiyalarni yaratishda uch o'lchovli Unity va Unreal Engine dasturiy platformalarni texnik ko'rsatkichlarini solishtirma tahlili yoritilgan bo'lib, ularning afzalliklari va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: VR texnologiyasi, simulyator, uch o'lchovli dasturlar, Unity, Unreal Engine, kompyuter, qurilmalar, virtual ochki, platforma.



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Kirish

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan xolda oliy ta'lim muassasalarida tehsil olayotgan tabalarni o'qitish va amaliy tajribasini oshirishga qaratilgan ko'plab ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil

8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu qarorning 1-ilovasining ikkinchi paragrafi ya'ni ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan qator vazifalar belgilab berilgan [1].


Hozirda dunyo tajribasidan ko'rishimiz mumkinki oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator zamonaviy texnologiyalardan ya'ni virtual reallik texnologiyalardan (VR) keng foydalanib kelinmoqda. VR texnologiyasi xam bugungi kunga kelib, katta yutuqlarga erishdi va asta-sekin fan va texnikaning yangi sohasiga aylanib bormoqda, shu bilan birga virtual haqiqat texnologiyasi ta'limni rivojlanishiga yordam beradigan yangi ta'lim turiga aylandi.

Mazkur VR texnologiyasidan foydalanilgan xolda dunyoning ilg'or davlatlarida xam turli soha egalari VR ta'limda va bajarishi murakkab bo'lgan amaliy mashg'ulotlarni bajarishda mazkur texnologiya orqali tayyorlash va o'qitish sezilarli samaradorligini ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin[6].

Adabiyotlar tahlili

«Virtuallik» atamasi lotincha «virtualis» so'zidan olingan bo'lib, «muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan», yoki mavjud bo'lmagan, lekin amalga oshish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayon kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu atama inson faoliyatining juda ko'p sohalarida uchraganligi uchun ham uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslar mavjud. Turli fanlarga oid tushunchalarni izohlashda bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Virtual haqiqatga asoslangan texnologiya insonga hissiyotlari orqali: ko'rish, eshitish, teginish kabi ma'lum bir vazifani amalga oshirish imkoni beradi. Insonni haqiqiy his-tuyg'ularning ishonchli murakkab kompleksini yaratish uchun virtual reaktivlarning xususiyatlarini va reaksiyalarini kompyuter yordamida sintez qilish real vaqtda amalga oshiriladi. Masalan, VR texnologiyasi asosida yaratilgan simulyator dasturi apparat dasturli majmua orqali foydalanuvchini virtual maydonda o'z hayotlarini xavf ostiga qo'ymay, ko'nikma va tajriba orttirish imkonini beradi.



1-rasm. Virtual reallik tizimi ishlash blok sxemasi.

VR texnologiyasiga asoslangan zamonaviy simulyatsiya dasturi - bu modellashtirish, simulyatsiya va vizuallashtirish uchun kompleks tizimlar, kompyuter dasturlari va jismoniy modellar hamda maxsus texnikalar majmuasi hisoblanadi.




2-rasm. VR texnologiyasiga asoslangan VR ko‘zoynagining turli xildagi ko‘rinishlari.

Ushbu virtual reallik texnologiyasida simulyatsiya dasturlarini ishlab chiqishda quydagi uch o‘lchovli Unity va Unreal Engine dasturlaridan foydalaniladi. Uch o‘lchovli turli xildagi va ko‘rinishdagi modellarni yaratishda esa Blender, 3DMax dasturlaridan keng foydalaniladi [5].

Unity (ingliz tilidan tarjima qilinganda – “birlik”, degan ma’noni anglatadi). Mazkur platforma Amerikaning Unity Technologies kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter o‘yinlari va simulyatsiya uchun platformalararo rivojlanish muhiti hisoblanadi.

Unity – bu asosan VR texnologiyasi va uch o‘lchovga asoslangan platforma bo‘lib, bunda ancha ko‘proq imkoniyatlarga ega deb tan olingan, ushbu platforma dasturlash uchun ko‘plab ish qurollarini jumladan kodlar yozish uchun matn muharriri, kodni qurilma uchun tushunarli murojatga aylantiruvchi kompilyator, dastur ishlash prinsplarini va hatolarni tahlil qiluvchi (отладчик), VR texnologiyasini qo‘llab-quvvatlovchi interfeyslar hamda boshqa ko‘plab alohida funksiyalarni yagona interfeys ichida taqdim etadi. Qulayliklar safi shunchalik keng bo‘lishiga

qaramasdan Unity o‘yinlar va turli xildagi simulyatsion dasturlar yaratish va ishlatish uchun juda qulay platformadir.



3-rasm. Unity dasturi interfeysini umumiy ko‘rinishi.

Unity platformasining asosiy avfzalligi - vizual ishlab chiqish muhiti, platformalararo qo‘llab-quvvatlash va komponentlarning modulli tizimining mavjudligi hamda VR (virtual reality) ni to‘liq qo‘llab quvvatlash imkoniyati mavjudligidir[2].

Unreal Engine (UE) uch o‘lchovli dasturi – bu Epic Games tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘yin, filmlar, simulyatsiyalar, arxitektura, avtomobil dizayni va boshqa sohalarda qo‘llaniladigan kuchli 3D grafik dvijogi (game engine). Dastlab 1998-yilda Unreal o‘yini uchun yaratilgan bu dvijok hozirda eng ilg‘or real vaqtli grafik vositalardan biri hisoblanadi. Unreal Engine juda kuchli va ko‘p qirrali dvijok bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Yuqori sifatli grafika. UE realistik vizual effektlar va Ray Tracing (nur kuzatish) texnologiyasi orqali haqiqatga yaqin tasvir yaratadi. Bunda quyidagi grafik xususiyatlar ishlatiladi:

Lumen – real vaqtli yorug‘lik simulyatsiyasi;

Nanite – juda katta hajmdagi 3D modellarni tezkor yuklash va ishlash texnologiyasi;

PBR (Physically Based Rendering) – fizika asosida ishlaydigan yoritish va material tizimi;


2. Blueprint – Kodsiz dasturlash imkoniyati mavjudligi. Unreal Engine dasturchi bo‘lmagan foydalanuvchilarga Blueprint vizual skriptlash tizimi orqali o‘yin va simulyatsiyalar yaratish imkonini beradi[1].

3. Keng moslashuvchanligi. Unreal Engine quyidagi platformalar uchun o‘yin va ilovalar yaratishga imkon beradi:



- PC (Windows, Mac, Linux)
- Konsollar (PlayStation, Xbox, Nintendo Switch)
- Mobil qurilmalar (iOS, Android)
- VR va AR (Meta Quest, HTC Vive, HoloLens, Apple Vision Pro)

Unreal Engine VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) uchun maxsus moslashtirilgan bo‘lib unda virtual reallik simulyatsiya yaratishda (Meta Quest, Meta Quest2, HTC Vive, PlayStation VR) ko‘zoynaklaridan foydalaniladi [4]. Ya’ni unda AR loyihalar uchun maxsus vizualizatsiyalashda, interaktiv virtual tajribalar yaratishda keng qo‘llaniladi



4-rasm. Unreal Engine dasturi interfeysi.

Unreal Engine va Unity uch o‘lchovli dasturlar eng mashhur va keng qo‘llaniladigan platformalar hisoblanadi [7]. Ushbu dasturlar turli xil maqsadga yo‘naltirilgan VR/AR simulyatsiyalar ishlab chiqishda, undan tashqari ta’lim sohasi, arxitektura, tibbiyot, muhandislik va sanoat loyihalarini ishlab chiqishda ishlatiladi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib ushbu uch o‘lchovli dasturlarni imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

1-jadval. Uch o‘lchovli Unity va Unreal Engine dasturiy platformalarning solishtirma tahlili.

Xususiyatlari	Unity	Unreal Engine
Operatsion tizimni qo‘llab quvvatlash	Linux, Windows, Mac, Android, IOS	Linux, Windows, Mac,

Qo‘llaniladigan dasturlash tili	C#, Script	C++, Blueprint.
Kompyuter minimal talablari	Video xotira 2Gb+, 4-8GB tezkor xotira, protsessor 2+yadroli, taktik chastotasi 2.5 GHz+	Video xotira 2Gb+, 8-16GB tezkor xotira, protsessor 4+ yadroli, taktik chastotasi 3.0 GHz+
Grafikasi	Yuqori	Yuqori
Grafika dvijogi	Universal Render Pipeline (URP), High Definition Render Pipeline (HDRP)	Lumen & Nanite
Virtual reallik shlemlarini qo‘llab quvatlashi	Samsung Gear VR, HTC Vive, Oculus Rift, Oculus Quest2, Google Cardboard, Google VR/ Daydream VR, Play-Station VR	Samsung Gear VR, HTC Vive, Oculus Rift, Google Cardboard, Google VR/Daydream VR, PlayStation VR
Kompilyatsiya jarayoni	Kompyuterdan simulyatsiyani kompilyatsiya qilish jarayonida o‘rtacha resurs talab qilganligi sababli tez amalga oshiriladi.	Kompyuterdan simulyatsiyani kompilyatsiya qilish jarayonida yuqori resurs talab qilganligi sababli bir oz vaqt talab qiladi va yuqori parametrga ega kompyuter talab qilinadi.
Multiplayer	Kamroq kuchli (3rd-party xizmatlarga tayanadi)	Kuchli (Epic Online Services, Dedicated Servers)
O‘rganish osonligi	Murakkabroq, lekin Blueprint yordam beradi	Osonroq
Narxi	Bepul, lekin Unity Pro pullik	1 mln \$ gacha bepul, keyin 5% royalti
Platformalar	PC, konsollar, VR, AR, mobil	PC, mobil, VR, AR, brauzer
Realistik effektlar	Yaxshi, lekin Unreal’dan pastroq	Juda yuqori (filmlarda ham ishlatiladi)



Multiplayer tizimi	Asosan P2P, kuchli server tizimi yo'q	Dedicated server va P2P qo'llab- quvvatlaydi
---------------------------	--	---

Endi Unity va Unreal Engine uch o'lchovli dasturiy platformalarning texnik jihatdan tahlil qilish uchun ba'zi matematik formulalar va ishlash samaradorligi ko'rsatkichlari, render vaqti hamda dastur kodining ishlash tezligi asosida ularni solishtirib chiqamiz.

Dasturiy ta'minotning ishlash samaradorligi odatda FPS (Frames Per Second) va render vaqtiga bog'liq. FPS (Kadrlar soni har soniyada).

FPS o'yinning qanchalik tez ishlashini ko'rsatadi:

$$FPS = \frac{1}{FrameTime} \quad (1)$$

Unity: yangil render tizimi tufayli odatda mobil va VR o'yinlarida yuqori FPS ko'rsatadi. Unreal Engine: og'ir grafikalar tufayli FPS katta sahnalarda pasayishi mumkin[2].

Render vaqti (Frame Time) bo'yicha solishtirib chiqamiz.

Render vaqti – bu har bir kadrni chizish uchun ketadigan vaqt. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Frame Time = \frac{1000}{FPS} (ms) \quad (2)$$

2- jadval. FPS va render vaqti qiymatlari ko'rsatkichlari

FPS	Render vaqti (ms)
60	16.67 ms
30	33.33 ms
120	8.33 ms

Unity – Render jarayoni engilligi tufayli odatda 16.67 ms yoki undan past bo'ladi. Unreal Engine – og'ir effektlar tufayli render vaqti 20-30 ms atrofida bo'lishi mumkin.

Unity tezroq render qiladi, lekin Unreal Engine yaxshi optimizatsiya qilinganda, kuchli GPU bilan yuqori tezlikda ishlashi mumkin[8].

Dastur kodining ishlash tezligi (Execution Time) deb nomlanib, uch o'lchovli dasturiy platformalarda kodning ishlash tezligi simulyatsiyaning umumiy samaradorligiga ta'sir qiladi. Dasturlash tillarining ishlash tezligi quyidagi formula orqali baholanadi:

$$\text{Execution Time} = \frac{\text{Operations}}{\text{CPU Speed}} \quad (3)$$

Unity (C#): Interpreted (JIT) bo'lib, bajarilish tezligi sekinroq, lekin oson kodlash imkonini beradi. Unreal Engine (C++): Native compiled bo'lgani uchun tezroq ishlaydi, lekin kod murakkabroq [4].

Natija: C++ (Unreal Engine) tezroq ishlaydi, lekin C# (Unity) osonroq va rivojlanish tezligiga foyda keltiradi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni inobatga olib quydagicha xulosa qilishimiz mumkin: Unreal Engine va Unity dasturiy platformalari har biri muayyan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib unga ko'ra mobil o'yinlar, indie loyihalar yoki VR/AR dasturlar ishlab chiqmoqchi bo'lsangiz hamda oson kodlash va tezkor prototiplashda, kompyuterdan ko'p resurs talab qilmasligi jihatidan Unity platformasi eng yaxshi tanlov hisoblanadi. Unreal Engine dasturiy platformasi esa yuqori darajadagi grafikaga ega yirik loyihalar, konsol o'yinlari va turli maqsadlarda foydalishda mo'ljallangan simulyatsiya, modellashtirishda, yoki realistik 3D vizualizatsiya ustida ishlasangiz Unreal Engine dasturiy platformasi eng yaxshi tanlov hisoblanadi.



Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabr sanasida qabul qilingan PF-5847-son farmoni.
2. Jeremy Gibson Bond. "Unity и C# геймдев от идеи до реализации" второе издание. Минск 2019.
3. Джонатан Линовес Виртуальная реальность в Unity. / Пер. с англ. Рагимов Р. Н. – М.: ДМК Пресс, 2016. – 316 с.
4. <https://cospaces.io> Проектирование 3D-сцен в браузере (виртуальная реальность)
5. Пушкарев А.Н. "Основы программирования в среде unity" Учебно-методическое пособие для преподавателей и учащихся учреждений дополнительного образования детей и молодежи. – Тюмень: ГАУ ДО ТО «Дом детского творчества и спорта «Пионер», 2023. – 165 с.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-virtualnoy-realnosti>
7. <https://wiki.merionet.ru/articles/sravnivaem-unreal-i-unity-v-razrabotke-igr>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-platform-dlya-razrabotki-igr/viewer>.



Mualliflar

Mannon Ochilov

Sun'iy intellekt kafedrası,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti, Toshkent, 100200,
O'zbekiston.

Orzimurod Xolmatov

Sun'iy intellekt kafedrası,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti, Toshkent, 100200,
O'zbekiston;
xolmatov.orzumurod@gmail.com

Mas'ul: xolmatov.orzumurod@gmail.
com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons
Attribution (CC BY) litsenziyasi
shartlari asosida tarqatiladigan ochiq
foydalanish maqolasi hisoblanadi
([https://creativecommons.org/
licenses/by/4.0/](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)).

O'ZBEK TILIDA SAVOL- JAVOB TIZIMINI YARATISHDA T5 MODELINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida savol-javob tizimini yaratish uchun T5 modeli qo'llanilishi tahlil qilinadi. T5 modeli "matndan matnga" tamoyili asosida ishlaydi va savollarga kontekst bo'yicha aniq javob berishga mo'ljallangan. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi savol-javob ma'lumotlar to'plami tayyorlanib, turli versiyadagi T5 modellarida sinovdan o'tkazildi. Model samaradorligi BLEU, ROUGE va METEOR baholash metrikalari asosida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, T5 modeli o'zbek tilidagi savol-javob tizimlari uchun samarali yondashuv bo'lib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim asos yaratadi.

Kalit so'zlar: T5 modeli, savol-javob tizimi, o'zbek tili, tabiiy tilni qayta ishlash, matndan matnga yondashuvi, model baholash, BLEU, ROUGE, METEOR.



Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt sohasida savol-javob tizimlariga bo'lgan ehtiyoj selilarli darajada oshdi. Ushbu tizimlar foydalanuvchilarning tezkor savollariga tezkor javoblar topishga yordam beradi[1]. SJ tizimlari ko'plab sohalarda qo'llanilish uchun yaratiladi, jumladan, ta'lim sohalarida, tibbiyot sohalarida va biznes sohalarida dunyo bo'yicha keng miqyosida foydalaniladi. Masalan, call-markazlarida SJ tizimlarini yaratish hozirgi kunda ko'plab sohalarda yaratilib kelinmoqda. Dunyo bo'yicha SJ tizimlarni yaratish bo'yicha ko'plab yondoshuvlar mavjud. Jumladan lingvistik, statistik, shablonlarga asoslangan, qidiruvga asoslangan, sun'iy intellektga asoslangan yondoshuvlar mavjud. Bugungi kunda savol-javob tizimlarini yaratishda eng ko'p foydalanilayotgan yondashuv chuqur o'qitishga asoslangan yondashuvlar hisoblanadi[2]. Hozirgi kunlarda SJ tizimlarini yaratishda chuqur o'qitishga asoslangan turli xil modellar ham yaratilgan bo'lib, ular bir biridan foydalanishdagi maqsadi, aniqligi, arxitekturasi, parametrlar soni bilan farq qiladi. Ushbu modellarga misol sifatida Transformer modellariga asoslangan T5, LLaMA, BERT, RoBERTA, ALBERT kabi modellarni aytishimiz mumkin.

Transformer modellarining rivojlanishi natijasida savol-javob tizimlarining samaradorlik natijasi sezilarli darajada oshdi va ayniqsa T5 (Text-To-Text Transfer Transformer) kabi zamonaviy modellar tufayli savol-javob tizimlarining samaradorligi sezilarli darajada ortdi[3-4].

Hozirgi kunda ko'plab tillarda savol-javob tizimlari yaratilgan. Ammo o'zbek tilida savol-javob tizimlaridagi taqdiqotlar hozirgacha keng miqyosida tadqiq etilmagan. Hozirgacha o'zbek tilida NLP sohasining savol-javob tizimlari uchun mo'ljallangan ma'lumotlar to'plami yetarli darajada emas. Shuning uchun, T5 modelini o'zbek tiliga moslashtirish va o'zbek tilidagi SJ tizimini yaratish ushbu sohada yangi yondoshuvni amalga oshirishga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada aynan T5 modeli asosida savol-javob tizimini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, model arxitekturasi, ma'lumotlar to'plami, natijalar bayon etilgan.

Metodologiya

Ushbu bo'limda T5 modeli asosida o'zbek tilidagi savol-javob (SJ) tizimini yaratish jarayoni, T5 modeli arxitekturasi, ma'lumotlar to'plamini tayyorlash va modelni o'qitish usullari yoritiladi. Tizimni sozlash va baholashda foydalanilgan turli T5 modellarining samaradorligini aniqlashda foydalaniladigan *ROUGE*, *BLEU*, *METEOR* kabi baholash usullari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

2.1. Ma'lumotlar to'plami tayyorlash

T5 modelini o'zbek tilidagi SJ tizimini yaratish uchun moslashtirildi. O'zbek tilida mavjud bo'lgan savol-javob to'plamlarining yetishmasligi sababli o'zbek tilidagi ma'lumotlar to'plami tayyorlandi. Savol-javob to'plami 2000 ta kontekst (savol bilan bog'liq ma'lumotni o'z ichiga olgan matn), savol (kontekstda javobni o'z ichiga olgan savol), javob (savolga eng to'g'ri javob beruvchi qisqa matn) juftligini o'z ichiga oldi. Ushbu ma'lumotlar to'plamining namunasi quyidagi 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

1-jadval. Kontekst, savol, javob ustunlari mavjud bo'lgan ma'lumotlar to'plamidan na'muna

Kontekst	Savol	Javob
O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahridir.	O'zbekiston Respublikasi poytaxti qaysi shahar?	Toshkent shahri
Alisher Navoiy 1441-yilda tug'ilgan.	Alisher Navoiy nechanchi yilda tug'ilgan?	1441-yilda
Hamsa asarini Alisher Navoiy yozgan.	Hamsa asarini kim yozgan?	Alisher Navoiy

Kontekstlar va savollar o'zbek tilining turli mavzularini qamrab olish uchun har xil yo'nalishlarni qamrab olishlari uchun turli ma'lumotlardan jumladan, tarixiy voqealardan, geografiya sohasidan va texnologiyadan yig'ildi.

2.2. Foydalaniladigan model turlari


T5 modeli birinchi marta Google kompaniyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, barcha masalalarni "matndan matnga" yondashuvidan foydalangan holda yechadi. Ya'ni har bir chiquvchi matnni kirish matniga moslashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv savol-javob tizimini yaratishda T5 modelini qo'llashni osonlashtiradi, chunki kiruvchi matn sifatida kontekst va savol beriladi, chiqish matn esa javob bo'ladi. T5 modelining besh xil versiyasi mavjud bo'lib, ular bir biridan foydalanilishdagi parametrlar soni bilan farq qiladi. Shuning bilan birgalikda yuqoridagi besh xil versiyasining Flan T5 deb nomlangan versiyasi bor. Flan T5 modeli katta miqdordagi yo'riqnomalar bilan ko'p tilda o'qitilgan bo'lib, turli murakkab topshiriqlarni bajarishda samaradorligini oshirish uchun optimallashtirilgan[5].

2-jadval. T5 modeli turlari

Model nomi	Parametrlar soni	Foydalanilishi
T5-small/Flan T5-small	~60 million	Kichik hajmda bo'lib, resurslar soni kam muhitda tez o'qitiladi.
T5-base/ Flan T5-base	~220 million	O'rta hajmli model bo'lib, T5-Large versiyasiga qaraganda yengilroq o'qitiladi va T5-small versiyasiga qaraganda aniqroq natijalarni ko'rsatadi.
T5-large/ Flan T5-large	~770 million	Katta hajmli model bo'lib, yuqori aniqlikka ega.
T5-3B/ Flan T5-3B	~3 milliard	Bu versiya katta hajmli ma'lumotlarni va yuqori samaradorlikka ega.
T5-11B/Flan T5-11B	~11 milliard	Bu eng katta versiya bo'lib, yuqori aniqlikga erishish uchun mo'ljallangan

2.3. Model arxitekturası va modelni o'qitish jarayoni

T5 modeli arxitekturası kodlovchi (encoder) va dekodlovchi (decoder)dan tashkil topgan Transformer modeliga asoslangan. Kodlovchi kiritilgan matnni qayta ishlaydi, dekodlovchi esa chiqish matnini yaratadi [6]. T5 modelining asosiy komponentalarini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. T5 modelining arxitekturası.

Arxitekturani tushunish uchun quyidagicha tasniflash mumkin.

2.3.1. Encoder (kodlovchi)

- Encoder qismi kiritilgan matnni tahlil qilib, uni model uchun tushunarli format shakliga o'tkaziladi. Ushbu arxitektura ikkita encoder bloklari mavjud bo'lib, ular bir nechta qismlardan iborat.
- Har bir encoder quyidagi qatlamlardan iborat:**
 - Self-Attention (O'zaro e'tibor):* Bu qatlam berilgan matndagi so'zlarning bir-biriga qanday darajada bog'langanligini aniqlaydi.
 - Add & Normalize:* Self-Attention va feed-forward qatlamlari chiqishlarini yig'adi va shuning bilan birgalikda uni normallashtiradi. Buning natijasida modelning barqaror ishlashi taminlanadi.
 - Feed Forward:* bu qatlam matndagi har bir so'zni qayta ishlaydi. Ushbu qatlam

olingan ma'lumotni yanada boyitadi va bir shakldan boshqa shaklga o'tkazadi.

2.3.2. Decoder (Dekodlovchi)

- Decoder qismida encoder qismidan olingan ma'lumotlar asosida chiquvchi qiymatlar shakllantiriladi. Bu asosan savol-javob tizimlari sohalarida yoki matnlarni tarjima qilishda ishlatiladi.
- Har bir dekoder quyidagi bir nechta qatlamlardan iborat bo'ladi:
 - *Self - Attention*: Dekodlovchi qismidagi so'zlarning orasidagi bog'liqlikni o'rganadi.
 - *Encoder-Decoder attention*: Encoder va dekoder o'rtasidagi bog'lanishni hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda encoderda o'rganilgan ma'lumotlar decoderga uzatiladi. Bu modelga o'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib, yangi matn hosil qilish imkonini beradi.
 - *Add va Normalize*: Ushbu qismda ham ma'lumotlarni normallashtirish amallari bajariladi va Self-Attention va feed-forward qatlamlari chiqishlarini yig'ib boradi. Bu esa chiqishlarni to'g'ri ishlashini taminlaydi.
 - *Feed Forward*: Olingan ma'lumotlarni yanada kuchli va to'liq qayta ishlash vazifasini bajaradi.

2.3.3. Chiquvchi qatlam (Output Layer)

Dekodlovchi qatlam oxirida Chiziqli qatlam va Softmax funksiyalari mavjud. Ushbu qatlamlar orqali model chiquvchi ma'lumotlarni yakuniy so'z shaklida hosil qiladi. Softmax funksiyasi chiquvchi so'zlarning ehtimollik darajasini aniqlaydi va ehtimoli eng yuqori bo'lgan so'zlarni tanlab chiqishlarni hosil qiladi.

Modelni o'qitish jarayonida yuqori sifatli javoblarni ta'minlash uchun maxsus parametrlash usullari qo'llanildi. Modelning har bir versiyasi asosida 2000 ta savol-javob juftligida o'qitildi. O'qitish uchun optimallashtirish algoritmi sifatida adam optimizeri tanlandi, learning rate (o'qitish tezligi) esa $lr=1e-4$ tanlandi, o'qitish qadamlar soni epochs =8 etib belgilandi.

2.4. Modelni baholash usullari

Modelning samaradorligini baholash uchun BLEU, ROUGE, METEOR kabi usullardan foydalanildi. BLEU, ROUGE va METEOR baholash metrikalari til modellari tomonidan ishlab chiqilgan matnlarni baholashda keng qo'llaniladi, ayniqsa matnlarni generatsiya qilishda, matnning tabiiyligi va mazmuniy yaqinligini aniqlashda muhim baholash o'lchovidir. Quyida ushbu metrikalarning har biri haqida ma'lumot berilgan:

BLEU (Bilingual Evaluation Understudy): BLEU savol-javob tizimlari, mashina tarjimasi uchun eng ko'p qo'llaniladigan avtomatik baholash ko'rsatkichlaridan biridir. U N-gramm aniqligidan foydalangan holda savollarga javoblarni generatsiya qilish va matn tarjimasi o'rtasidagi o'xshashlikni o'lchaydi [4].



N-gramm aniqligi: BLEU mos yozuvlar tarjimalari bilan solishtirganda savollar javoblarini, matnlar tarjimasida N-grammlarning (N tokenning qo'shni ketma-ketligi) aniqligini o'lchaydi. U har xil uzunlikdagi N-grammlarni ko'rib chiqadi. U odatda unigram (bitta so'z) lardan fourgram (to'rt so'zli ketma-ketliklari) gacha bo'lgan o'xshashliklarni baholaydi. Yuqori aniqlik ballari savollarga javoblarni yoki tarjimasidagi ko'proq N-grammlar mos yozuvlar tarjimalaridagiga mos kelishini ko'rsatadi [8].

BLEU ballari 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi. Yuqori ball tizim tomonidan berilgan javob yoki tarjima sifati yaxshilanganligini ko'rsatadi. BLEU 1 balli mukammal javob sifatini ifodalaydi. Bunda tizim javobi N-gramm aniqligi bo'yicha maqsadli javobga to'liq mos keladi. BLEU da bir nechta cheklovlar mavjud. BLEU faqat N-gramm aniqligiga tayanganligi sababli ravonlik, grammatiklik va semantik aniqlik kabi sifatining barcha jihatlarini qamrab ololmasligi mumkin. Shuningdek, u baholashning to'g'riligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jumla uzunligi va so'zning nomuvofiqligi kabi omillarga sezgir. U ko'pincha savollarga javoblarni generatsiya qilgan matnni yoki tarjima sifatini yanada to'liqroq baholash uchun boshqa baholash ko'rsatkichlari va usullari bilan birgalikda qo'llaniladi[3].

$$BLUE = BP * \exp\left(\sum_{n=1}^N \frac{1}{N} \log(p_n)\right) \quad (1)$$

bu yerda p_n – N-grammlar o'zgartirilgan aniqligidir. U quyida keltirilgan (3) formula asosida hisoblanadi. N – maksimal N-grammlar uzunligi (odatda $N=4$), BP (*Brevity Penalty*) qisqartirish jarimasi hisobladi. Ayrim hollarda tarjima natijasi maqsadli chiqishdan uzun bo'lishi mumkin. U quyidagi (2) formula asosida hisoblanadi:

$$BP = \begin{cases} 1, & \text{agar } c > r \\ \exp\left(1 - \frac{r}{c}\right), & \text{agar } r \leq c \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda c nomzod chiqish uzunligi, r madsadli chiqish uzunligi hisoblanadi.

$$p_n = \frac{C_n}{C_m} \quad (3)$$

bu yerda C_n – nomzodaning maqsadli javobida yoki tarjimada uchraydigan N-grammlar soni va C_m – maqsali javobda yoki tarjimada yaratilgan N-grammlar soni.

ROUGE (Recall-oriented understudy for Gisting Evaluation): ROUGE birinchi navbatda mashina tomonidan yaratilgan javoblarni baholash uchun ishlatiladi, lekin u so'z yoki N-gramm darajasida nomzod va mos yozuvlar tarjimalari o'rtasidagi o'xshashlikni solishtirish orqali mashina tarjimasini baholash uchun ham moslashtirilishi mumkin. ROUGE shuningdek, mashina tarjima tizimida hosil qilingan nomzod matn va maqsadli tarjima o'rtasidagi o'xshashlik belgilarini hisoblashga asoslangan. ROUGE ning asl taqdimotida u aniqroq yo'naltirilgan BLEU bilan solishtirganda eslab qolish (Recall) tomoniga ko'proq e'tibor qaratildi. Hozirgi kunda biz buni odatda bir-biriga o'xshashlik uchun F1-balli (F1-score) ni hisoblash asosida ko'ramiz. ROUGE turli mezonlar, jumladan, N-gramm

o'xshashligi, so'zlarning o'zaro mos kelishi va eng uzun umumiy ketma-ketlik asosida tizim tomonidan yaratilgan xulosalar va mos yozuvlar xulosalari o'rtasidagi o'xshashlikni o'lchaydi[7].

N-gramm o'xshashligi: ROUGE-N N-gramm larning (N so'zning qo'shni ketma-ketligi) tizim tomonidan yaratilgan xulosa va mos matnlar o'rtasidagi o'xshashligini o'lchaydi. Odatda 1 dan 4 gacha bo'lgan N ning turli qiymatlari uchun aniqlik (Precision), eslab qolish (Recall) va F1 balli (F1-score) ni hisoblaydi. ROUGE-N tizim tomonidan yaratilgan nomzod tarjima maqsadli tarjimada mavjud bo'lgan asosiy tarkib va iboralarni qanchalik yaxshi qamrab olishini baholaydi.

So'zlarning o'xshashligi: ROUGE-W tizim tomonidan yaratilgan tizim javobi va tarjima o'rtasidagi so'zlarning bir-biriga mos kelishini o'lchaydi. U matnlar orasidagi semantik o'xshashlikni aniqlash uchun barcha bir-biriga o'xshash so'zlarni, ularning tartibidan qat'iy nazar, hisobga oladi. ROUGE-W N-grammlarga qaratilgan ROUGE-N bilan solishtirganda matnlar o'rtasidagi o'xshashlikning yanada yaxlit ko'rinishini beradi.

Eng uzun umumiy ketma-ketlik (LCS): ROUGE-L tizim tomonidan yaratilgan matn va maqsadli tarjimada mavjud bo'lgan so'zlarning eng uzun ketma-ketligini aniqlaydi. Bu esa so'z tartibi va jumla tuzilishidagi o'zgarishlarga imkon beradi. ROUGE-L ayniqsa tarjimning ravonligi va uyg'unligini baholash uchun foydalidir. Chunki, u so'zlarning aniq mosligini emas, balki tarkibiy o'xshashlikni hisobga oladi.

F o'lchovi: Har bir ROUGE ko'rsatkichi (ROUGE-N, ROUGE-W, ROUGE-L) uchun F-o'lchovi aniqlik va eslab qolishning garmonik o'rtacha qiymati sifatida hisoblanadi (4-ifoda). F-o'lchovi aniqlikni (tizim tomonidan yaratilgan matn qancha qismi haqiqiy javob bilan mos kelishini) va eslab qolishni (tizim tomonidan yaratilgan matnning qancha qismi qaralgani) muvozanatlashtiradigan yagona ball beradi.

Umuman olganda, ROUGE ko'rsatkichlari tizim tomonidan yaratilgan va mos yozuvlar matni o'rtasidagi o'xshashlikni miqdoriy baholash orqali avtomatik umumlashtirish tizimlari va boshqa tabiiy tillarni qayta ishlash vazifalari samaradorligini baholash uchun qimmatli vositani taqdim etadi.

$$f1 - score = \frac{precision}{recall} = \frac{\frac{c_n * c_w}{c_m + c_a}}{\frac{c_m}{c_n} + \frac{c_w}{c_a}} \quad (4)$$

bu yerda C_w – tizimda tomonidan berilgan javobda uchraydigan so'zlar soni, C_a – javobdagi barcha so'zlar soni, C_n – tizim tomonidan berilgan javobda uchraydigan N-grammlar soni va C_m – tizim javobidagi N-grammlar soni.


3. Natija

Xorijda amalga oshirilgan ko'plab tadqiqot ishlarida T5 modelidan ko'ra Flan-T5 modeli yuqori natijalarni qayt etganligini takidlangan shuning uchun o'z masalamizda T5-small modeli va Flan T5-small modellari ustida o'qitishlar soni (epochs) 3, 6, 8 qiymatlarida sinov olib bordik. O'qitish natijalariga ko'ra yo'qotilish (loss) qiymatlar quyidagilarni qayt etdi(4-jadval).

4-jadval. O'qitilishlar soni (epochs) bo'yicha xatoliklar(loss) qiymatlarning ifodalanishi

Model nomi	Epochlar soni							
	1	2	3	4	5	6	7	8
T5-small	0.643	0.336	0.192	0.118	0.080	0.059	0.048	0.039
Flan T5-small	0.578	0.275	0.152	0.100	0.064	0.040	0.030	0.036

Yo'qotishlar qiymatlarini grafik orqali ifodalasak quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Flan T5 modellari bilan T5 modellarining loss qiymatlarini alohida tasvirlarda ifodaladik (2-rasm).



2-rasm. Training jarayonida T5 modelining har bir turida loss qiymatlar

Tajriba natijasida RUOGE aniqlikni baholash quyidagi natijalarni qayt etdi(5-jadval).

5-jadval. Rouge baholash usuni bo'yicha natijalar.

Model nomi va epochlar soni	Baholash usuli			
	Rouge1	Rouge2	Rouge L	RougeLsum
T5-small	0.872	0.734	0.872	0.872
Flan T5-small	0.871	0.735	0.871	0.871

BLEU va METEOR baholash metodlari orqali quyidagi natijalar olindi (6-jadval).



6-jadval. BLEU va METEOR baholash metodlari orqali aniqlangan natijalar.

Baholash metodi	T5-small	Flan T5-small
BLEU	0.709	0.717
METEOR	0.711	0.714

ROUGE baholash natijalari bo'yicha T5-small va Flan T5-small modellarining natijalari deyarli bir xil bo'lib, ROUGE-1 va ROUGE-L ko'rsatkichlari bo'yicha T5-small biroz yuqori, ROUGE-2 bo'yicha esa Flan T5-small ozgina yaxshiroq natija qayd etgan. BLEU va METEOR baholash metodlari bo'yicha esa Flan T5-small modeli mos ravishda 0.717 va 0.714 natijalarni ko'rsatib, T5-small dan biroz yuqoriroq natijalarga erishgan. Umuman olganda, summarization uchun har ikkala model bir xil darajada ishlashi mumkin, lekin machine translation yoki matn generatsiyasi vazifalari uchun Flan T5-small modeli afzalroq bo'lishi mumkin.

Xulosa

T5 modeli asosida o'zbek tili uchun yartilgan savol-javob tizimi shuni ko'rsatdiki, ananaviy T5 modeli asosida yaratilgan savol-javob tizimi ROUGE baholash ko'rsatkichi ROUGE1 0.872, ROUGE2 0.734, ROUGE L 0.872 va BLEU baholash metodi 0.709 va METEOR baholash metodida 0.711 aniqlikni qayt etdi. Flan T5 modeli asosida yaratilgan savol-javob tizimi esa ROUGE baholash ko'rsatkichi ROUGE1 0.871, ROUGE2 0.735, ROUGE L 0.871 va BLEU baholash metodi 0.717 va METEOR baholash metodida 0.714 aniqlikni ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Flan T5 modeli yordamida o'zbek tilida savol-javob tizimi yaratishda yetarli natijalar berishi mumkinligini aniqlandi.



Adabiyotlar

1. Musayev, M., Ochilov, M., Kholmatov, O. and Narzullayev, O. Vektor fazo modeli hamda jummlar o'xshashligi o'lchovlariga asoslangan savol - javob tizimi ishlab chiqish. Digital transformation and artificial intelligence.3,1 (Jan.2025),23–30.
2. Liu, Y, etcs. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. Proceedings of NAACL-HLT 2019. Minneapolis, MN, USA. June 2–7, 2019.
3. Raffel, C. Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer. Proceedings of the 37th International Conference on Machine Learning (ICML 2020).
4. Raffel, C., Shinn, E., Roberts, A., Lee, K., & Narang, S. Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer. Proceedings of the 37th International Conference on Machine Learning (ICML), Long Beach, CA, USA, June 9–15, 2019.
5. Chung, H. W., etcs. Scaling Instruction-Finetuned Language Models. Proceedings of the 40th International Conference on Machine Learning (ICML), 2023. Honolulu, HI, USA. July 23–29, 2023.
6. Roberts, A.; Chung, H. W.; Mishra, G.; Levskaya, A.; Bradbury, J. Scaling Up Models and Data with t5x and seqio Journal of Machine Learning Research. 2023.
7. Lin, C.Y. ROUGE: A Package for Automatic Evaluation of Summaries. Proceedings of the 4th International Conference on Text Summarization. Spain. July 5–7, 2004.
8. Papineni, D.; Roukos, S.; Ward, T.; Zhu, W. BLEU: A Method for Automatic Evaluation of Machine Translation. Proceedings of the 40th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL), Philadelphia, PA, USA, July 6–11, 2002.



Mualliflar

Ravshan Shirinboyev

Jizzakh branch of the National University, Jizzakh, Uzbekistan;
forravshanrsh@gmail.com

Ma'ruf Tojiyev

Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan;
mrtojiev6886@gmail.com

Jo'ra Kuvandikov

Jizzakh branch of the National University, Jizzakh, Uzbekistan;
quvondiqov86@mail.ru

Correspondence: forravshanrsh@gmail.com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

FIRE DETECTION BASED ON OPTICAL FLOW TECHNOLOGY

Abstract: Ensuring fire safety and preventing emergencies has always been an important issue. Fires are one of the natural and man-made disasters that pose a great threat to human life and property. Their rapid spread and difficulty in preventing require increasing the efficiency of fire detection systems. Modern technologies, in particular, the development of artificial intelligence and optical flow algorithms, allow for early detection of fires. Analyzes the principles of operation, technical approaches and effectiveness of automatic fire detection systems based on optical flow technology. Optical flow technology can detect early fire symptoms by monitoring movement dynamics and analyzing changes. Traditional sensors often face the problem of late detection in the development stage of a fire, which causes material damage and endangers human life. The optical flow approach can overcome these problems by detecting the initial movement patterns of a fire. Discusses the basic principles of optical flow technology, motion detection methods using various algorithms, and their contribution to early fire detection. In addition, the possibilities of integrating this technology with artificial intelligence and video surveillance systems are also discussed. By combining optical flow and machine learning approaches, fire detection systems can be more reliable and faster. The article also analyzes the accuracy and performance of algorithms used for fire detection. The results of early fire detection using optical flow technology in various real-world conditions are reviewed, and recommendations are made for future development of this technology.

Key words: Optical flow, lucas-kanade method, horn-schunck algorithm, farneback, optical flow, motion estimation, fire detection, computer vision, image processing, real-time monitoring, deep learning in fire detection, video surveillance, feature tracking, ai-based fire recognition, early fire detection systems, smoke and flame detection.

Introduction

Fire is one of the disasters that can cause serious damage to human life, property and ecological systems. The rapid spread of fire and the difficulty of prevention increase the importance of early detection systems. Today, there are traditional fire detection methods, which mainly work through smoke detectors, temperature sensors and infrared cameras. However, these methods may not give accurate results in the early stages of a fire or may lead to false positives. Optical flow technology is seen as an innovative approach to solve this problem. This technology analyzes the movement patterns of fire and smoke by processing images in real time, helping to detect fires at an early stage. This approach is much more effective than traditional sensors, allowing for rapid response and fire prevention.

Optical flow technology has several advantages in fire detection systems. It provides rapid warning by tracking the movement of fire and smoke. While fire detection systems are usually based on smoke or temperature sensors, optical flow works in the visible spectrum using cameras. It can be integrated into existing surveillance cameras, eliminating the need for new hardware. It can be combined with machine learning methods to reduce false positives and increase accuracy. It has the ability to detect where a fire is starting and predict its trajectory. During a fire, the optical flow approach adapts to environmental conditions and works effectively in both natural and artificial lighting conditions of the fire. These advantages of optical flow technology make it a promising tool in the field of fire detection. This article analyzes the theoretical basis of optical flow, its application to fire detection, and the results.

Materials and Methods

Lucas - Canadian method optical stream v_x, v_y small W size in the mirror (of the image) small part) permanent to be guess So the optical flow equation is for all the objects inside this window $q = (k, l)$. is performed for pixels with coordinates :

$$I_x(q)v_x + I_y(q)v_y = -I_t(q), \quad \forall q = (k, l) \in W$$

These equations form a system of linear equations and can be written in the following matrix form:

$$Av = b$$

here :

A – size $n^2 \times 2$ is a matrix that W contains the image gradient components for each pixel within the window:

$$A = \begin{bmatrix} I_x(q_1) & I_y(q_1) \\ I_x(q_2) & I_y(q_2) \\ \vdots & \vdots \\ I_x(q_n) & I_y(q_n) \end{bmatrix}$$

v – mirror W The vector representing the optical flow for:

$$v = \begin{bmatrix} v_x \\ v_y \end{bmatrix}$$

b – size n^2 is a vector that contains the time derivatives of the image:

$$b = \begin{bmatrix} -I_t(q_1) \\ -I_t(q_2) \\ \vdots \\ -I_t(q_n) \end{bmatrix}$$

This linear system has n^2 one equation and two unknowns, which means it is **an overdetermined system**. The Lucas-Canade method finds the solution to this equation using **the least squares method**:

$$A^T A v = A^T b$$

where is the transpose of A^T the matrix A .

The least squares solution looks like this:

$$v = (A^T A)^{-1} A^T b$$

Expanding this formula, we write:

$$\begin{bmatrix} v_x \\ v_y \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \sum_i I_x(q_i)^2 & \sum_i I_x(q_i)I_y(q_i) \\ \sum_i I_y(q_i)I_x(q_i) & \sum_i I_y(q_i)^2 \end{bmatrix}^{-1} \begin{bmatrix} -\sum_i I_x(q_i)I_t(q_i) \\ -\sum_i I_y(q_i)I_t(q_i) \end{bmatrix}$$

The optical flow can v only be evaluated if $A^T A$ the matrix is **inverse and well-conditioned**. This condition is satisfied if:

A^T the eigenvalues λ_1, λ_2 of the matrix are large and of the same order. **The condition for determining the angle is met**, because this condition is also important for calculating optical flow. On the contrary, if the window: Is a flat region, the gradients are close to zero and the motion cannot be detected. If there is an edge in only one direction, only one component of the motion can be detected. **The Lucas-Canade method is one of the important techniques in computer vision**. We use the concept of optical flow and the mathematical formulas of the Lucas-Canade method. **This method** is effective for detecting small movements and is widely used in areas such as object tracking, face detection, and video stabilization.




Figure 1. Lucas-Canade optical flow.

Lucas-Canade is a popular approach to optical flow calculation, which improves optical flow calculation by applying a global smoothness constraint. This method, unlike the Lucas-Kanade method, **attempts to find optical flow over the entire image** and ensures logical smoothness of the optical flow vectors.

The Horn-Schunck method relies on two main assumptions in calculating optical flow. Optical Flow Equation (Brightness Constancy Assumption): The light intensity in an image is virtually constant over time.

$$I(x, y, t) = I(x + \Delta x, y + \Delta y, t + \Delta t)$$

Expanding this equation into a first-order Taylor series yields the optical flow equation:

$$I_x v_x + I_y v_y + I_t = 0$$

here :

I_x, I_y – image x and y gradients in the direction.

I_t – gradient over time .

v_x, v_y – components of the optical flow in x and y directions.

Smoothness Constraint : The Horn-Schunck method assumes that the optical flow is **smooth over the entire image area**. It assumes that the optical flow vectors for neighboring pixels should be similar . This is achieved by the following smoothing function:

$$E_s = \iint \left(\left(\frac{\partial v_x}{\partial x} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_x}{\partial y} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_y}{\partial x} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_y}{\partial y} \right)^2 \right) dx dy$$

The weight of this smoothing constraint is introduced as α (smoothness coefficient) . Thus, the overall optimization function becomes :

$$E_s = \iint \left((I_x v_x + I_y v_y + I_t)^2 + \alpha^2 \left(\left(\frac{\partial v_x}{\partial x} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_x}{\partial y} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_y}{\partial x} \right)^2 + \left(\frac{\partial v_y}{\partial y} \right)^2 \right) \right) dx dy$$

This energy function, the best optical flow vectors can be found. Uses the Euler-Lagrange equations

to minimize the above optimization function. finds the optical flow vectors by solving. Using the variational calculus method, the following equations are obtained:

$$I_x(I_x v_x + I_y v_y + I_t) - \alpha^2 \nabla^2 v_x = 0$$

$$I_y(I_x v_x + I_y v_y + I_t) - \alpha^2 \nabla^2 v_y = 0$$

where $\nabla^2 v_x$ and $\nabla^2 v_y$ are the Laplacian operators of the optical flow vectors, which provide smoothness across the image.

The Horn-Schunck method finds the optical flow by iteratively solving this system of equations. The optical flow for each pixel is updated using the following formulas:

$$v_x^{k+1} = \bar{v}_x^{(k)} - \frac{I_x(I_x \bar{v}_x^{(k)} + I_y \bar{v}_y^{(k)} + I_t)}{\alpha^2 + I_x^2 + I_y^2}$$

$$v_y^{k+1} = \bar{v}_y^{(k)} - \frac{I_y(I_x \bar{v}_x^{(k)} + I_y \bar{v}_y^{(k)} + I_t)}{\alpha^2 + I_x^2 + I_y^2}$$

here :

$\bar{v}_x$ and $\bar{v}_y$ – average values of the optical flux of neighboring pixels.
 k – iteration number.




Figure 2. Horn-Schunck optical flow

This iteration is performed multiple times over the image, and at each step the optical flow vectors are significantly updated. It computes global optical flow, i.e., it provides smooth results over



the entire image. It is robust to noise, as smoothness constraints reduce subtle image errors. It produces accurate and consistent results, especially for small motions. It can be problematic for detecting large motions, as the smoothness constraint links all pixels together. It is computationally intensive, and computationally expensive because of the iterative method used. It can produce very smooth results, which sometimes makes it difficult to detect precise motions. The Horn-Schunck method attempts to compute optical flow over the entire image and improves the results by applying a smoothness constraint. It allows for smoother and more accurate detection of motions across the image. This method is widely used in the fields of video stabilization, object tracking, and motion analysis.

was introduced by Gunnar Farneback in 2003, and it is **used to calculate the dense optical flow of images**. for **mathematical models and polynomials uses approximation** techniques. The Farneback method estimates motion continuously and densely by modeling the image with local quadratic polynomials. This approach, unlike the Lucas-Kanade and Horn-Schunck methods, does not only use gradient information, but also analyzes image structures.

allows for the calculation of optical flow vectors for each pixel in a dense form (dense optical flow). This is a direct result of the Lucas-Kanade method. This allows for a separate optical flow value to be obtained for each pixel.

proposes to represent the intensity function in each part of the image by a quadratic polynomial. This means that the image intensity in each small region is approximated as follows:

$$f(x) = x^T A x + b^T x + c$$

here:

x – pixel coordinates (x, y) ,

A – symmetric matrix (contains second-order derivatives of the image),

b – gradient vector,

c – scalar value.

Using this model, information about the location and orientation of the image can be obtained.

If the image is moving, then a new image (frame) can be obtained from the old image using optical flow vectors:

$$f_2(x) = f_1(x + d)$$

Here:

$f_1(x)$ and $f_2(x)$ – intensity functions in the initial and subsequent frames of the image.

d – optical flow vector (direction of motion).

the vectors for each pixel d .

The Farneback method calculates optical flow through the following steps:

1. A small region around each pixel is represented by a quadratic polynomial.

Image Resizing with Gaussian Pyramid (Scale Space)

The image is zoomed in several times to detect large movements.

The optical flow at each dimension level is calculated separately.

Step-by-step calculation of optical flow

Starting from small images and moving to large images, updating the motion vectors at each stage.

Smoothing motion vectors and stabilizing the detected motion vectors using filters .




Figure 3. Farneback optic flow

Results.

To evaluate the effectiveness of optical flow algorithms for early fire detection, various experimental tests were conducted. These tests were carried out under different conditions, including real-time monitoring, varying lighting levels, and different fire intensity stages. The following results compare the performance of each algorithm in terms of fire detection accuracy, false positive rates, and computation speed.

Table 1. Comparative experimental results.

Algorithm	Accuracy (%)	False positive (%)	Calculation time (ms)
Lucas-Canade	85.3	10.5	50
Horn-Schunck	88.7	8.2	70
Farneback	92.1	6.8	35

The Lucas-Kanade algorithm is designed to detect small movements related to fire symptoms. It accurately identifies early fire indicators such as light smoke and sparks. However, its accuracy decreases when detecting large fires and rapidly moving smoke flows. The probability of false alarms is relatively high (10.5%), which can lead to excessive alerts. The computation speed is 50 ms, making it suitable for real-time monitoring.

The Horn-Schunck algorithm provided good results for monitoring fire spread. It allows for

smooth global motion representation, making it well-suited for tracking fire and smoke directions in video frames. However, the computation process is relatively heavy, requiring 70 ms for processing. While its accuracy in tracking large movements is higher than the Lucas-Kanade method, it is not efficient enough for real-time monitoring. The false positive rate is 8.2%, which is lower compared to other algorithms.

The Farneback algorithm demonstrated the highest accuracy across all test conditions – 92.1%. It quickly detects smoke and fire movements at the early stages. This method calculates dense optical flow, meaning it analyzes movement for each pixel, leading to improved accuracy. The computation speed is the fastest (35 ms), making it highly suitable for real-time monitoring. The false alarm rate is low (6.8%), which increases system reliability. However, one drawback is that in some cases, it may mistakenly classify non-fire movements as fire.

Early detection of initial fire indicators (e.g., smoke and fire movement). Faster and more accurate than heat and smoke detectors. High-speed and precise analysis due to the Farneback algorithm. Improved accuracy when combined with machine learning and deep learning techniques. Can be integrated into existing surveillance cameras, reducing the need for additional hardware. Requires high computational power, such as a powerful GPU and optimized software for real-time monitoring. Environmental movements (e.g., wind, moving objects) can sometimes cause false fire alarms. For more reliable results, optical flow technology should be combined with infrared or thermal cameras. When combined with deep learning models such as CNN or RNN, fire detection can become even more precise. Using infrared and thermal cameras along with conventional cameras can enhance detection accuracy. Optical flow algorithms can be integrated into drones to monitor large areas, enabling early fire detection. Current results are based on laboratory conditions, but field tests in forests and industrial areas will help assess real-world effectiveness. Optimizing optical flow algorithms can improve computation speed and adapt them for low-power devices.

Conclusion

Optical flow technology is a new way of fire detection and prevention early on. Compared to standard fire detection methods, optical flow technology is better and more accurate since it can scan video frames in real-time to detect movements in flames and smoke.

Farneback algorithm proved to be the most effective one with 92.1% accuracy and a best processing time of 35 ms for fire detection. Horn-Schunck algorithm easily detected global motion but was a resource-intensive computer algorithm. Lucas-Kanade algorithm could detect minor movements but suffered from low accuracy in detecting large fire with a false positive rate of 10.5%. Merging fire safety systems with optical flow technology has the potential to improve response and detection time for fires significantly, saving human life and property in the long run. The greatest advantages of this technology are. Instant response and detection the moment a fire is started. Picks up fire signs earlier than traditional heat and smoke detectors. Can be integrated into existing surveillance systems without additional hardware costs. Fire detection systems can be made more efficient and reliable if they are combined with machine learning and deep learning techniques. Optical flow algorithms can be employed in drones as well as surveillance cameras for monitoring large areas such as forests and industrial zones.



Several areas for improvement in optical flow-based fire detection systems are suggested on the basis of the outcomes of the research. Combining optical flow algorithms with infrared sensors has the potential to improve accuracy by detecting fire-caused movements outside the visual spectrum.

Incorporation of optical flow technology into drone systems can greatly enhance fire detection in vast environments such as forests and industrial complexes. Utilization of deep learning networks such as Convolutional Neural Networks (CNNs) and Recurrent Neural Networks (RNNs) will also assist in simplifying fire and smoke movement. In an effort to enhance real-time monitoring, optical flow algorithms need to be optimized for running on GPUs as well as FPGA accelerators to speed up processing time and reduce computing overhead. While this research has been conducted in laboratory conditions, more work needs to be conducted in field tests within industrial and natural settings to examine the real-world efficiency of optical flow fire detection. Optical flow technology holds vast potential for transforming fire detection and prevention systems. Through faster and more accurate detection than traditional means, it can have a significant effect on fire safety. Also, the integration of this technology with artificial intelligence, infrared sensors, and drone monitoring can lead to even more powerful and reliable fire detection systems. Advances and utilizations of this technology in the future will be of great importance in improving fire safety measures and protecting human life.



References

1. Lucas, B. D., & Kanade, T. (1981). An Iterative Image Registration Technique with an Application to Stereo Vision. *Proceedings of Imaging Understanding Workshop*, 121–130.
2. Horn, B. K. P., & Schunck, B. G. (1981). Determining Optical Flow. *Artificial Intelligence*, 17(1-3), 185-203.
3. Farnebäck, G. (2003). Two-Frame Motion Estimation Based on Polynomial Expansion. *Scandinavian Conference on Image Analysis (SCIA)*, 363-370.
4. Fleet, D. J., & Weiss, Y. (2006). Optical Flow Estimation. *Handbook of Mathematical Models in Computer Vision*, 239-258.
5. Gonzalez, R. C., & Woods, R. E. (2018). *Digital Image Processing* (4th ed.). Pearson.
6. Beauchemin, S. S., & Barron, J. L. (1995). The Computation of Optical Flow. *ACM Computing Surveys*, 27(3), 433-467.
7. Chino, T., et al. (2020). Deep Learning-Based Fire Detection Using Optical Flow Analysis. *IEEE Transactions on Image Processing*, 29, 610-622.
8. Yuan, C. (2019). A Review of Fire Detection Using Computer Vision Techniques. *Journal of Fire Sciences*, 37(2), 85-102.
9. Baeldung Computer Science (2024). Lucas-Kanade Optical Flow Method. Retrieved from: <https://www.baeldung.com/cs/optical-flow-lucas-kanade-method>
10. OpenCV Documentation (2024). Optical Flow Techniques. Retrieved from: <https://docs.opencv.org>
11. Shirinboyev, R., Rakhimov, N., Khasanov, D., & Xafizadinov, U. (2024). EVALUATING THE PERFORMANCE OF CONVOLUTIONAL NEURAL NETWORKS AND HYBRID CNN-SVM MODELS FOR SYMBOL RECOGNITION IN COMPLEX DATASETS. *DTAI-2024*, 1(DTAI), 295-299.
12. Rustamovich, A. A., Ruzikulovich, T. M. R., & O'G'Li, S. R. S. (2023). Yong'inni videotasvirda rangli filtrlash bilan intensivlik o'zgarishi asosida aniqlash. *Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие*, 6(2), 13-21.
13. Рахимов, Н., Ширинбаев, Р., & Саидова, З. (2023). Ма'lumotlarni intellektual tahlillash uchun oldindan tasniflash va yakuniy konvolyutsion neyron tarmog 'i. *Информатика и инженерные технологии*, 1(2), 55-61.
14. Dilmurod, H., & Shirinboyev, R. (2024). THE MAIN THEORY OF LINEAR REGRESSION MODELS IN DATA MINING. *Sun'iy Intellect Nazariyasi va Amaliyoti: Tajribalar, Muammolar va Istiqbollari*, 143-147.
15. Xolboyevich, A. S. (2022). Pythonda chiziqli regressiya. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 233-238.
16. Akhatov, A., Shirinboyev, R., & Bobolov, J. (2023). Correction of integrity violations in the video image area using the retinex algorithm. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 162-172.
17. Ruzikulovich, T. M. R. (2022). Neyron tarmog algoritmlari yordamida murakkab fondagi belgilarni aniqlash algoritmlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 238-241.
18. Rustamovich, A. A., & Ruzikulovich, T. M. R. (2022). Konvolyutsion neyron tarmog 'i asosida video tasvirdan yong 'inni erta aniqlash. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 128-132.



19. Таджиев, М., Ширинбоев, Р., & Сулаймонова, М. (2022). Open cv kutubxonasida tasvirlarga rang modellari bilan ishlov berish. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 212-215.
20. Shirinboyev, R., & Bobolov, J. (2023). Image segmentation by otsu method. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 64-72.



Mualliflar

Ilyos Xujayarov

Axborot texnologiyalari kafedrası,
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali,
Samarqand, O'zbekiston;
ilyoskhujayorov@gmail.com

Quvonchbek Norqo'ziyev

Kompyuter ilmlari va dasturlashtirish
kafedrası, O'zbekiston Milliy
universiteti Jizzax filiali, Jizzax,
O'zbekiston;
quvonchbek9535@gmail.com

Mas'ul: quvonchbek9535@gmail.com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons
Attribution (CC BY) litsenziyasi
shartlari asosida tarqatiladigan ochiq
foydalanish maqolasi hisoblanadi
(<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

THE CONSTRUCTSIM MUHITIDA ROS YORDAMIDA AVTONOM MOBIL ROBOTLARNING LOKALLASHTIRISH VA KARTOGRAFIYALASH ASOSIDA NAVIGATSIYA ALGORITMLARI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda TheConstructSim muhitidan foydalanib, avtonom mobil robotlarning lokallashtirish, kartografiyalash va navigatsiya algoritmlarini tadqiq qilish jarayoni bayon etiladi. SLAM (Simultaneous Localization and Mapping), yo'l rejalashtirish algoritmlari (Dijkstra, A*, RRT, va DWA) va sensor birlashtirish texnikalarining amaliy sinovlari TurtleBot 3 va Jackal UGV robot modellari yordamida simulyatsiya qilindi. Ish jarayonida ROS (Robot Operating System), Gazebo, RViz va robot_localization kabi vositalardan foydalanildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turli lokallashtirish va navigatsiya algoritmlarining samaradorligi solishtiriladi hamda optimal yondashuvlar aniqlanadi. Natijalarga ko'ra, turli lokallashtirish va navigatsiya metodlari o'rtasida samaradorlik, hisoblash resurslari va real vaqt rejimidagi bajarilish tezligi kabi jihatlar bo'yicha taqqoslashlar o'tkazildi. Ushbu yondashuvlar va tahlillar kelgusidagi robototexnika tizimlarini yanada takomillashtirish hamda haqiqiy sharoitga moslashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: SLAM, path planning, ROS, Gazebo, TheConstructSim, Gmapping, Dijkstra, A*, RRT va DWA.

Kirish

Avtonom mobil robotlar zamonaviy texnologiyalarning ajralmas qismiga aylanib, sanoat, logistika, qishloq xo'jaligi, xavfsizlik va transport sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu robotlarning samarali ishlashi uchun ularning atrof-muhitni tushunishi, aniqlik bilan lokallashtirilishi va optimal harakatlanish trayektoriyasini belgilashi muhim ahamiyatga ega. Lokallashtirish va navigatsiya avtonom tizimlarning asosiy komponentlari bo'lib, bu jarayonlarning aniqligi robotlarning to'g'ri va xavfsiz harakatlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda turli algoritmlar va texnologiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning haqiqiy sharoitda va simulyatsiya muhiti orqali sinovdan o'tkazilishi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Lokallashtirish va kartografiyalash texnologiyalari robotning o'z muhitida joylashuvini aniqlash va atrof-muhit xaritasini yaratishga asoslanadi. Ushbu jarayonlarda SLAM (Simultaneous localization and mapping) algoritmlari yetakchi rol o'ynaydi. SLAM texnologiyasi turli sensorlar, jumladan, LIDAR, RGB-D kameralar, IMU va GPS yordamida amalga oshiriladi. An'anaviy SLAM yondashuvlari orasida Gmapping, Hector SLAM, RTAB-Map va Cartographer kabi algoritmlar keng qo'llaniladi. Ushbu algoritmlar odometrik ma'lumotlar va vizual sensorlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash orqali robotning harakatlanish traektoriyasini aniq belgilaydi va xaritalarni yaratadi. Biroq, har bir usulning o'ziga xos cheklovlari mavjud bo'lib, real sharoitda ularning samaradorligi turlicha bo'lishi mumkin. [2]

Avtonom navigatsiya esa harakatlanish rejasini tuzish va to'siqlardan qochish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Navigatsiya algoritmlaridan Dijkstra, va DWA* A va RRT (Rapidly-exploring random tree)* kabi klassik yondashuvlar keng foydalaniladi. Dijkstra algoritmi eng qisqa yo'lni topishda ishonchli natijalar bersa, A* algoritmi optimal va samarali yo'l rejalashtirish imkoniyatini yaratadi. RRT esa tasodifiy daraxt asosida yo'l rejalashtirishga mo'ljallangan bo'lib, real vaqt rejimida murakkab muhitlarda robot harakatini rejalashtirishda qo'llaniladi. Ushbu algoritmlarning ishlashi simulyatsiya muhiti orqali sinovdan o'tkazilib, ularning aniqligi va samaradorligi baholanadi.

Tadqiqotlarda real muhitni imitatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Simulyatsiya muhitlari ilmiy tadqiqotlar va amaliy testlar o'tkazish uchun qulay platformalar hisoblanadi. TheConstructSim platformasi bu borada ROS (Robot operating system) bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, unda turli mobil robotlar bilan ishlash va ularning harakatlanishini sinash imkoniyati mavjud. Ushbu muhit Gazebo, RViz kabi vositalarni qo'llab-quvvatlaydi va real sharoitlarga yaqin modellar yaratish imkonini beradi. TheConstructSim yordamida avtonom mobil robotlarning turli navigatsiya va lokallashtirish algoritmlarini sinash orqali ularning real tizimlardagi samaradorligini baholash mumkin [1].

Ushbu tadqiqot doirasida TheConstructSim muhitida TurtleBot 3 va Jackal UGV mobil robotlaridan foydalanildi. Ushbu robotlar odatda ilmiy tadqiqotlarda, akademik muhitda va sanoat sharoitlarida test sinovlari uchun keng qo'llaniladi. Tadqiqot jarayonida SLAM algoritmlari asosida xaritalash, turli lokallashtirish usullari, GPS va IMU ma'lumotlarining integratsiyasi hamda navigatsiya algoritmlarining samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Har bir algoritmnining aniqligi, ishlash tezligi va real vaqt rejimidagi samaradorligi tahlil qilindi [3].



Ushbu tadqiqotda lokallashtirish, kartografiyalash va navigatsiya jarayonlarini o'rganish, ularning amaliy tadbiqini simulyatsiya qilish hamda turli algoritmlarning qiyosiy tahlilini o'tkazish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari kelajakda avtonom transport vositalari, sanoat robotlari va aqlli logistika tizimlari uchun samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda. TheConstructSim muhitida sinov o'tkazish robototexnika sohasida yangi yondashuvlarni kashf qilish imkonini beradi va real tizimlarga o'tishdan oldin eng samarali echimlarni tanlashga yordam beradi [7].

Nazariy asoslari

SLAM (Simultaneous localization and mapping) – bu avtonom robotlarning o'z muhitida harakatlanishi davomida lokallashtirish va kartografiyalashni bir vaqtda amalga oshirish jarayonidir. SLAM algoritmlari robotning atrof-muhitni tasvirlash, xarita yaratish va shu xaritada o'zining joylashuvini aniqlashiga imkon beradi. Bu jarayon odatda LIDAR, RGB-D kamera, IMU va odometriya kabi sensorlar yordamida amalga oshiriladi. SLAM robototexnika va sun'iy intellekt sohalarida keng qo'llanilib, avtonom avtomobillar, ombor robotlari, qishloq xo'jaligi texnikasi va hatto uchuvchi dronlar uchun ham qo'llaniladi.[4]

SLAM algoritmlarining samaradorligi uning aniqligi, ishlash tezligi va muhitdagi to'siqlarga moslashish qobiliyatiga bog'liq. Hozirgi vaqtda Gmapping va Hector SLAM eng ommalashgan SLAM algoritmlaridan bo'lib, ular 2D xaritalash va navigatsiya tizimlarida keng qo'llaniladi.

Gmapping – bu 2D SLAM algoritmi bo'lib, avtonom robotlarning muhitni xaritalash va o'z pozitsiyasini aniqlash jarayonida eng ko'p ishlatiladigan usullardan biridir. Ushbu algoritmi Monte Carlo Localization (MCL) va Rao-Blackwellized Particle Filter (RBPF) texnologiyalariga asoslangan. Gmapping asosan LIDAR va odometriya sensorlaridan foydalanib, grid-based (to'rli) xarita yaratadi.[5]

Gmapping SLAM tizimi robotning o'z muhitida harakatlanishi davomida sensorlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va real vaqt rejimida xarita hosil qiladi. Ushbu algoritmi odometriya ma'lumotlari va LIDAR skanerlaridan foydalanib, robot harakatini kuzatib boradi va xaritani aniqlik bilan yaratishga yordam beradi.[6]

Hector SLAM – bu 2D SLAM algoritmi bo'lib, uning eng katta ustunligi odometriyaga bog'liq bo'lmagan ishlash mexanizmi. Gmapping SLAM odometriya sensorlariga tayanadi, Hector SLAM esa faqat LIDAR sensorlaridan foydalangan holda xaritalashni amalga oshiradi. Ushbu algoritmi scan-matching (skanerlash bo'yicha moslashtirish) texnikasi yordamida robotning joylashuvini real vaqt rejimida hisoblaydi va odometriya xatolaridan xalos bo'ladi.[1]

Hector SLAM tez harakatlanuvchi yoki odometriyasi mavjud bo'lmagan robotlar uchun mo'ljallangan. U LIDAR sensorlari yordamida atrof-muhitning xaritasini yaratadi va harakatlanish davomida robotning joylashuvini yuqori aniqlik bilan kuzatib boradi. Bu algoritmi ayniqsa tez harakatlanuvchi dronlar, qidiruv-qutqaruv robotlari va real vaqt xaritalash tizimlari uchun juda mos keladi.[5]

Odometriya – bu harakatlanuvchi robot yoki transport vositasining joylashuvi va yo‘l bosib o‘tish masofasini hisoblash uchun ishlatiladigan texnika. Ushbu usul odatda g‘ildirak sensorlari (enkoderlar), IMU (inerisial o‘lchov birligi) va boshqa harakat o‘lchov tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

1-jadval. Gmapping va Hector SLAM eng ommalashgan SLAM algoritmlari.

Xususiyatlar	Gmapping	Hector SLAM
Afzalliklari	- Oddiy va samarali 2D SLAM - ROS bilan to‘liq mos - Tezkor xaritalash imkoniyati - O‘rta va kichik muhitlar uchun mos	- Odometriyasiz ishlaydi - Yuqori aniqlikdagi xaritalash - Tezkor real vaqt ishlashi - Dronlar va tez harakatlanuvchi robotlar uchun mos
Kamchiliklari	- Odometriya xatolariga sezgir - Katta va murakkab muhitlarda aniq ishlamasligi mumkin - GPS bilan cheklangan ishlash	- IMU va LIDAR talab qiladi - Dinamik muhitlarda aniqligi pasayishi mumkin - GPS bilan ishlash qiyin
Qo‘llanilish sohalari	- Ichki muhit robotlari (ombor, ofis, uy robotlari) - Sanoat logistika tizimlari - ROS muhitida SLAM tadqiqotlari	- Dronlar va uchuvchi robotlar - Qutqaruv robotlari va xavfsizlik tizimlari - Ichki muhitda aniq xaritalash talablari

Navigatsiya – bu avtonom robot yoki transport vositasining muayyan maqsadga eng samarali va xavfsiz yo‘l bilan yetib borishini ta’minlash jarayoni. Navigatsiya algoritmlari robotning marshrutini rejalashtirish va to‘siqlardan qochish uchun ishlatiladi. Ushbu algoritmlar asosan graf nazariyasi va qidiruv strategiyalari asosida quriladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan algoritmlar orasida Dijkstra va A* (A-Star) usullari mavjud.

Avtonom robotlar va transport vositalari uchun sensor integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi. IMU (Inertial Measurement Unit), GPS (Global Positioning System) va LIDAR (Light Detection and Ranging) sensorlari birgalikda ishlatilganda, robotning joylashuvi aniqroq aniqlanadi, harakat traektoriyasi kuzatiladi va atrof-muhitning batafsil xaritasi yaratiladi. Ushbu integratsiya lokallashtirish, kartografiyalash va navigatsiya tizimlarida samarali qo‘llaniladi.

Amaliy ishlar va eksperimentlar

Avtonom mobil robotlarning **lokallashtirish va navigatsiya** algoritmlari real dunyo sharoitida aniq harakatlanish, yo‘l rejalashtirish va to‘siqlardan qochish imkoniyatini beradi. Ushbu tadqiqotda **TheConstructSim** muhitida ROS yordamida **TurtleBot 3** va **Jackal UGV robotlarida navigatsiya va SLAM algoritmlarining samaradorligi** sinovdan o‘tkaziladi. Eksperimentlar davomida *Dijkstra*, *A*, *RRT* va *DWA** algoritmlarining ishlash natijalari baholanadi, **lokallashtirish va xaritalash uchun Gmapping va Hector SLAM** tahlil qilinadi.

Lokallashtirish modeli (Bayes filtrlash) :

Robot o'z muhitida joylashuvini aniqlash uchun **Bayes filtri** asosida hisob-kitob qiladi:

$$p(x_t | z_{1:t}, u_{1:t}) = \eta p(z_t | x_t, m) \int p(x_t | x_{t-1}, u_t) p(x_{t-1} | z_{1:t-1}, u_{1:t-1}) dx_{t-1} \quad (1)$$

x_t – hozirgi joylashuvi, $z_{1:t}$ – sensor o'lchovlari, $u_{1:t}$ – robot harakati, m – xarita;

Yo'l rejalashtirish modeli:

A* algoritmi yo'lni rejalashtirish uchun quyidagi xarajat funksiyasidan foydalanadi:

$$F(n) = G(n) + H(n) \quad (2)$$

$G(n)$ – bosib o'tilgan yo'l uzunligi, $H(n)$ – maqsad tugungacha taxminiy yo'l uzunligi;


Harakat modeli:

Mobil robot differensial harakat tenglamalari orqali boshqariladi:


$$x = v \cos(\theta), y = v \sin(\theta), \theta = \frac{v_r - v_l}{L} \quad (3)$$

v_r, v_l – g'ildirak tezliklari, L – g'ildiraklar orasidagi masofa

Birinchi navbatda, robotning lokallashtirish modeli sifatida Bayes filtrlash yondashuvi qo'llanilgan. Tadqiqotda robot sensor o'lchovlari ($z_{(1:t)}$), avvalgi harakatlar ($u_{(1:t)}$) va atrof-muhit xaritasi (m) ma'lumotlariga asoslanib, hozirgi pozitsiyasini aniqlash uchun quyidagi formula (1) ishlatilgan. Ushbu model yordamida robotning aniq lokallashtirilishi ta'minlanadi, so'ngra bu natijalar Gmapping va Hector SLAM metodlari orqali xaritalash jarayoniga integratsiya qilinadi. Yo'l rejalashtirish bosqichida esa **A*** algoritmi qo'llanilib, optimal marshrutni aniqlashda quyidagi xarajat funksiyasi, ya'ni formula (2) asosiy rol o'ynaydi. Bu yerda $G(n)$ – robot tomonidan bosib o'tilgan yo'l uzunligi, $H(n)$ – maqsad tugungacha bo'lgan taxminiy yo'l uzunligi. Ushbu formuladan foydalanib, robot qisqa va samarali yo'lni tanlab, tez va optimal harakatlanishni ta'minlaydi. Robotning harakatini real vaqt rejimida boshqarish uchun esa differensial harakat tenglamalari asosida qurilgan harakat modeli qo'llaniladi. Bu model quyidagi formula (3) orqali ifodalanadi. Bu tenglamalarda v – umumiy tezlik, v_r va v_l – o'ng va chap g'ildiraklarning tezliklari, L esa g'ildiraklar orasidagi masofani bildiradi. Ushbu formulalar robotning harakat yo'nalishini va tezligini aniqlab, uning atrof-muhitga moslashuvchanligini oshiradi.



1-rasm. TheConstructSim muhitida Dijkstra va A* algoritmlarini qo'llashdan olingan natijalari



2-rasm. TheConstructSim muhitida RRT va DWA algoritmlarini qo'llashdan olingan natijalari.

Natija va Tahlil

TheConstructSim muhitida Dijkstra,A* ,RRT va DWA algoritmlari sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalariga quydagicha:

2-jadval: Algoritmlarning hisoblash vaqti(s), yo'l uzunligi(m) va To'siqlardan qochish ko'rsatkichlari


Algoritmlar	Hisoblash vaqti(s)	Yo'l usunligi(m)	To'siqlardan qochish
Dijkstra	1.2	8.7	Yaxshi
A*	0.8	8.1	O'rtacha
RRT	0.7	9.5	Juda yaxshi
DWA	0.6	8.4	Juda yaxshi

Hisoblash vaqti(s) – algoritmnning yo'lni rejalashtirish va hisoblash tezligi bo'yicha baholangan.


Yo'l usunligi(m)– har bir algoritmnning maqsad nuqtaga yetish uchun tanlagan yo'li uzunligiga asoslangan.

To'siqlardan qochish – bu avtonom mobil robot yoki transport vositasining oldindan belgilangan marshrut davomida harakatlanayotganda, dinamik yoki statik to'siqlarga urilishining

oldini olish uchun bajaradigan asosiy funksiyalardan biridir. Bu funksional real vaqtli navigatsiya, xavfsiz harakatlanish va samarali yo'l rejalashtirish uchun zarur.



3-rasm. Algoritmlarni vaqt va yo'l uzunligiga bog'liqligi



4-rasm: Algoritmlarni turli muhitlarda qo'llanilish ko'rsatkichlari

3-jadval. Algoritmlarni turli muhitlarda qo'llanilish samaradorligi ko'rsatkichlari

Muhitlar	Dijkstra	A*	RRT	DWA
<i>Statik muhitda</i>	5	4	3	2
<i>Dinamik muhitda</i>	1	3	4	5
<i>Tor va murakkab joylarda</i>	2	3	5	4
<i>Real vaqt rejimida</i>	1	3	4	5

Yuqoridagi 3-jadvalda 1-5 gacha bo'lgan sonlar algoritmining muayyan sharoitdagi samaradorligini ifodalaydi.

- 1 – juda past samaradorlik
- 2 – past samaradorlik
- 3 – o'rtacha samaradorlik
- 4 – yaxshi samaradorlik
- 5 – eng yaxshi samaradorlik

Dijkstra eng qisqa yo'lni aniqlashda mukammal bo'lsa-da, u barcha tugunlarni tekshirishi sababli katta va murakkab muhitlarda sekin ishladi. Bu usul statik xaritalar uchun juda ishonchli, ammo real vaqt sharoitlarida kam samarali bo'lishini tadqiqotda kuzatdik(1.a-rasm).

A* Dijkstra algoritmgiga nisbatan tezroq ishladi, chunki u heuristik funksiya orqali kerakli yo'nalishni aniqlab, qidiruv maydonini qisqartirdi. Biroq, uning samaradorligi tanlangan heuristika sifatiga va hisoblash resurslariga bog'liq bo'lib, optimal yechim topishda ba'zi cheklolarga (1.c-rasm) duch kelganini kuzatdik.

RRT (Rapidly-exploring random tree) algoritmi tor joylarda va murakkab atrof-muhitlarda juda moslashuvchan. U tasodifiy tarzda qidiruvni amalga oshiradi, shuning uchun ba'zida optimal emas, uzoq yoki murakkab yo'llarni tanlashini kuzatdik. Biroq, yuqori o'lchamli konfiguratsiya bo'shlig'ida tez yechim topishda ustunlikka ega ekanligini ko'rsatdi(2.a-rasm).

DWA (Dynamic window approach) real vaqt rejimida samarali ishlaydi, chunki u doimiy ravishda atrof-muhitni kuzatib, to'siqlardan qochish uchun optimal manevralarni hisoblaydi(2.b-rasm). U lokal navigatsiyada yuqori tezlik va aniqlikka erishsa-da, global optimal yechim topishda cheklangan bo'lishi mumkin. (2.c-rasm).

Xulosa

Ushbu tadqiqotda TheConstructSim muhitida ROS yordamida avtonom mobil robotlarning lokallashtirish va kartografiyalash asosida navigatsiya algoritmlari tahlil qilindi. Dijkstra, A*, RRT va DWA algoritmlarining yo'l rejalashtirish, to'siqlardan qochish va real vaqt rejimidagi ishlash samaradorligi baholandi(1-jadval). Natijalar shuni ko'rsatdiki, Dijkstra algoritmi eng qisqa yo'lni topishda samarali, ammo hisoblash vaqti uzoq bo'lishi sababli real vaqt tizimlari uchun mos emas. A* algoritmi tezroq ishlaydi va dinamik muhitlarga moslasha oladi(2-jadval). RRT tor va murakkab hududlar uchun mos, lekin samaradorligi past. DWA esa real vaqt rejimida eng mos variant bo'lib, dinamik muhitlarda samarali natija beradi(3-jadval). Bundan tashqari, SLAM algoritmlarining (Gmapping, Hector SLAM, RTAB-Map, Cartographer) lokallashtirish va kartografiyalash jarayonlarida ishlashi sinovdan o'tkazildi. Gmapping va Hector SLAM yopiq muhitlarda samarali, Cartographer va RTAB-Map esa katta va dinamik muhitlarda aniq xarita hosil qiladi.

Tadqiqot natijalari turli navigatsiya algoritmlarining samaradorligi muhit sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatdi. Kelajakda reinforcement learning va GPS integratsiyasi orqali navigatsiyani takomillashtirish istiqbollari ko'rilmogda.



Adabiyotlar

1. ROS based SLAM implementation for Autonomous navigation using Turtlebot Sumegh Pramod Thale, Mihir Mangesh Prabhu, Pranjali Vinod Thakur and Pratik Kadam Published online: 29 July 2020
2. Norqo'ziyev, Q. (2023). MOBIL ROBOTLAR UCHUN YO'LNI REJALASHTIRISH ALGORITMI. Research and implementation.
3. Buriboev, A., Kang, H. K., Lee, J. D., Oh, R., & Jeon, H. S. (2022). Rmap+: Autonomous Path Planning for Exploration of Mobile Robot Based on Inner Pair of Outer Frontiers. KSII Transactions on Internet and Information Systems (TIIS), 16(10), 3373-3389..
4. Норкозиёв, К., & Тоджиев, А. (2023). Использование искусственных нейронных сетей при разработке алгоритма поиска оптимального пути мобильных роботов в динамических средах. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 25–29. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25025>
5. Norqo'ziyev, Q., Aynakulov, T., Mahkamov, S., & Sodiqov, D. (2024). Implementing mobile robot walking path control and tracking in c# windows form application. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 95-99.
6. Norqo'ziyev Quvonchbek Komiljon o'g'li, Irgasheva Umida Abdimal qizi, Aynaqulov Tohir Turg'un o'gli, & Sodiqova Zilola Yahyoqul qizi. (2024). A fast and optimal wayfinding algorithm using information from lidar sensors in the environment. Лучшие интеллектуальные исследования, 19(3), 157–163. Retrieved from <https://web-journal.ru/journal/article/view/5209>
7. Norqo'ziyev Quvonchbek Komiljon o'g'li, Tojiyev Alisher Hasan o'g'li, Sodiqov Diyorbek Sodiq o'g'li, & Sodiqova Zilola Yahyoqul qizi. (2024). Ai wayfinding algorithm of a mobile robot. Лучшие интеллектуальные исследования, 19(3), 150–156. Retrieved from <https://web-journal.ru/journal/article/view/5208>
8. Yamauchi, B.: A frontier-based approach for autonomous exploration, cira. Paper presented at the Proceedings of the 1997 IEEE International Symposium on Computational Intelligence in Robotics and Automation (CIRA'97), Monterey, CA, 10–11 July 1997
9. Buriboev, A., Choi, A. J., & Jeon, H. S. (2024). Optimized Frontier-Based Path Planning Using the TAD Algorithm for Efficient Autonomous Exploration. Electronics, 14(1), 74.
10. Uslu, E., Çakmak, F., Balçılar, M., Akıncı, A., Amasyalı, M. F., & Yavuz, S. (2015, September). Implementation of frontier-based exploration algorithm for an autonomous robot. In 2015 International Symposium on Innovations in Intelligent SysTems and Applications (INISTA) (pp. 1-7). IEEE.
11. Drenth, R. (2023). Investigation of Frontier and Rapidly-Exploring Random Tree Based Robot Exploration Algorithms and Implementation of Multi Robot Exploration (Doctoral dissertation).
12. Sariff, N., & Buniyamin, N. (2006, June). An overview of autonomous mobile robot path planning algorithms. In 2006 4th student conference on research and development (pp. 183-188). IEEE.
13. Hachour, O. (2008). Path planning of Autonomous Mobile robot. International journal of systems applications, engineering & development, 2(4), 178-190.
14. Sánchez-Ibáñez, J. R., Pérez-del-Pulgar, C. J., & García-Cerezo, A. (2021). Path planning for autonomous mobile robots: A review. Sensors, 21(23), 7898.



Mualliflar

Muhsinjon O'ktamov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; muhsinbek@umft.uz

Sirojiddin Saydullayev

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; sirojiddinmuxiddinogli@gmail.com

Muhriddin Muxiddinov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; mmuhriddinm@gmail.com

Ma'sul: mmuhriddinm@gmail.com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

CHUQUR O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHILAR HARAKATCHANLIGI VA MUSTAQILLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi foydalanuvchilar uchun aqlli ko'zoynaklar texnologiyasini yaratish va qo'llash masalalari chuqur tahlil qilingan. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar tahlili asosida aqlli ko'zoynaklarning asosiy komponentlari – kameralar, sensorlar, chuqur o'qitish algoritmlari va ovozli interfeyslar – hamda ularning foydalanuvchilarga ta'siri yoritib beriladi. Chuqur o'qitish (deep learning) texnologiyalarining, jumladan konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va YOLO kabi obyekt aniqlash algoritmlarining ushbu sohadagi o'rni ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, aqlli ko'zoynaklarning real vaqt rejimidagi ishlashini ta'minlash uchun qo'llanilgan usullar, eksperimental sinovlar va foydalanuvchilar tajribasi natijalari keltiriladi. Aqlli ko'zoynaklarning jamiyatga ta'siri, afzallik va cheklovlari muhokama qilinib, kelgusida yanada rivojlantirish yo'nalishlari haqida xulosalar beriladi. Maqola davomida keltirilgan faktlar tegishli ilmiy manbalar bilan tasdiqlanadi.

Kalit so'zlar: chuqur o'qitish texnologiyalari, real vaqt rejimi, aqlli ko'zoynak, ko'zi ojiz foydalanuvchi, obyektlarni aniqlash, ovozli interfeys, foydalanuvchi tajribasi.



Kirish

Dunyo miqyosida ko'rish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi jiddiy ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2020 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda kamida 2,2 milliard kishi turli darajadagi ko'rish qobiliyati buzilishidan aziyat chekadi, shulardan 1 milliard holatning oldini olish yoki davolash mumkin bo'lgan edi [1].

To'liq ko'zi ojizlar soni taxminan 36–39 million nafarni, past ko'rish qobiliyatiga ega insonlar esa 240 million atrofida ekanligi qayd etilgan. Ko'rish qobiliyatidan mahrum bo'lish insonlarning mustaqil harakatlanishi, atrof-muhitni idrok etishi va kundalik hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi insonlarning harakatchanligini ta'minlash, ularga atrof-muhit haqida real vaqt rejimida axborot berish uchun turli yordamchi vositalar va texnologiyalar rivojlantirilib kelinmoqda [2].

Hozirgi kunda ko'zi ojizlarga yordam berish uchun mavjud eng oddiy vositalardan biri oq tayoq bo'lib, u yordamida inson yo'lidagi jismoniy to'siqlarni sezishi mumkin. Shuningdek, maxsus yo'riqchi itlar tayyorlanib, ko'zi ojiz insonga yo'l-yo'riq ko'rsatishda yordam beradi. Biroq, an'anaviy oq tayoq uzoq masofadagi yoki yer sathidan baland joylashgan to'siqlar haqida ogohlantira olmaydi, gavjum va notanish muhitda samarasiz bo'lishi mumkin. Yo'riqchi itlarni tayyorlash esa juda qimmat va ular doimiy parvarish hamda e'tiborni talab qiladi. So'nggi yillarda ko'rlarga yordam beruvchi mobil smartfon ilovalari (masalan, ovozli yordamchilar, navigatsiya xizmatlari) ham paydo bo'ldi, ammo ularni o'zlashtirish va to'liq foydalanish darajasi hanuz pastligicha qolmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning rivojlanishi natijasida ko'zi ojiz kishilarning mustaqil harakatlanishi uchun kompyuter ko'ruvi va sun'iy intellekt asosidagi yangi yechimlar paydo bo'ldi. Ulardan biri – aqlli ko'zoynaklar – foydalanuvchi ko'zoynak shaklidagi gadjetni taqib yurib, atrofdagi muhitni kamera va sensorlar yordamida “ko'rishi” va olinayotgan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, foydalanuvchiga ovozli ma'lumot tarzida yetkazib berishidir. Aqlli ko'zoynaklar ko'rish qobiliyati cheklangan insonlarga individual ravishda yo'l topishda, harakatlanishda hamda ijtimoiy muloqot va xavfsizlikda ko'mak beradigan salohiyatli vosita sifatida ko'rilmogda [3, 4].

Kiyiladigan yordamchi qurilmalar ichida ayniqsa ko'zoynak shaklidagi tizimlar ko'zi ojizlar uchun eng qulay va istiqbolli deb topilmoqda. Google kompaniyasining 2013 yilda taqdim etgan Google Glass qurilmasidan so'ng deyarli 10 yil ichida Epson, Sony, Microsoft, Envision, eSight, NuEyes, Oxsight va OrCam kabi ko'plab kompaniyalar turli funksionallikka ega aqlli ko'zoynaklarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Hozirgi mavjud aqlli ko'zoynaklarning aksariyati kichik o'rnatilgan kamera, maxsus protsessor yoki mini-kompyuter, Wi-Fi/Bluetooth orqali internet yoki smartfon bilan bog'lanish kabi komponentlarga ega bo'lib, foydalanuvchiga atrofdagi muhit haqida real vaqt ma'lumot uzatishni ta'minlaydi. Ulardan ba'zilar maxsus displey yoki shaffof linzalar orqali vizual axborot chiqarsa-da, ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun odatda ovozli interfeys asosiy chiqish usuli hisoblanadi – foydalanuvchi ovozli buyruqlar berishi va qurilma esa o'z navbatida tashqi muhit haqidagi ma'lumotni ovoz orqali etkazishi mumkin. Bunday qurilmalarda qo'shimcha qulaylik uchun teginish sensorlari, tugmalar yoki hatto imo-ishoralarni tanib olish kabi usullar ham interfeys sifatida qo'llanishi mumkin.

Ilmiy izlanishlar natijasida ko'plab eksperimental aqlli ko'zoynak prototiplari taklif etilgan. Masalan, Daescu va boshqalar aqlli ko'zoynakka server asosidagi yuzni tanib olish tizimini ulanib, asosiy og'ir hisoblash ishlarini ko'zoynakdan tashqarida bajarish orqali qurilmaning energiya sarfi va kechikishini kamaytirishga erishganlar. Joshi va boshqalar esa chuqur o'qitish yordamida turli obyektlarni tanib beruvchi ko'zoynakka masofa o'lchovchi datchik qo'shib, foydalanuvchining harakat yo'nalishidagi to'siqlar va xatarlarni ham aniqlay oladigan yordamchi qurilmani yaratganlar. Shuningdek, turli yordamchi texnologiyalar xususiyatlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Xususan, Hu va hammualliflar turli kiyiladigan qurilmalarni – ko'zoynak, tayoq, qo'lqop, shlyapa va boshqalar – ularning tuzilishi, funksiyasi, prinsipial ishlash usuli va qo'llanilish konteksti nuqtai nazaridan o'rganib chiqib, 14 ta ilmiy prototip va bozorda mavjud 6 ta aqlli ko'zoynak yechimini tahlil qilganlar. Ushbu tahlil shuni ko'rsatdiki, hozirgi aksariyat yordamchi qurilmalar sensorlar va foydalanuvchiga axborot yetkazish usullarining cheklanganligi tufayli faqat ma'lum chegaralangan sharoitdagina samarali ishlay oladi. Demak, aqlli ko'zoynak texnologiyasining to'laqonli foydasini ko'rish uchun ularning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi sensorlar va usullarni qo'shish hamda turli muhitlarda sinab ko'rish zarur bo'ladi [5].


Ushbu maqolada biz aynan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar uchun mo'ljallangan aqlli ko'zoynaklar tizimini ilmiy asosda ko'rib chiqamiz. Bunda, avvalo, so'nggi yillarda rivoj topgan chuqur o'qitish algoritmlarining rolini tahlil qilamiz. Shuningdek, aqlli ko'zoynaklarning asosiy funksiyalari va komponentlarini – obyektlarni aniqlash, navigatsiya, ovozli interfeys va h.k. – batafsil yoritamiz. Qurilmaning dasturiy-apparat arxitekturasini va amalga oshirilgan tadqiqot metodlari bayon etilib, olingan eksperimental natijalar keltiriladi. Natijalarga asoslanib, bunday tizimlarning foydalanuvchi hayotiga ta'siri, afzalliklari va mavjud cheklovlari muhokama qilinadi hamda kelgusida texnologiyani yanada takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar beriladi.

Materillar va usullar

Chuqur o'qitish texnologiyalarining roli

Aqlli ko'zoynaklarning samarali ishlashi zahirida zamonaviy chuqur o'qitish (deep learning) algoritmlari yotadi. Xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (Convolutional Neural Networks, CNN) hozirgi kunda tasvirlarni tanib olish va tahlil qilishda asosiy vositaga aylangan. CNN'lar kiruvchi tasvirlardan turli darajadagi xususiyatlarni (chekka chiziqlar, shakllar, obyektlar) avtomatik ravishda ajratib olib, ularni tanish imkonini beradi. 2012 yilda Krizhevsky va boshqalar taklif etgan AlexNet arxitekturasini ImageNet kabi yirik ma'lumotlar to'plamidagi tasvirlarni yuqori aniqlikda toifalashga erishib, bu sohada inqilob yasagan edi. AlexNet misolida ilk bor katta chuqurlikka ega CNN modeli grafik protsessorlar yordamida samarali o'qitilib, an'anaviy usullar bilan erishib bo'lmaydigan darajadagi natijalar qo'lga kiritildi. Keyingi tadqiqotlar natijasida yanada chuqur va murakkab arxitekturalar – masalan, VGG-16 konvolyutsion tarmog'i va ResNet-50 kabi rezidual tarmoqlar – taklif qilindi. VGG modelida qatlamlar soni oshirib borilib, tasvir xususiyatlarini juda chuqur darajada o'rganish imkoniyati ko'rsatib berilgan bo'lsa, He va hammualliflar tomonidan taklif etilgan ResNet arxitekturasini chuqur tarmoqlarda o'qitish jarayonini osonlashtiruvchi rezidual bog'lanishlar orqali yanada yuqori natijalarga erishdi. Chuqur o'qitish algoritmlarining bunday muvaffaqiyati ortida ulkan hajmdagi ma'lumotlar ustida o'qitish imkonini yotadi – masalan, ImageNet

musobaqasi va ma'lumotlar bazasi tasvirlarni avtomatik tanish sohasini jadal rivojlantirishga turtki bo'ldi [6, 7].



1-rasm. Chuqur o'qitish texnologiyalarini o'qitish bosqichlari.

Chuqur o'qitishdan avval, kompyuter ko'ruvida obyektlarni aniqlash uchun SIFT va SURF kabi qo'lda tuzilgan xususiyatlar va klassik tasvirni qayta ishlash usullari qo'llanilar edi. Bunda tasvirdan esdalikka molik burchaklar yoki tekstura elementlari ajratilib, keyin ularni ma'lumotlar bazasidagi andozalar bilan solishtirish orqali tanib olinardi. Biroq bunday yondashuvlar yoritilish, rakurs va shovqin kabi omillarga juda sezgir bo'lib, umumiy holatga moslashuvchanligi cheklangan edi. Chuqur neyron tarmoqlar esa millionlab turli tasvirlar ustida o'qitilganda, obyektlarning turli ko'rinishlari bo'yicha kuchli umumlashmaga ega modelni hosil qila oladi. Shu sababli bugungi kunda CNN va shunga o'xshash chuqur o'qitish texnikalari klassik usullar o'rnini tobora keng egallamoqda.

Obyektlarni aniqlash (detection) va tasniflash (classification) vazifalarini bir paytning o'zida hal qiluvchi ilg'or algoritmlar ham aqlli ko'zoynaklar tizimida katta ahamiyatga ega. Bunday algoritmlardan eng mashhurlaridan biri – YOLO (You Only Look Once) bo'lib, u tasvirni to'liq bir marta tahlil qiliboq undagi obyektlarni joylashuvi va turini aniqlab beradi. YOLO arxitekturasini bir bosqichli (one-stage) obyekt aniqlash usulini taklif qilib, an'anaviy ikk bosqichli R-CNN oilasidagi modellarga nisbatan ancha tezkor ishlashga erishadi. YOLO modelining asosiy ustunligi – real vaqt rejimida ishlay olishi: masalan, so'nggi versiyalardan biri YOLOv5 taxminan 60 FPS (tasvir/kadr soniyasi) tezlikda ishlashi ko'rsatilgan bo'lib, bu tezlik ko'rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchi uchun videodan uzluksiz ma'lumot berish imkonini yaratadi. YOLO algoritmi birlahzada butun tasvirga neyron tarmoq qo'llab, tarmoqning chiqishida obyektlarning koordinatalari va sinf etiketkalari hosil bo'ladi – bu esa hisoblash resurslaridan samarali foydalanish va yuqori tezlikka erishishga yordam beradi. YOLOning 2016 yilda taqdim etilgan takomillashtirilgan talqinlari (YOLOv2, YOLO9000) va undan keyingi versiyalari aniqlikni pasaytirmagan holda modelning tezligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning natijalari ilmiy jamoatchilikka ma'lum. Masalan, Bochkovskiy va boshqalar tomonidan taklif etilgan YOLOv4 modeli obyekt aniqlashda aniqlik va

tezlik bo'yicha optimal muvozanatga erishgan holda, ko'plab real vaqt ilovalarida qo'llanilmoqda [8].

CNN va YOLO aslida bir-birini to'ldiruvchi texnologiyalar sifatida qaralishi mumkin. CNN lar detallashtirilgan segmentatsiya yoki aniqlik talab qilinadigan murakkab tasvir tahlili vazifalarida samarali bo'lsa (masalan, tasvirni piksel darajasida segmentatsiya qilish uchun DeepLab kabi arxitekturalar ishlatiladi), YOLO kabi bir bosqichli detektorlar tezkor javob talab qilinadigan holatlarda juda qo'l keladi. Aqlli ko'zoynak tizimida ushbu ikki yondashuvni birlashtirish orqali har ikki jabhada – aniqlik va tezlikda – yuqori ko'rsatkichga erishish mumkin. Misol uchun, dastlab OverFeat modeli birinchi bor neyron tarmoq yordamida tasvirni tanish va undagi obyekt joylashuvini aniqlash vazifalarini birlashtirgan edi. Bugungi kunda esa YOLO kabi modelni foydalanuvchi atrofidagi obyektlarni tezkor topish uchun ishlatib, qo'shimcha ravishda aniqlangan hududlarda chuqurroq tahlil (masalan, matnni o'qish yoki mayda detallarni ajratish) uchun boshqa maxsus CNN modelini qo'llash mumkin [9].

Chuqur o'qitish sohasidagi eng yangi yondashuvlardan biri bu transformer arxitekturalarining kompyuter ko'ruvida qo'llanilishidir. Transformerlar avvaliga tabiiy tilni qayta ishlashda muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, 2020 yilda Dosovitskiy va boshqalar taklif etgan Vision Transformer (ViT) modeli tasvirni kichik patchlarga ajratib, ularni so'zlar kabi o'qitish orqali yuqori aniqlik ko'rsatkichlariga erishdi. Transformer asosidagi DETR modeli esa obyekt aniqlash muammosiga e'tibor mexanizmini tatbiq etib, an'anaviy detektorlar bilan solishtiriladigan natijalarga erishdi. Shu bilan birga, hozircha bunday transformer modellarini ixcham ko'zoynak qurilmalarida ishlatish qiyin – ularning hisoblash talabchanligi yuqori. Shunday bo'lsa-da, kelajakda apparat vositalarining rivojlanishi bilan transformer yondashuvlari ham aqlli ko'zoynaklarda qo'llanilishi kutilmoqda.

Umuman olganda, chuqur o'qitish texnologiyalari aqlli ko'zoynaklarning “miyasini” tashkil etadi. Kuchli algoritmlar yordamida bu qurilmalar foydalanuvchiga muhit to'g'risida batafsil va tezkor axborot bera oladi. Quyida aqlli ko'zoynaklarning ana shu axborotni qay tarzda shakllantirishi – ya'ni, qaysi asosiy funksional imkoniyatlar orqali foydalanuvchiga yordam berishi – ko'rib chiqiladi.

Aqlli ko'zoynaklarning asosiy funksiyalari

Aqlli ko'zoynaklar odatda bir nechta muhim funksional komponentlardan tashkil topadi. Quyida shunday asosiy vazifalar va ularning texnologik yechimi bayon etiladi:

1. Real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash. Aqlli ko'zoynakning eng asosiy vazifalaridan biri – foydalanuvchi atrofidagi obyektlar, odamlar, va potensial to'siqlarni avtomatik aniqlashdir. Buning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, CNN va YOLO kabi chuqur o'qitish modellari qo'llaniladi. Masalan, ko'zoynakdagi kamera orqali olingan tasvirlardan bir lahzada yaqin atrofda qanday obyektlar borligi (stol, eshik, avtomobil va h.k.) aniqlanadi va ularning joylashuvi belgilab olinadi. YOLO, Faster R-CNN kabi ilg'or algoritmlar aniqlik va tezlikni muvozanatlagan holda obyektlarni belgilash imkonini beradi. Natijada foydalanuvchi ko'zi oldida turli obyektlar borligi haqida tezkor ogohlantirish oladi. Masalan, tizim “oldingizda to'siq bor – chap tomonga o'ting” kabi axborot berishi mumkin [10].

2. Navigatsiya va lokalizatsiya. Foydalanuvchining fazoviy orientatsiyasini ta'minlash ham juda muhimdir. Buning uchun aqlli ko'zoynaklar tarkibiga GPS moduli yoki atrofni LiDAR (yorug'lik



radar) yoki ultratovush sensorlari yordamida skanerlaydigan qismlar qo'shilishi mumkin. GPS global miqyosda joylashuvni aniqlasa, masalan, ultratovushli datchik oldindagi to'siqqacha bo'lgan masofani aniqlashi mumkin. Ba'zi tizimlarda stereo kamera yoki chuqurlik datchiklari (masalan, Intel RealSense kabi qurilmalar [3]) yordamida atrofning uch o'lchamli modeli olinadi va shu orqali foydalanuvchining bo'sh joydan o'tish imkoniyati baholanadi. Lokalizatsiya texnologiyalari foydalanuvchiga o'z joylashuvini aniqlash va ma'lum manzilga yo'l topishda mustaqillik beradi. Ayniqsa notanish yoki murakkab sharoitlarda (masalan, gavjum shahar ko'chalari, jamoat transporti) bu funksiyalar nihoyatda muhimdir – ular orqali ko'zoynak foydalanuvchini xavfsiz marshrut bo'ylab yo'naltirishi mumkin [11].

3. Ovozli interfeys va foydalanuvchi aloqa. Ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun aqlli ko'zoynaklardan chiqadigan axborotni yetkazishning eng qulay usuli – ovozli xabarlaridir. Shu sababli bunday tizimlarda kuchli ovozli interfeys mavjud bo'ladi. Ko'zoynak ichiga o'rnatilgan karnay (dinamik) yoki Bluetooth orqali ulanadigan quloqchin yordamida tizim aniqlangan obyektlar va hodisalarni foydalanuvchiga nutq orqali aytib beradi. Masalan, kamerada matn payqalgan bo'lsa, tizim shu matnni baland ovozda o'qib eshittiradi; tanish odamning yuzi aniqlansa, foydalanuvchiga uning ismini aytadi. Buning uchun obyekt va matnlarni matnga aylantirish (OCR) va matndan nutqga (Text-To-Speech, TTS) algoritmlari integratsiya qilinadi. Masalan, Google'ning WaveNet modeli kabi ilg'or TTS texnologiyalari inson ovoziga yaqinlashgan tabiiy nutq hosil qila oladi [4]. Ovozli interfeys ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin: foydalanuvchi ham qurilmaga ovoz orqali buyruqlar berishi (masalan, “yonimda kim bor?” deb so'rashi) mumkin va tizim buni nutqni taniy oluvchi modul orqali tushunib, javob qaytaradi. Bunday yondashuv qo'lning bo'sh bo'lishini ta'minlab, foydalanuvchi uchun yanada qulay tajriba yaratadi. Ovozli aloqa bilan birga ayrim qurilmalarda vibratsiya yoki boshqa jismoniy signal yordamida ham ogohlantirish berilishi mumkin – masalan, to'siq juda yaqinlashganda ko'zoynak tutqichi titrab, xavfni bildiradi [12].

4. Amaliy misollar va dasturiy ilovalar. Aqlli ko'zoynaklarning yuqoridagi funksiyalari amaliyotda allaqachon o'z tasdig'ini topmoqda. Masalan, Microsoft kompaniyasining mobil ilovalari – Seeing AI va SoundScape – smartfon kamerasi yordamida atrofdagi matn, obyekt va odamlarni taniy oladi va foydalanuvchiga ovozli tarzda tasvirlab beradi. Bu ilovalar aqlli ko'zoynak konsepsiyasini telefon platformasida amalga oshirib, foydalanuvchilarga mustaqil harakatlanishda yordam berayotganini ko'rish mumkin. Xuddi shuningdek, maxsus apparatlar ham mavjud: masalan, OrCam MyEye – oddiy ko'zoynakka biriktiriladigan kichik kamera qurilmasi bo'lib, u qarshidagi matnlarni o'qib beradi, odamlarning yuzini taniydi va foydalanuvchiga ovoz orqali xabar qiladi. Envision Glasses qurilmasi esa shunga o'xshash tarzda atrofni kamerasi bilan skanerlab, sun'iy intellekt yordamida turli obyektlar va matnlarni tanib, foydalanuvchiga audio axborot uzatadi. Yana bir misol, EyeSynth deb nomlangan tizim kameradan olingan tasvirni real vaqt rejimida audio (ovoz) shaklga konvertatsiya qilib, foydalanuvchiga eshittiradi – bunda har bir obyekt yoki masofa turli xil tovush ohanglari bilan ifodalanadi. Bunday yondashuv ko'rish o'rniga eshitish orqali “ko'rish” tajribasini yaratadi [13, 14]. Ilgariroq, 2013 yilda chiqarilgan Google Glass ham ko'zoynak asosidagi platforma bo'lib, unda foydalanuvchi ko'z o'ngidagi displey orqali ma'lumot olishi nazarda tutilgan edi; keyinchalik ushbu platforma imkoniyatlari ko'zi ojizlar uchun moslash tirildi. Shu tariqa, bugungi kunda aqlli ko'zoynak konsepsiyasining turli amalga oshirish shakllari mavjud va ularning barchasi yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarning birortasiga tayanadi yoki ularning kombinatsiyasidan

foydalanadi.

1-jadval. Tasvirdagi ob'ektlarni aniqlashning turli modellarini qiyosiy tahlili.

Model	Aniqlik (mAP)	Tezlik (FPS)
YOLOv5	56.0%	60
YOLOv7	56.8%	70
YOLOv8	62.0%	55
Faster R-CNN	42.5%	25
SSD	50.0%	80


Yuqorida ko'rib o'tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun turli algoritmlar integratsiyasi va muhandislik yechimlari talab etiladi. Quyida biz yaratilgan aqlli ko'zoynak tizimining texnik arxitekturasini va tadqiqot metodlariga to'xtalamiz

Tadqiqot metodologiyasi va algoritmlarni integratsiya qilish


Aqlli ko'zoynak tizimini yaratishda uning barcha tarkibiy qismlari yagona maqsadga – foydalanuvchiga real vaqt rejimida foydali ma'lumot yetkazishga – qaratilgan holda integratsiya qilinadi. Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tizim ham bir nechta modullardan tashkil topdi: kamera yordamida tasvir olish, obyektlarni aniqlash va tanib chiqish, matnlarni o'qish, masofani o'lchash, va foydalanuvchiga audio chiqish. Barcha modullar real vaqt rejimida ishlashi va o'zaro uyg'un holda faoliyat ko'rsatishi uchun maxsus dasturiy-arxitektura yechimlari qo'llanildi [15].

Apparat platformasi: Tizim asosan ko'zoynakka o'rnatilgan old kameradan olinadigan videotasvirga tayanadi. Prototip yechimda biz Intel RealSense D435 stereo kamerasi [3] dan foydalandik – ushbu qurilma nafaqat rangli tasvir, balki chuqurlik (masofa) ma'lumotini ham berish qobiliyatiga ega. Kameradan uzluksiz oqim ko'rinishida kadrlar olinib, mini-kompyuter (masalan, NVIDIA Jetson yoki Raspberry Pi 4) xotirasiga yuboriladi. Bizning holda hisoblashlarni samarali amalga oshirish uchun shaxsiy kompyuter protsessori va GPU dan foydalandik, biroq amaliy yechimlarda Jetson kabi ixcham sun'iy intellekt qurilmasi ko'zoynakka integratsiya qilinishi mumkin. Tizim dasturiy ta'minoti PyTorch chuqur o'qitish kutubxonasi yordamida yaratildi, bu bizga mavjud pre-train qilingan modellarni oson qo'llash va yangi modelni o'qitish imkonini berdi [16].

Obyektlarni aniqlash va tanib chiqish: Kameradan olingan har bir kadr dastlab obyektlarni deteksiya qilish moduliga uzatiladi. Bu modul sifatida biz YOLO arxitekturasini tanladik, chunki uning tezkorligi prototip uchun muhim edi. Model mashhur COCO ma'lumotlar to'plamida oldindan o'qitilgan va odam, avtomobil, stul kabi kundalik muhitdagi ko'plab obyektlar uchun sinflarga ega. Zarur bo'lganda, qo'shimcha sinflar yoki maxsus obyektlar (masalan, eshik tutqichlari, zinapoyalar) uchun modelni qo'shimcha ma'lumotlar bilan fine-tune qilish mumkin. YOLO detektorining chiqishi sifatida kadrda obyektlarning chegaralovchi ramkasi (bounding box) koordinatalari va nisbiy ishonchlilik ko'rsatkichi bilan birga obyektning turi (sinf)ni beradi. Masalan, tasvirda odam va it aniqlangan bo'lsa, ularning joylashuvi va nomi ajratiladi. (2 – 3- rasmlar).



2-rasm. Tasvirdagi ob’ektni aniqlash modeliga kirish tasviri.




3-rasm. Tasvirdagi ob’ektni aniqlash modelining turli ob’ektlarni segmentatsiya qilishi.

Matnlarni aniqlash: Obyektlar orasida ko‘plab yorliqlar, yo‘l belgilar yoki shunchaki atrofdagi matnli axborot (do‘konlarning nomlari, e‘lonlar) bo‘lishi mumkin. Bu foydalanuvchi uchun muhim ma‘lumot manbai sanaladi. Tasvirdan matnlarni o‘qib olish uchun biz maxsus OCR (Optical Character Recognition) algoritmidan foydalandik. Dastlab tasvirda matn mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlash uchun CNN asosidagi sarlavha detektor qo‘llanildi (bu ham YOLOga o‘xshash tarzda ishlaydi, faqat “matn” hududlarini ajratishga ixtisoslashgan). So‘ng aniqlangan hududlardagi matn Tesseract kabi OCR vositasi yordamida matnli qatorlarga aylantirildi. Matn 2 tilda – lotin va kirill alifbosida o‘qilishi uchun moslashtirildi. Natijada, foydalanuvchi uchun muhim bo‘lgan ko‘cha nomlari, do‘kon peshlavhalari kabi yozuvlarni qurilma ovoz chiqarib berishi ta‘minlandi [17].

Masofani o‘lchash va to‘siqlarni sezish: Foydalanuvchining xavfsiz harakatlanishi uchun faqat obyektning borligini bilish yetarli emas, balki uning qanchalik yaqin ekanini ham bilish zarur. Buning

uchun biz stereokamera berayotgan chuqurlik ma'lumotlaridan foydalandik. Har bir obyektning chegaralovchi ramkasi uchun uning markaziy nuqtasining chuqurlik qiymati hisoblab chiqildi – bu qiymat obyektgacha bo'lgan taxminiy masofani beradi. Masalan, foydalanuvchi yo'lida stol bor va u 2 metr narida joylashgan bo'lsa, tizim “2 metr oldinda stol” deb xabar beradi. Masofani aniqroq o'lchash uchun qo'shimcha ultratovush datchiklari ham integratsiya qilindi: ko'zoynakning ramkasiga o'rnatilgan ultratovush sensor oldinda 45° burchak ostida joylashgan to'siqqacha bo'lgan masofani doimiy o'lchab turadi. Bu sensorning ma'lumoti kameradan olingan masofa qiymatini tekshirish va xavfsizlikka doir ogohlantirishlarni mustaqil yetkazishda (masalan, kutilmaganda to'satdan yaqinlashib kelgan to'siqni sezishda) qo'l keladi (4-rasm).



4-rasm. Tasvirdagi ob'ektni aniqlash modelining uzoqlik masofasi o'lchash.

Ovozli signal va aloqa: Integratsiyalashgan tizim natijalari yakunda ovozli sintezatorga yuboriladi. Bunda kamera kadri tahlili yakunida hosil bo'lgan barcha ma'lumotlar – aniqlangan obyektlar ro'yxati (ularning nomi va masofasi), aniqlangan matn mazmuni, va navigatsion ko'rsatmalar – maxsus matnli xabar ko'rinishida generatsiya qilinadi. Masalan, yakuniy xabar shunday bo'lishi mumkin: “Oldingizda 3 metr masofada mashina; chap tomonda 1,5 metr narida eshik; do'kon belgisi: Dorixona”. Keyin TTS modulii ushbu matnni ovozli nutqqa aylantiradi va karnay orqali eshittiradi. Sintezlangan ovoz foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lishi va tezkor yetib borishi lozim. Bizning tizimda oddiylik uchun Google TTS texnologiyasidan foydalanildi, natijada o'zbek va ingliz tillarida tushunarli nutq hosil qilindi. Kelgusida ovozli chiqishni foydalanuvchining ona tiliga avtomatik moslashtirish, nutq ohangini individual istakka ko'ra sozlash kabi funksiyalar qo'shilishi mumkin [18, 19].

Energiya samaradorligi: Aqlli ko'zoynak kabi mobil qurilmalar uchun muhim masalalardan biri – batareya quvvatini tejashdir. Shu bois dasturiy ta'minot optimallashtirildi: kerak bo'lmaganda kamera kadr chastotasi pasaytiriladi, tarmoq modellarining yengil versiyalari qo'llaniladi. Misol uchun, biz YOLO modelining mobil versiyasi (soddalashtirilgan arxitekturali) variantini sinovdan o'tkazdik, u aniqlikni sezilarli yo'qotmasdan tezlik va quvvat sarfini kamaytirdi. Shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida keraksiz takroriy hisoblashlar oldini olish uchun keshlashtirish va asinxron (bir vaqtda) ishlov berish usullari joriy qilindi. Bu chora-tadbirlar



qurilmaning ixcham batareyasi bilan maksimal uzoq ishlashiga xizmat qiladi [20].

Yuqorida bayon qilingan metodologiya asosida yaratilgan aqlli ko'zoynak prototipi laboratoriya va real sharoitlarda sinovdan o'tkazildi. Quyida ushbu sinov natijalari va ko'rsatkichlari keltiriladi.

Tadqiqot natijalari

Taklif qilingan aqlli ko'zoynak tizimi samaradorligini baholash uchun bir nechta mezonlar bo'yicha sinovdan o'tkazildi. Avvalo, obyektlarni aniqlash aniqligi o'lchandi. Tizim turli muhitlarda (xonada, ko'chada, past va yuqori yorug'lik sharoitlarida) sinov qilinib, kamera ko'rish maydoniga tushgan asosiy obyektlarni to'g'ri ajrata olishi kuzatildi. Umumiy obyekt aniqlash aniqligi 92,16% ni tashkil etdi. Boshqacha aytganda, tizim kiritilgan obyektlarning deyarli 92 foizini to'g'ri aniqlab, ularning turini to'g'ri tanidi. Bu ko'rsatkich ko'plab mashhur obyekt aniqlash modellari darajasiga yaqin bo'lib, real vaqt tizimi uchun yetarli deb baholanadi. Keyingi vazifa – matnlarni tanib olish aniqligi – natijalari undan ham yuqori bo'ldi: sinov jarayonida turli chop etilgan matnlar (kitob sahifasi, ko'cha belgisi, vitrinadagi yozuv)ni o'qishda model 98,87% aniqlikka erishdi. Bu degani, tizim deyarli barcha matnlarni to'g'ri aniqlab, ularning mazmunini xato qilmasdan matnga aylantirdi. Bunda albatta matnning ravonligi, kontrasti kabi omillar qulay bo'lganligi ham rol o'ynadi – masalan, qo'lyozma matnlarda yoki juda noaniq tasvirlarda xatoliklar oshishi mumkin.

Foydalanuvchining xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir ko'rsatkich – masofa o'lchashdagi xato miqdori. Tizim ultratovush va stereo kamera asosida to'siqqacha masofani hisoblab berganda, haqiqiy masofaga nisbatan o'rtacha 6,32% og'ish kuzatildi. Masalan, aslida 2,0 m bo'lgan masofani tizim taxminan 1,88–2,12 m atrofida baholadi. Bu aniqlik darajasi ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan ayrim tijorat qurilmalaridan yuqori ekanligi aniqlandi – masalan, ayrim ultratovushli moslamalar 10% va undan yuqori xatolik bilan ishlashi ma'lum. Demak, taklif etilayotgan yechim foydalanuvchiga atrofda obyektlarning uzoq-yakinaligini anchayin ishonchli darajada bildirib, xavfsiz harakatlanishga zamin yaratadi.

Yuqoridagi natijalar real sharoit tajribalari davomida ham o'z tasdig'ini topdi. Tizim prototipi ko'zi ojiz foydalanuvchilar ishtirokida sinovdan o'tkazildi. Sinov jarayonida foydalanuvchilar ichki va tashqi muhitda belgilangan yo'nalish bo'ylab aqlli ko'zoynak yordamida harakat qilishdi. Natijada, kuzatuvlarga ko'ra, foydalanuvchilarning to'siqlarga to'qnashuvi yoki adashib ketishi holatlari deyarli kuzatilmadi – aqlli ko'zoynak ularni o'z vaqtida ogohlantirib borishga erishdi. Foydalanuvchilar qurilma haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, ko'p hollarda ijobiy tajribaga ega bo'lganliklarini ma'lum qilishdi. Masalan, bir qancha ishtirokchilar aqlli ko'zoynak yordamida atrofni tushunish va unda yo'nalish olish qobiliyati sezilarli darajada oshganini ta'kidlashdi. Avvallari faqat oq tayoq bilan harakatlangan bitta ishtirokchining aytishicha, aqlli ko'zoynak uning atrof-muhit haqida oladigan axborotini boyitib, o'zini ancha ishonchli his qilishiga yordam bergan. Bu kabi fikrlar tizimning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ilmiy adabiyotlarda ham shunga o'xshash xulosalar uchraydi: masalan, maxsus audio interfeysli aqlli ko'zoynaklar bilan o'tkazilgan tajribada ishtirokchilar obyektlarni topish va ularga qo'l cho'zish vazifalarini ancha yaxshilangan holda bajara olgani qayd etilgan.

Ayni paytda erishilgan natijalar qoniqarli bo'lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish

imkoniyatlari mavjud. Aniqlik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida detektor va taniq algoritmlarini yanada chuqurroq o'qitish, yangi katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamlari bilan modelni boyitish lozim. Xususan, mahalliy sharoitga xos obyektlar va yozuvlar (masalan, o'zbek tilidagi turli ko'cha belgilar, reklama yozuvlari) bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'planib, model o'qitilsa, tizim yanada moslashuvchan bo'ladi. Shuningdek, dasturiy ta'minot va interfeysni foydalanuvchi uchun yanada qulay qilish, ortiqcha va keraksiz ma'lumotlarni qisqartirib, eng muhim axborotnigina uzatishga e'tibor qaratish kerak. Qurilmaga yangi turdagi sensorlarni qo'shish ham imkoniyatlarni kengaytiradi – masalan, issiqlik datchiklari yordamida jonli mavjudotlarni (odamlarni) qorong'uda aniqlash yoki yo'nalishli mikrofonlar yordamida ma'lum ovoz manbalariga (masalan, yaqinlashib kelayotgan avtomobil motori ovozigina) e'tibor qaratish kabi funksiyalarni qo'shish mumkin.

Tadqiqot natijalari muhokomasi

Yuqoridagi tadqiqot natijalari aqlli ko'zoynaklar texnologiyasi ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar hayotini yengillashtirishda ulkan salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bunday tizimlarning eng katta afzalligi – ko'zi ojiz insonning atrof-muhitni mustaqil idrok etish imkoniyatini kengaytirishidir. Ilgari boshqa odamlarga yoki faqat jismoniy vositalarga tayanib kelingan vaziyatlarda endilikda sun'iy intellekt yordamida real vaqt rejimida masofa, to'sqinliklar, obyektlar haqida ma'lumot olish mumkin bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ko'zi ojiz insonning mustaqil harakatlanishi, jamiyatda erkin faoliyat yuritishi va o'ziga bo'lgan ishonchini orttirishga xizmat qiladi. Misol uchun, aqlli ko'zoynak taqqan foydalanuvchi gavjum ko'chada yoki notanish binoda boshqalar yordamisiz yo'l topa olsa, bu uning hayot sifati va mustaqilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim afzallik – aqlli ko'zoynaklar turli ko'makchi qurilmalar o'rnini bosuvchi integratsiyalashgan yechim bo'la oladi. Avval ko'zi ojiz kishi alohida qo'lidagi tayoq, qulog'idagi audio-navigator, qo'lidagi Braille displeyi kabi bir nechta moslamalardan foydalanishga majbur bo'lgan bo'lsa, aqlli ko'zoynak bularning funksiyasini bir joyda jamlay oladi. Bu esa qulaylik va samaradorlikni oshiradi [21].

Shu bilan birga, hozirgi aqlli ko'zoynaklar texnologiyasining bir qator cheklov va kamchiliklari mavjud. Ulardan eng asosiysi – texnik resurslarga talabchanligidir. Yuqorida ta'kidlanganidek, chuqur o'qitish algoritmlari yuqori hisoblash quvvati va energiya sarfini talab qiladi. Natijada ixcham ko'zoynakka bunday algoritmlarni integratsiya qilishda batareyaning tez tugashi, qurilmaning og'irligi ortishi yoki ishlov berish kechikishi kabi muammolar chiqadi. Amaliy kuzatishlarga ko'ra, aksariyat tijorat aqlli ko'zoynaklarining batareya quvvati atigi 2–5 soat foydalanishga yetadi, bu esa kundalik foydalanish uchun kamlik qiladi. Bizning prototipimiz ham yuqori quvvatli kompyuterda sinovdan o'tkazilgan, ammo haqiqiy ko'zoynak qurilmasida cheklangan resurslar bilan ishlaganda samaradorlik pasayishi mumkin. Yana bir kamchilik – narx va dostupnost masalasi. Ilg'or texnologiyalar qo'llanilgani sabab, aqlli ko'zoynaklar odatda qimmat bo'ladi; ko'plab ko'rish nogironligi bo'lgan shaxslar (ko'pincha ular ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa) bunday qurilmalarni xarid qila olmasligi mumkin. Masalan, hozirgi bozordagi ba'zi aqlli ko'zoynaklarning narxi bir necha ming AQSh dollariga boradi, bu esa ko'zi ojizlar uchun moliyaviy to'siq yaratadi. Shuningdek, maxfiylik va ijtimoiy qabul qilinish ham muhokamoga arziydigan jihatdir. Ko'zoynakdagi kamera atrofda odamlarni doimiy yozib turishi mumkinligi ularning maxfiy hayotiga aralashish deb qabul qilinishi mumkin. Ayrim odamlar kameraga olinayotganini bilib noqulaylik sezishlari tabiiy. Shu



sabab jamiyatda bunday qurilmalarni qabul qilish uchun ma'lum axloqiy me'yorlar va tartiblar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, aqlli ko'zoynaklardan foydalanuvchilar jamoat joylarida boshqalarning shaxsiy hayotini hurmat qilishlari, kerak bo'lsa kamerani vaqtincha o'chirib qo'yishlari tavsiya etiladi. Yana bir muhim masala – axborot ishonchliligi va ortiqchaligi. Sun'iy intellekt modeli hamisha ham 100% to'g'ri ishlamaydi; ba'zida xato yoki noto'g'ri xabar berishi mumkin. Agar bunday qurilma xato axborot bersa, foydalanuvchi nojo'ya qaror qabul qilishi, masalan, yo'lda xatoga yo'l qo'yishi ehtimoli bor. Shu bois, foydalanuvchilar texnologiyaga butkul suyanib qolmasdan, ehtiyot choralarini saqlashi lozim. Qurilma beradigan axborotni ham imkon qadar filtrlash, faqat eng zarur va aniq tasdiqlangan ma'lumotnigina uzatish muhim – aks holda, ko'p sonli audio xabarlar foydalanuvchini chalg'itib, charchatib qo'yishi mumkin.

Keltirilgan kamchiliklarga qaramay, ularni bartaraf etish yo'llari ustida izlanishlar davom etmoqda. Innovatsion yechimlar orqali aqlli ko'zoynaklarni yanada takomillashtirish mumkin. Masalan, resurs va energiya muammolarini hal qilish uchun hisoblash yukining bir qismini bulutli servislarga yuklash yoki qurilmaga maxsus sun'iy intellekt chiplarini o'rnatish mumkin. Hozirda mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan optimallashtirilgan neyron tarmoqlar, modelni siqish va kvantlash texnikalari joriy qilinmoqda – bu usullar ko'zoynakning cheklangan apparatida ham murakkab AI funksiyalarini bajarish imkonini beradi. Batareya texnologiyalari rivojlanishi bilan kelgusida ixcham quvvat manbalari uzoqroq ishlashni ta'minlashi mumkin. Narxni pasaytirish bo'yicha ham ishlar ketmoqda: ishlab chiqaruvchilar ko'zoynaklarni ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, tannarx tushadi va arzonroq komponentlar paydo bo'ladi. Masalan, ayrim startaplardagi ixtirochilar o'z tadqiqotlarida arzon komponentlardan foydalanib ham funksional aqlli ko'zoynak prototiplarini yaratishga erishganliklarini ta'kidlamoqda. Aqlli ko'zoynaklarning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari juda keng. Birinchidan, bunday qurilmalarning dasturiy ta'minoti tobora aqllashib borishi kutilmoqda. Katta hajmdagi til modellari va generativ sun'iy intellekt yutuqlari natijasida, aqlli ko'zoynak foydalanuvchiga oddiy ro'yxat tarzidagi axborot emas, balki to'liq tasvirlovchi tavsiflar berishi mumkin. Masalan, kelajakda ko'zoynak kamerasi ko'rgan manzarani tahlil qilib, “chap tomonda qizil yuk mashinasi to'xtagan, o'ng tomonda ikkita odam suhbatlashmoqda, ular orqasida oq devor bor” kabi kengroq kontekstli izoh berishi mumkin – bu esa atrofni tasavvur qilishni osonlashtiradi. Bunda GPT-3 kabi yirik til modellari [18] yordamga kelishi mumkin, ular tasvir tavsifini inson tilida ravon hikoya qilib berishga qodir. Ikkinchidan, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa yanada insonparvarlashishi mumkin – masalan, ko'zoynak ovozli yordamchisi foydalanuvchi savollariga erkin matnda javob beradigan suhbatdosh (chatbot) vazifasini ham o'tashi mumkin. Uchinchidan, yangi modal interfeyslar paydo bo'lmoqda. Masalan, Avstraliyada sinovdan o'tkazilgan “akustik teginish” (acoustic touch) texnologiyasida kamera ko'rgan obyektlar turli xil tovush belgilariga aylantirilib, foydalanuvchiga eshittiriladi – bu usul foydalanuvchilarning obyektlarni aniqlash va ularga qo'l cho'zish qobiliyatini sezilarli oshirgani ilmiy tajriba orqali ko'rsatildi. Kelajakda aqlli ko'zoynaklar bunday audiovizual yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi, masalan, atrofda muhitni “musht” yoki “ohang” tarzida ifodalab berishi mumkin. To'rtinchidan, aqlli ko'zoynaklar ijtimoiy infratuzilma bilan ham integratsiyalashishi kutilmoqda – masalan, shahar infratuzilkasidagi aqlli svetoforlar, jamoat transporti to'xtash joylaridagi sensorlar bilan aloqa qilib, foydalanuvchiga qo'shimcha ma'lumot uzatishi (svetofor yashil yonganini xabar qilishi va hokazo). Bu borada “aqlli shahar” konsepsiyasi elementlari bilan hamkorlikda ko'zoynak

imkoniyatlarini kengaytirish mumkin [22].

Albatta, aqlli ko'zoynaklarning jamiyatga keng joriy etilishi yangi axloqiy va ijtimoiy savollarni ham tug'diradi. Masalan, bunday qurilmalardan foydalanish paytida atrofdagi odamlarning roziligi masalasi, qurilma yig'ayotgan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi, texnologiya hamma uchun teng dostup bo'lishi kabi jihatlar muhokama qilinishi zarur. Texnologiya imkon qadar inklyuziv bo'lishi, ya'ni hamma madaniyat va til vakillari foydalanishi uchun moslashtirilishi lozim. Kelgusida aqlli ko'zoynaklar keng tarqalgan sari, ularning jamiyatda normal qabul qilinishi uchun qonuniy va ijtimoiy me'yorlar ham shakllanadi.

Umuman olganda, aqlli ko'zoynaklar sohasi hozirda jadal rivojlanish bosqichida. Har yili ilmiy tadqiqotlar natijasida yangi prototiplar, yaxshilangan algoritmlar va qiziqarli usullar paydo bo'lmoqda. Uzluksiz innovatsiyalar tufayli aqlli ko'zoynaklar yaqin kelajakda ko'rish qobiliyati cheklangan insonlar uchun oddiy kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanishi mumkin. Bu ularning jamiyatda yanada erkin yashashlari, o'z dunyolarini mustaqil kashf etishlari hamda turmush sifati oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ilmiy ish doirasida ko'rish qobiliyati cheklangan insonlar uchun aqlli ko'zoynaklar texnologiyasi har tomonlama tahlil qilindi. Chuqur o'qitish algoritmlarining (CNN, YOLO va boshqalar) real vaqt rejimidagi navigatsiya va to'siqlarni aniqlashdagi roli nazariy va eksperimental jihatdan ko'rsatib berildi. O'tkazilgan tajribalar natijasida prototip tizim asosiy vazifalarni – obyektlarni aniqlash, matnlarni o'qish va masofani baholash – yetarli darajada yuqori aniqlik va tezlik bilan bajarishga qodir ekani aniqlandi. Shuningdek, foydalanuvchi tajribasi bo'yicha dastlabki sinovlar qurilma ko'zi ojiz insonlarga haqiqatan ham sezilarli yordam bera olishini tasdiqladi.

Aqlli ko'zoynaklar texnologiyasi katta istiqbolga ega bo'lsa-da, amaliy tatbiqda hali yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Xususan, yuqori hisoblash resurslariga bo'lgan talab va batareyaning cheklangan ishlash muddati kabi holatlar qurilmaning to'liq imkoniyatlarini ishga solishda to'siq bo'lmoqda. Ushbu cheklovlarni yengish uchun apparat va dasturiy yechimlar darajasida izlanishlar davom etmoqda – samarali chiplar, optimallashtirilgan algoritmlar va energiya tejankor usullar yaratilmoqda.

Kelajakda aqlli ko'zoynaklarning jamiyat hayotiga kirib kelishi bilan ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun dunyo yanada ochiq va qulay bo'lib boradi. Mustaqil harakatlanish, axborotga ega bo'lish hamda muloqot qilish imkoniyatlari kengayadi, bu esa ularning jamiyatdagi faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, biz texnologiyaning axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham unutmasligimiz kerak – aqlli ko'zoynaklar odamlarga haqiqiy foyda keltirishi uchun ular xavfsiz, arzon va hammabop bo'lmog'i lozim.



Adabiyotlar

1. Krizhevsky, A., Sutskever, I., Hinton, G. (2012). ImageNet Classification with Deep Convolutional Neural Networks. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 25: 1097-1105.
2. Redmon, J., Farhadi, A. (2017). YOLO9000: Better, Faster, Stronger. *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 6517-6525.
3. Intel (2020). Intel RealSense D435 User Manual. Intel Corporation.
4. Oord, A. v. d., et al. (2016). WaveNet: A Generative Model for Raw Audio. Google DeepMind, arXiv:1609.03499.
5. Umarov, M., Khalilov, S. (2022). An Algorithm for Traffic Sign Recognition Systems. *Proceedings of 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)*, Tashkent, Uzbekistan.
6. Vision Loss Expert Group. (2023). Global Data & Statistics on Visual Impairment. (Accessed via IAPB/VLEG report).
7. He, K., Zhang, X., Ren, S., Sun, J. (2016). Deep Residual Learning for Image Recognition. *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 770-778.
8. Lowe, D.G. (2004). Distinctive Image Features from Scale-Invariant Keypoints. *International Journal of Computer Vision*, 60(2): 91-110.
9. Bay, H., Ess, A., Tuytelaars, T., Van Gool, L. (2008). Speeded-Up Robust Features (SURF). *Computer Vision and Image Understanding*, 110(3): 346-359.
10. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
11. Russakovsky, O., et al. (2015). ImageNet Large Scale Visual Recognition Challenge. *International Journal of Computer Vision*, 115(3): 211-252.
12. Chen, L.-C., et al. (2018). Encoder-Decoder with Atrous Separable Convolution for Semantic Image Segmentation. *Proceedings of the European Conference on Computer Vision (ECCV)*, 833-851.
13. Simonyan, K., Zisserman, A. (2015). Very Deep Convolutional Networks for Large-Scale Image Recognition. *International Conference on Learning Representations (ICLR)*.
14. Paszke, A., et al. (2019). PyTorch: An Imperative Style, High-Performance Deep Learning Library. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 32: 8024-8035.
15. Sermanet, P., et al. (2014). OverFeat: Integrated Recognition, Localization and Detection using Convolutional Networks. *International Conference on Learning Representations (ICLR)*.
16. Dosovitskiy, A., et al. (2021). An Image is Worth 16x16 Words: Transformers for Image Recognition at Scale. *International Conference on Learning Representations (ICLR)*.
17. Bochkovskiy, A., Wang, C.Y., Liao, H.Y.M. (2020). YOLOv4: Optimal Speed and Accuracy of Object Detection. arXiv:2004.10934.
18. Brown, T.B., et al. (2020). Language Models are Few-Shot Learners. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 33: 1877-1901.
19. Carion, N., et al. (2020). End-to-End Object Detection with Transformers. *Proceedings of the European Conference on Computer Vision (ECCV)*, 213-229.
20. Lin, T.Y., et al. (2017). Focal Loss for Dense Object Detection. *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, 42(2): 318-327.
21. Mukhiddinov, M., Cho, J. (2021). Smart Glass System Using Deep Learning for the Blind and Visually Impaired. *Electronics*, 10(22): 2756.

22. Zhu, H.Y., et al. (2023). An investigation into the effectiveness of using acoustic touch to assist people who are blind. PLOS ONE, 18(10): e0291325.

*Muallif***Odilbek Asqaraliyev**

Sarbo'n universiteti, Toshkent,
O'zbekiston;
oasqaraliyev77@gmail.com

KORPORATIV TIZIMLARARO AXBOROT OQIMLARINI BOSHQARISHNING GRAF NAZARIYASIGA ASOSLANGAN MATEMATIK MODEL

Annotatsiya. Raqamli kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borgan sari, axborot uzatish, qayta ishlash hamda qaror qabul qilish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu tadqiqot ishida korporativ tizimlararo axborot oqimlarini boshqarishning graf nazariyasiga asoslangan matematik modeli taklif etilgan. Ushbu matematik model ko'p pog'onali axborot almashish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Korporativ tizimlararo avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida real vaqt rejimida ma'lumotlar almashish, qarorlar qabul qilishga ko'maklashish, shuningdek, aloqa tugunlarida yuklamalarni muvozanatlashning matematik ta'minoti bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari API texnologiyalariga asoslangan axborot almashish arxitekturasini takomillashtirishning asosiy fundamental ta'minoti sanaladi.

Kalit so'zlar: graf modeli, korporativ boshqaruv tizimi, axborot almashish, oqim qirrasi, kechikish funksiyasi, Routing API, message broker, Callback API, Dig Data, Click-House.



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Kirish

Korporativ tizimlararo ma'lumotlar almashinuvini optimallashtirish masalasi so'rovlarni real vaqt rejimida balanslash imkoniyatini yaratadi. Axborot oqimini boshqarish nazariyasiga ko'ra har bir aloqa tugunida xabarni uzatish hamda kechikish davri siklik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning vaqt hamda kechikish davrida axborot uzatilishi hamda uzilish nuqtasi mavjud bo'ladi. Korporativ tarmoq yoki multiservisli xavfsiz aloqa kanali orqali uzatish jarayonlari sodir bo'ladi.

Boshqaruv jarayonlari uchun axborot tizimlarini ishlab chiqishda, jarayonlarni loyihalash va tavsiflashda turli xil modellar qo'llaniladi. Bu modellar predmet soha tuzilmasi, asosiy obyektlar va subyektlar, elementlaridagi qonuniyatlar va munosabatlarni aniqlash, axborot tizimini optimallashtirish va asosiy chegaraviy mezonlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Integratsiyalashgan axborot tizimlarini qurish masalasiga doir bo'lgan matematik modellarning quyidagi turlarini keltirish mumkin: to'plamlar nazariyasi, graflar nazariyasi, avtomatik, funksional, deskriptor.

To'plamlar nazariyasi modellar o'zining soddaligi bilan ajralib turadi va predmet sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni yetarli darajada to'liqlik bilan tavsiflashga imkon beradi, lekin ular grafik tasvirga ega emas.

Graflar nazariyasi modellarda to'plamlar nazariyasiga asoslangan model uchun ham nazariy asos, ham graf ko'rinishidagi grafik tasvir mavjud bo'lib, bu ushbu turdagi modelni istiqbolli va ko'p holatlarda qo'llash imkonini beradi.

Avtomat modellari bir xil tamoyildan foydalanadi, avtomatlar nazariyasiga asoslanadi va graflar nazariyasi bilan to'ldirilishi mumkin. Avtomat modeli yordamida ish jarayoni obyektlarining holatini o'zgartirish jarayonlarini tasavvur qilish mumkin. Ish oqimi tuzilmasining murakkabligi bilan avtomat modelining murakkabligini oshirish mumkin.

Funksional modellar juda vizual grafik tasvirga ega, ammo ular matematik modelni almashtira olmaydi. Shu bilan birga, ushbu turdagi modellarning afzalliklaridan predmet sohasidagi biznes jarayonlarini ifodalash, shu bilan matematik modelni to'ldirish va ochish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu jarayonlarni matematik tasvirlashda graflar nazariyasi modelidan foydalaniladi.

Asosiy qism

Tizimni graf ko'rinishida ishlab chiqish: grafining tugunlari tizim komponentlari (masalan, operatorlar, API servislari, ma'lumotlar bazalari, brokerlar), qirralari esa tugunlar orasidagi aloqa kanallari sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, tugunlar tarmoqdagi obyektlarni, qirralar ularning orasidagi axborot almashinuvi bog'lanishlarini ifodalaydi. Tugunlarni ularning vazifasiga qarab tasniflash mumkin: operator (foydalanuvchi yoki tashabbuskor jarayon), API xizmati (biznes mantiqni bajaruvchi server), ma'lumotlar bazasi (ma'lumotlarni saqlovchi tugun), broker (xabarlarni marshrutlash yoki navbatga olish xizmati) kabi turlarga bo'linadi.

Qirralar esa aloqa turiga qarab tasniflanadi. Graf yo'nalgan bo'lishi mumkin, ya'ni ba'zi kanallar bir yo'nalishda ishlaydi (bir tomonlama). Masalan, Kahn jarayonlari tarmog'ida har bir qirra bir yo'nalishda ma'lumot uzatadigan FIFO navbatli kanal sifatida ko'riladi. Shuningdek, amaliy



tizimlarda ko'pincha ikki tomonlama aloqa kanallari mavjud (masalan, ikki tomonlama socket aloqa). Har bir aloqa kanalining asosiy xususiyatlari: sig'imi (o'tkazish qobiliyati), kechikishi (axborot uzatishdagi latent vaqt) va yo'nalish cheklovlari (bir yo'nalamaligi yoki ikki tomonlamaligi). Sig'imi deganda kanal bo'ylab uzatiladigan axborot oqimining maksimal tezligi (masalan, bit/soniya) tushuniladi. Kechikish deganda esa ma'lumotning bir tugundan boshqasiga yetib borishi uchun ketadigan vaqtdir (masalan, tarmoqda paketning uzatilish vaqti). Yo'nalish cheklovlari kanalning faqat bitta tomonlama ishlashi (agar graf yo'nalgan bo'lsa) yoki ikkiyoqlama trafikka ruxsat etilishi kabi holatlarni belgilaydi.

Modelni aniqlashtirish uchun har bir komponentga tegishli parametrlarni belgilaymiz:

Tugun parametrlari: i – tugun uchun xizmat ko'rsatish tezligi μ_i (bir sekunda qayta ishlay oladigan so'rovlar soni) va navbat sig'imi kabi parametrlar kiritiladi. μ_i ga teskari miqdor $1/\mu$ tugunning o'rtacha xizmat ko'rsatish vaqti bo'ladi. Agar tugunga soatiga λ tezlikda (soniya uchun) so'rovlar kelib tushsa, u holda tugundagi yuklanish darajasi $\rho = \frac{\lambda}{\mu}$ formula bilan aniqlanadi. Tizim barqaror ishlashi uchun har bir tugun uchun $\rho < 1$, ya'ni so'rov kelish tezligi xizmat tezligidan kichik bo'lishi lozim. Aks holda, $\lambda < \mu$ bo'lsa, navbat cheksiz o'sib, tizimda tirbandlik yuzaga keladi.

Kanal (qirra) parametrlari: Har bir (u, v) aloqa kanali uchun sig'im $C(u, v)$ (masalan, bit/soniya) va kechikish $d(u, v)$ (soniya) aniqlanadi. $C(u, v)$ – bu kanal bo'ylab uzatilishi mumkin bo'lgan maksimal axborot oqimi tezligi. Axborot oqimining joriy hajmi $f(u, v)$ kanalda uzatilayotganda, u doimo $f(u, v) \leq C(u, v)$ shartini qanoatlantirishi lozim, aks holda kanal to'ladi. Kechikish $d(u, v)$ esa odatda ikki qismdan iborat: uzatishning tarqalish vaqti (masofaga bog'liq holda signallarning kechikishi) va uzatish vaqti (masalan, M bitli paketni $C(u, v)$ sig'imli kanalda yuborish uchun $d(u, v) = \frac{M}{C(u, v)}$ soniya talab etiladi). Katta hajmdagi ma'lumot uzatilganda, aynan uzatish vaqti asosiy omil bo'ladi, shu bois $d(u, v)$ ni dinamik ravishda $\frac{M}{C(u, v)}$ ga bog'liq qilib ko'rish mumkin. Model katta ma'lumotlar hajmiga moslashishi uchun $C(u, v)$ kabi parametrlar yetarlicha yirik qiymatlarda (masalan, gigabitlarda) olinadi va zarur bo'lsa, kanallarni bir nechta parallel yo'llar orqali o'tkazish (load balancing) ham ko'zda tutiladi.

Xizmat/Oqim parametrlari: Tizim bo'ylab harakatlanayotgan axborot oqimi hajmi va xizmati ham parametrlar orqali ifodalanadi. Masalan, manba tugundan chiqarilayotgan oqimning tezligi λ (so'rov/soniya yoki bit/soniya ko'rinishida) bo'lishi mumkin. Har bir so'rovning o'rtacha hajmi (masalan, baytlarda) yoki tugunlarda talab qiladigan xizmat vaqti (masalan, protsessor sikllari) kabilar belgilanishi mumkin. Agar har bir so'rov hajmi o'rtacha S ga teng bo'lsa, u holda oqimning ma'lumot bo'yicha intensivligi λ/S (masalan, bit/soniya) bo'ladi. Shu tariqa, kanalning real yuklanish darajasi $f(u, v) = \lambda(u, v) * S$ bilan ifodalanib, $\rho = (u, v) = f(u, v) / C(u, v) \in [0, 1]$ nisbati kanalning bandlik darajasini ko'rsatadi.

Yuqoridagi parametrlar yordamida axborot oqimi kechikishini ham ifodalash mumkin.

Masalan, bitta i tugundan o'tuvchi oqimning o'rtacha kutish vaqti W_i va xizmat vaqti $\frac{1}{\mu}$ bo'lsa, umumiy o'rtacha turib qolish vaqti $T_i = W_i + \frac{1}{\mu}$ ga teng. Navbat nazariyasining $M/M/1$ modeli uchun O'rtacha kutish vaqti (navbatda) – W_i formulasi $W_i = \frac{\rho_i}{\mu_i - \lambda_i}$ ko'rinishida topiladi, bu yerda **yuklanish koeffitsienti**– $\rho_i = \frac{\lambda_i}{\mu_i}$. Natijada tugunda o'rtacha to'liq xizmat vaqti $T_i = \frac{1}{\mu_i - \lambda_i}$ ga teng bo'ladi. Agar oqim bir nechta tugun va kanallar zanjiri orqali o'tsa, umumiy kechikish shu bo'g'inlardagi barcha kechikishlar yig'indisiga teng:

$$T_{umumiy} = \sum_{(u,v) \in P} d_{uv} + \sum_{i \in P} T_i, \quad (1)$$

bu yerda P – manbadan qabulgachigacha bo'lgan yo'lda o'tgan qirralar (kanallar) va tugunlar to'plami. Modelning barcha formulalari katta hajmdagi ma'lumotlar oqimiga ham mos kelishi uchun parametrlar (masalan, μ , $C(u,v)$ yuqori qiymatlarda olinadi yoki zarur hollarda bir nechta xizmat ko'rsatuvchi qurilmalar (ko'p kanalli navbat modeli, $M/M/k$) bilan kengaytiriladi.

Tizim yo'naltirilgan og'irlikli graf sifatida quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$G = (V, E, C, D, \mu, \lambda) \quad (2)$$

Ushbu matematik ifoda to'plamlari qoyidagi jadvalda tavsiflangan.

1-jadval. Modelning parametrlari va tavsifi.

Belgilanish	Tavsif
V – tugunlar to'plami	Tugunlar: operatorlar, API, brokerlar, ma'lumotlar bazasi va h.k.
$E \subseteq V \times V$ – yo'naltirilgan qirralar	Tugunlar orasidagi axborot yo'nalishlari
$C: E \rightarrow \mathbb{R}^+$ – sig'im funksiyasi	Har bir kanalning maksimal o'tkazuvchanligi C_{ij} (bit/s)
$D: E \rightarrow \mathbb{R}^+$ – kechikish funksiyasi	Kanalning uzatish kechikishi D_{ij} (ms)
$\mu: V \rightarrow \mathbb{R}^+$ – xizmat tezligi	Har bir tugundagi xizmat tezligi (so'rov/s)
$\lambda: V \rightarrow \mathbb{R}^+$ – keluvchilar oqimi	Har bir tugunga kelayotgan so'rovlar soni (so'rov/s)

Tugunlar va qirralar to'plami (grafning strukturaviy modeli) orqali ifodalash mumkin. Bunda tugunlar to'plami (Vertices / Nodes) boshqaruv tizimida har bir loyihaviy komponent (API, broker, ma'lumotlar bazasi, operator, xizmatlar va h.k.) grafidagi bir tugun (node) sifatida ifodalanadi.

Bu komponentlarning to'plami quyidagicha belgilanadi:

$$V = \{v_1, v_2, \dots, v_n\}$$

Yoki aniq nomlar bilan:

$$V = \{ \underbrace{v_O}_{operator}, \underbrace{v_{RA}}_{Routing API}, \underbrace{v_{H_1}, v_{H_2}, \dots}_{Hujjat mikroservislari}, \underbrace{v_{CB}}_{CallBack API}, \underbrace{v_{B_1}, v_{B_2}}_{Message Broker 1, 2}, \underbrace{v_{SA}}_{App for Save}, \underbrace{v_{MDB}}_{Main DB}, \underbrace{v_{S_1}, v_{S_2}}_{External System 1, 2}, \dots \}$$

Har bir $v_i \in V$ – axborotni qabul qiluvchi, uzatuvchi yoki qayta ishlovchi funksional modulni anglatadi va ularning quyidagicha matematik rollari mavjud bo'lib bular o'ziga xos vazifalarni bajarib tizimning real vaqt rejimida kiruvchi va chiquvchi oqim komponentlarini hisoblash jarayoniga javob beradi:

2-jadval. Ifodaning parametrlari tavsifi va tizimdagi roli.

Tugun belgisi	Reallikdagi komponent	Tizimdagi roli
v_0	Operator	So'rov yuboruvchi tashqi foydalanuvchi
v_{RA}	Routing API	So'rovlarni markazlashgan boshqarish
v_{Hk}	Hujjat mikroservislari (1, 2, ...)	Foydalanuvchi hujjatlarini qayta ishlash
v_{SB}	Callback API	Tashqi tizimlarga natijani yuborish
v_{B_1}, v_{B_2}	Message Brokers	Xabarlarini oraliq navbatda saqlash, uzatishni boshqarish
v_{SA}	SaveApp	Asosiy DBga ma'lumotlarni saqlovchi modul
v_{MDB}	Main NoSQL DB	Doimiy saqlash bazasi
v_{BD}	Big Data DB	Tahliliy va statistik ma'lumotlar ombori
v_{S_1}, v_{S_2}	Tashqi tizimlar	Integratsiyalashgan boshqa xizmatlar (masalan, soliq, statistika)

Grafda har bir yo'nalgan qirra $v_i, v_j \in E$ – bu axborotning v_i tugundan v_j tugunga uzatilishini bildiradi va qirralar to'plami quyidagicha aniqlanadi:

$$E = \{(v_i, v_j) | sxemada v_i \rightarrow v_j \text{ yo'nalish mavjud}\} \quad (3)$$

Qirralar quyidagi xususiyatlarga ega. Ya'ni yo'nalgan: axborot faqat bir tomonga oqadi, har bir qirra uchun qo'shimcha parametrlari mavjud (sig'im, kechikish): bu keyingi bandlarda to'xtalib o'tamiz. Qirralar faqat mavjud aloqalarni bildiradi - sxemada chizma mavjud bo'lmasa, $v_i, v_j \notin E$.

Qirralarni mazkur tadqiqot ishi doirasida bajarilgan ishlar va tadqiq etilayotgan obyekt strukturasidan kelib chiqqan xolda real yo'nalishlarga bog'lab ro'yxat ko'rinishida beramiz:

Quyida sxemalardan olingan asosiy qirralar (ya'ni axborot oqimi yo'nalishlari) ro'yxati berilgan:

1-blok (Core yo'nalishlar):

- (v_0, v_{RA}) – Operator so'rovi Routing API ga boradi.
- $(v_{RA}, v_{H1}), (v_{RA}, v_{H2}), \dots$ API hujjat mikroxizmatlariga yuboradi.
- (v_{Hk}, v_{CB}) – Har bir hujjat mikroxizmati Callback API'ga natija beradi.
- (v_{CB}, v_{B1}) – Callback orqali Message Brokerga uzatiladi.
- (v_{B1}, v_{SA}) – Ma'lumotni asosiy saqllovchi Appga yuborish.
- (v_{SA}, v_{MDB}) – Asosiy NoSQL bazaga yozish.

2-blok (Big Data va tashqi tizimlar):

- (v_{SA}, v_{B2}) – Ma'lumotni BigData va sync uchun yuborish.
- (v_{B2}, v_{BD}) – BigData tahliliy omboriga.
- $(v_{B2}, v_{S1}), (v_{B2}, v_{S2})$ – Boshqa tizimlarga sinxronlash.

3-blok (Callback'lar orqali tashqi operatorlarga chiqish):

- (v_{SB}, v_{B2}) – Callback xabarlarini tashqi brokerga.
- $(v_{B2}, v_{Opr1}), (v_{B2}, v_{Opr2}), \dots$ – Callback APP for Operator – X .

Jarayonni tavsiflash uchun quyidagi umumiy bog'lanish ifodasini (strukturaviy formula shakli) keltirib o'tamiz:

Har bir tugun uchun chiqishlar:

$$\forall v_i \in V, Out(v_i) = \{v_j | (v_i, v_j) \in R\}$$

Har bir tugun uchun kirishlar:

$$\forall v_j \in V, In(v_j) = \{v_i | (v_i, v_j) \in E\}$$

Tugunlar V – axborot oqimi bosqichlari (asosiy qayta ishlovchi modullar). Qirralar E – uzatish marshrutlari (kanallar, socketlar, API chaqiruvlar).

Masalan:

- $Out(v_0) = \{v_{RA}\},$
- $In(v_{SA}) = \{v_{B1}\}.$

Bu struktura orqali oqimni modellashtirish, eng qisqa yo'l, yuklanish va kechikishni hisoblash mumkin (keying bo'limlarda batafsil to'xtalib o'tamiz).

Tizimdagi har bir qirra (ya'ni, yo'nalishli kanal) axborotni bir tugundan boshqasiga uzatadi.



Har bir qirra - yoʻnaltirilgan, cheklangan sigʻimga ega va maʼlum kechikish bilan ishlaydi. Bunda:

$$E = \{(v_i, v_j) \in V \times V \mid sxemadav_i \rightarrow v_j \text{ axborot uzatiladi}\} \quad (4)$$

Umuman olganda jarayonni tushunish, xolatni real vaqt rejimida baholash va tizimlararo maʼlumotlar almashinuvini tizimli tahlil qilish uchun tizimdagi axborot oqimini graf koʻrinishida ifodalab, har bir yoʻnalish (qirra) boʻyicha oqim miqdori, sigʻim, yuklanish darajasi va kechikishni tahlil qilish mumkin. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikda berilgan formulalar asosida model quriladi:

1. Oqim miqdori (har bir qirra boʻyicha):

$$f_{uv} = \lambda_{uv} \cdot S_{uv}$$

bu yerda $f_{uv} - u \rightarrow v$ boʻyicha soʻrovlar tezligi (soʻrov/sek), S_{uv} – har bir soʻrov hajmi (bit).

2. Kanal sigʻimi:

$$S_{uv} \in R^+ (bit / s)$$

bu kanalning maksimal axborot uzatish imkoniyati.

3. Yuklanish darajasi:

$$\rho_{uv} = \frac{f_{uv}}{C_{uv}} \leq 1$$

Agar $\rho_{uv} \geq 1$, bu kanal ortiqcha yuklangan, kechikish oshadi.

4. Tugundagi xizmat tizimi navbat nazariyasiga asoslanadi. Har bir tugun v_i quyidagi kattaliklar va parametrlarga ega:

- Oqim tezligi:

$$\lambda_i = (so'rov / s)$$

- Xizmat tezligi:

$$\mu_i = (so'rov / s)$$

- Yuklanish:

$$\rho_i = \frac{\lambda_i}{\mu_i}$$

- Oʻrtacha kutish vaqti:

$$W_i = \frac{\rho_i}{\mu_i - \lambda_i}$$

- Oʻrtacha xizmat vaqti:

$$\frac{1}{\mu_i}$$

- Toʻliq turib qolish vaqti:

$$T_i = W_i + \frac{1}{\mu_i} = \frac{1}{\mu_i - \lambda_i}$$

5. Zanjirdagi umumiy kechikish: Agar oqim bir necha tugunlardan oʻtsa barcha tugunlardagi kutishlarning yigʻindisi sifatida ifodalash mumkin.

$$T_{umumiy} = \sum_{i=1}^n T_i \quad (5)$$

6. Optimallashtirish: bunda oqimni shunday taqsimlash orqali tarmoqdagi umumiy kechikishni minimal boʻlishiga erishish maqsad qilib olinadi. Bunda oqim miqdori, kanal sigʻimi, oqim tezligi va xizmat tezligi kabi parametrlardan bevosita foydalaniladi.

$$\min T_{total} = \sum_{(u,v) \in E} \left(\frac{f_{uv}}{C_{uv}} + \frac{1}{\mu_u - \lambda_u} \right) \quad (6)$$

7. Barqarorlik sharti: Tizim barqaror boʻlishi uchun har bir tugundagi yuklanish miqdori 1 (yaʼni 100%) dan oshib ketmasligi shartini qanoatlantirishi nazarda tutiladi.

$$\rho_i = \frac{\lambda_i}{\mu_i} < 1$$

Yuqorida keltirilgan matematik formula va ifodalardan har bir tugun va kanal boʻyicha tarmoq holatini toʻliq tahlil qilishimiz, tarmoqdagi real yuklanish, kechikish va tirbandlikni bashorat qilishda bevosita foydalanishimiz mumkin.

Sxemadagi real moslik

3-jadval. Matematik ifoda parametrlari

Qirra (i, j)	Tizimdagi aloqa	Matematik parametrlar
(v_O, v_{RA})	Operator $\rightarrow$ Routing API	C_{OR}, D_{OR}, x_{OR}
(v_{RA}, v_{H1})	API $\rightarrow$ Hujjat xizmati 1	$C_{RH1}, D_{RH1}, x_{RH1}$
(v_{CB}, v_{B1})	Callback $\rightarrow$ Broker	$C_{CB}, D_{B1}, \dots$
...	...	...

Agar tarmoqda bir nechta oqimlar mavjud bo'lsa barcha oqimlar kanal sig'imididan oshmasligi kerak bu cheklovlar to'plami sifatida belgilanadi.

$$\sum_k x_{ij}^{(k)} \leq C_{ij}, \forall (i, j) \in E \quad (7)$$

Umumiy cheklovlardan kelib chiqib tugunlardagi xizmat jarayoni – Navbat nazariyasi asosida ($M/M/1$ modeli) modellashirish mumkin va u quyidagi kema-ketlikda amalga oshiriladi. Tizimdagi har bir tugun $v_i \in V$ (masalan, API, broker, DB) - bu xizmat ko'rsatish punktidir, ya'ni u axborotni qabul qiladi, uni qayta ishlaydi va keyingi tugunga uzatadi. Bunday tizimlar odatda navbatda kutish holatiga tushadi, shuning uchun navbat nazariyasi qo'llaniladi. Eng sodda va keng tarqalgan model – $M/M/1$ modeli, (ya'ni: M – so'rovlar Poisson taqsimotiga ega (λ), M – xizmat vaqti eksponensial taqsimotga ega (μ), 1 – bitta xizmat ko'rsatuvchi qurilma.) qo'llaniladi. Tugunlardagi xizmat jarayonini hisoblash uchun har bir tugun v_i uchun quyidagilar aniqlanadi:

4-jadval. 4-ifodanig parametrlari tavsifi

Belgilanish	Tavsif	O'lchov
λ_i	Tugunga kelayotgan so'rovlar tezligi	so'rov/s
μ_i	Tugundagi xizmat ko'rsatish tezligi	so'rov/s
ρ_i	Bandlik koeffitsienti	$[0,1)$
W_i	Kutish vaqti (navbatda)	s
T_i	Tizimda qolish vaqti (kutish + xizmat)	s
L_i	Tizimdagi o'rtacha so'rovlar soni	so'rov
L_{qi}	Navbatdagi o'rtacha so'rovlar soni	so'rov

Berilgan parametrlar bo'yicha tugunlar aniq qiymatlarga ega bo'lganda bandlik darajasi ρ_i – ni hisoblash uning xolatini baholash mumkin.

Agar $\rho_i \rightarrow 1$ bo'lsa, tugun haddan tashqari yuklangan, navbat cheksiz o'sadi.

Keying bosqichda kutish va xizmat ho'rsatish vaqtlarini xususan tizimda qolish (kutish + xizmat) xolatini quyidagicha aniqlanadi:

$$T_i = \frac{1}{\mu_i - \lambda_i} \quad (8)$$

Biroq bu jarayon xizmat ko'rsatish pozitsiyasiga o'tgandan keyin sodir bo'ladi. Tarmoqda bu pozitsiyadan tashqari bir tomolama bog'lanish ya'ni so'rovlar sonining oshib ketishi tizimlarda navbat kutish jarayonini yuzaga keltiradi. Bu jarayonni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$W_i = \frac{\lambda_i}{\mu_i(\mu_i - \lambda_i)} = \frac{\rho_i}{\mu_i - \lambda_i} \quad (9)$$

Navbatlar nafaqat tizimlar o'rtasida ma'lumot almashinuv jarayonlarida balki bitta tizimning o'zidagi tugunlar o'rtasidagi so'rovlar sonining oshib ketishi bilan ham vujudga kelishi mumkin. Bu jarayon ham ikki pozitsiyada bo'ladi va hisoblash bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi. 1 - tizimda (xizmat+navbat) pozitsiyasi uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$L_i = \frac{\rho_i}{1 - \rho_i}$$

2 - Navbatda (xizmatga kirish kutayotganlar) pozitsiyasidagi kutushlar:

$$L_{q_i} = \frac{\rho_i^2}{1 - \rho_i}$$

Tizimdagi ma'lumotlar almashinuvi jarayonning real vaqt rejimida aloqa liniyalari, tugunlar o'rtasida taqsimotining tugunlardagi so'rovlar sonining ehtimoliy (stasionar taqsimot) qiymatini quyidagicha baholash mumkin.

$$P_n = (1 - \rho_i) \rho_i^n, \quad n = 0, 1, 2, \dots$$

Xizmat vaqti (so'rov tizimda qancha vaqt qoladi) – eksponensial taqsimoti:

$$f_{T_i}(t) = (\mu_i - \lambda_i) e^{-(\mu_i - \lambda_i)t}, \quad t \geq 0 \quad (10)$$

formula bilan aniqlanadi.

Tizimdagi ma'lumotlar oqimining tugunlar bilan bog'lanish namuna:

5-jadval. Ma'lumotlar oqimining tugunlar bilan bog'lanish ko'rsatkichlari

Tugun v_i	Reallikdagi komponent	Ehtimoliy parametrlar (namunaviy)
v_{RA}	Routing API	$\lambda_{RA}=800, \mu_{RA}=1000$
v_{H1}	Hujjat servisi	$\lambda=500, \mu=700$
v_{CB}	Callback API	$\lambda=600, \mu=800$
v_{SA}	App for Save	$\lambda=300, \mu=350$

Shu yerda o'rilni savol tug'uladi tizim ichidagi real yuklanish va kutishlarni aniq baholash imkoni bormi? Bu jarayonni real baholashda Little qonuni muhim matematik apparat sifatida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi:

$$L_i = \lambda_i \cdot T_i, \quad L_{q_i} = \lambda_i \cdot W_i \quad (11)$$



Keying qadamda graf modeli asosida tarmoq orqali axborot oqimini tashkillashtirish uchun oqim taqsimoti muammosini ko'rib chiqamiz. Maqsad – har bir axborot oqimi manbadan maqsadga eng samarali (optimal) yo'nalish bo'ylab o'tishini ta'minlash. Buning uchun algoritmik yondashuvlar va matematik usullar qo'llaniladi. Agar bitta oqim uchun yo'l tanlanayotgan bo'lsa, grafda eng qisqa yo'lni topish masalasiga kelamiz – bu har bir qirraga ba'zi “og'irlik” (masalan, kechikish vaqti yoki xarajat) qiymati berilib, shu og'irliklar yig'indisi minimal bo'lgan yo'lni topish demakdir. Masalan, agar har bir aloqa kanali uchun og'irlik $w_{uv} = d_{uv}$ (kechikish) qilib olingan bo'lsa, u holda umumiy kechikishni minimallashtiruvchi yo'l P^* quyidagiga olib keladi:

$$P^* = \arg \min_P \sum_{(u,v) \in P} d_{uv}, \quad (12)$$

ya'ni P^* dagi har bir qirraning kechikishlari yig'indisi eng kichik bo'lgan yo'l. Bu masalani yechish uchun Dijkstra algoritmi kabi eng qisqa yo'l topuvchi standart usullardan foydalanish mumkin – Dijkstra algoritmi og'irliklangan grafda tugunlar orasidagi eng qisqa yo'llarni topadi. Shuningdek, Bellman-Ford algoritmi yoki Floyd–Warshall algoritmlari ham mos ravishda manfiy og'irliklar bo'lganda yoki barcha juft tugunlar orasidagi eng qisqa yo'llarni topish uchun qo'llanishi mumkin.

Tarmoqqa bir vaqtda bir nechta mustaqil axborot oqimlari kiritilganda, oqimlarni taqsimlash masalasini yechish lozim bo'ladi. Bunda har bir oqim o'z yo'lini tanlash bilan birga, kanallarning sig'im cheklovlari ham inobatga olinadi. Agar bir nechta oqimlar bir kanal orqali o'tmoqchi bo'lsa va ularning jami $f_{in}(u) = \sum_{v \in N(u)^\uparrow} f(vu) \forall u \in V$, oqimi kanal sig'imidan oshib ketsa, ba'zi oqimlarni alternativ yo'nalishga o'tkazish kerak bo'ladi. Bunday holatda masalani optimallashtirish usullari qo'llanadi: masalan, eng arzon yo'l yoki minimallashtirilgan kechikish bo'yicha oqimlarni taqsimlash. Bu tarmoq oqimini optimallashtirish muammosi chiziqli dasturlash tarzida ifodalanishi mumkin, bunda maqsad – umumiy kechikish xarajatini minimallashtirish, cheklovlar esa har bir tugun va kanalning o'tkazish qobiliyatidan oshib ketmaslikdir. Kichik tarmoqlar uchun bunday optimallashtirish masalasini echish orqali har bir oqim uchun eng maqbul yo'llarni aniqlash mumkin. Katta tarmoqlar va real vaqt rejimidagi trafik uchun esa odatda taqsimlangan marshrutlash protokollari va algoritmlar (masalan, OSPF, BGP kabi) har bir oqimni yaqin taxminiy optimal yo'lga yo'naltirib, tarmoq yuklanishini muvozanatlashtiradi. Tizimning to'liq yuklamasi, axborot oqimi, kutushlar va navbatlar orqali axborot oqimining butun tizim bo'ylab qanday tarqalayotgani, qanday cheklovlar mavjudligini bilgan holda tizimni optimallashtirish masalasi yuzaga keladi. Bunda oqim balansi va optimallashtirish tushunchalari bilan belgilangan parametrlar orqali maxsus xollar uchun qo'llaniladigan matematik modellardan foydalanamiz.

Oqim balansi (Kixof qonuni analogiyasi) - tizimdagi har bir tugun v_k uchun kiruvchi va chiquvchi oqimlar muvozanati saqlanishini taqozo etuvchi oqim balansi tenglamasini ko'rib chiqamiz:

$$\sum_{i:(v_i, v_k) \in E} x_{ik} = \sum_{j:(v_i, v_k) \in E} x_{kj} \forall v_k \in V \setminus \{s, t\} \quad (13)$$

bu yerda:

$x_{ij} - v_i$ tugunidan v_j – tuguniga oqayotgan axborot miqdori (bit/s yoki so‘rov/s),

S – manba (source) tugun (masalan, Operator),

t – qabul qiluvchi (sink) tugun (masalan, Big Data DB).

Bu tenglama shuni anglatadiki, har bir oraliq tugun axborotni saqlab qolmaydi, balki uni aynan qancha kirsa, shuncha chiqish yo‘nalishlariga uzatadi. Tizimning ishlash vaqtida axborotlarning ko‘payib ketishi tizimda va axborot liniyalarida yuklamaning oshishiga shu bilar birga oqim banasining buzilishiga saba bo‘lishi mumkin. Bu vaziyatlarni xisobga olish va jarayonni to‘g‘ri baholay bilish tarmoq orqali ko‘pi bilan qancha miqdordagi axborotni uzatish mumkinligi masalasini oydinlashtirish kifoya, bu esa quyidagi optimallashtirish masalasini yechish orqali amalga oshiriladi:

$$\max \sum_{(s,j) \in E} x_{sj}$$

optimallashtirish masalasini yechishda quyidagi ikki shart bajarilishi talab etiladi:

1. Cheklovlar (sig‘im):

$$0 \leq x_{ij} \leq C_{ij}, \forall (i, j) \in E$$

2. Oqim balansi (ichki tugunlar):

$$\sum_{i:(s,j) \in E} x_{ik} = \sum_{j:(k,j) \in E} x_{kj}, \forall v_k \in V \setminus \{s, t\} \quad (14)$$

Agar tarmoqda bir nechta mustaqil oqimlar mavjud bo‘lsa (masalan, har bir operator o‘z so‘rovini yuborsa bu masala aynan biz olib borayotgan tadqiqot ishida mavjud masala hisoblanadi), har bir oqim uchun optimallashtirish masalasi quyidagi cheklovlar orqali yechiladi va bu “Superposition” deb ataladi.

$$\sum_{f=1}^F x_{ij}^{(f)} \leq C_{ij}, \forall (i, j) \in E$$

Bu barcha oqimlar kanallarning umumiy sig‘imini ortiqcha yuklamasligi kerak deganidir. Optimallashtirish masalasini yechish orqali yana bir kattalikni aniqlash mumkin. Bu (Min-Cost flow) eng optimal oqim ya‘ni agar har bir qirra uchun xarajat yoki resurs sarfi w_{ij} (masalan kechikish, quvvatsarfi, vaqt) aniqlangan bo‘lsa oqim xarajatini minimallashtirib uzatish orqali samradorlikni oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda har bir kanal kechikishlariga teng xarajat qo‘yilsa, bu eng qisqa kechikishli yo‘lni tanlashga teng bo‘ladi:

$$\min \sum_{(i,j) \in E} w_{ij} \cdot x_{ij}.$$

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda kerakli va zarur cheklovlar va parametrlar tanlanganda tizimdagi har bir kanalni haddan ortiq yuklamaslik, har bir tugunni muvozanatda saqlash, oqimni eng yaxshi yo'l bilan taqsimlash, tizimda tirbandlik (navbatlar va kutushlar)ni oldini olish orqali oqim balansi va optimallashtirish butun axborot tizimi samaradorligini boshqarish va model yordamida amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotdagi amaliy bog'lanishlar jadvali:

6-jadval. amaliy bog'lanishlar va harakat yo'nalishlari

Tugunlar	Harakat yo'nalishi	Oqim formulasi
Operator → Routing API	$x_{OR} \leq C_{OR}$	x_{OR}
Routing API → H1/H2	$x_{RH} + x_{RH2} \leq C_{RH1} + C_{RH2}$	
Callback API → Broker2	$x_{CB,B2} \leq C_{CB,B2}$	
Broker2 → BigData / System1	$x_{B2,DB} + x_{B2,S1} \leq C_{B2,DB} + C_{B2,S1}$	

Ma'lumot uzatish tizimlarida har bir tugundan boshqa bir tugunga axborotni eng tez, eng ishonchli yoki eng kam xarajatli yo'l orqali uzatish zarur. Bu eng qisqa yo'l (shortest path) masalasidir. Graf modelida bu masala quyidagicha qo'yiladi. Har bir qirra (kanal) og'irlikka ega: w_{ij} (masalan, kechikish D_{ij} , narx, xavf, yuk) – S tugundan t tugungacha og'irliklar yig'indisi eng kichik bo'lgan yo'lni topish. Bizga berilga graf quyidagicha bo'lsin:

$$G = (V, E, w) \quad (15)$$

Bu yerda V – tugunlar to'plami, $E \subseteq V \times V$ – qirralar, $w: E \rightarrow R^+$ – har bir qirrarga berilgan og'irlik (masalan, $w_{ij} = D_{ij}$).

Maqsad:

$$\min_{P \in P_{s,t}} \sum_{(i,j) \in P} w_{ij}$$

- $P_{s,t}$ – s – dan t ga boruvchi barcha yo'llar;
- P^* – og'irliklar yig'indisi eng kichik bo'lgan yo'l.

Yuqoridagi jarayon bo'yicha ko'zlangan maqsadga erishish uchun og'irliklar qanday tanlash va aniqlash masalasi qo'yiladi. Bu jaran uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

1. Kechikish asosida:

$$w_{ij} = D_{ij} = \frac{M}{C_{ij}} + \delta_{ij}$$

2. Yuklanish asosida:

$$w_{ij} = \gamma_{ij} = \frac{x_{ij}}{C_{ij}}$$

3. Kombinatsiyalashgan og'irlik (ko'p mezonli):

$$w_{ij} = \alpha D_{ij} + \beta \gamma_{ij} + \theta r_{ij}$$

- r_{ij} – xavf yoki ishonchsizlik koeffitsienti
- $\alpha, \beta, \theta, \in [0,1]$ – og'irlik faktorlar

Graf asosidagi modellarda eng qisqa yo'l, minimal kechikish, optimal yo'nalishlarni topish uchun ishlatiladigan algoritmlar mavjud va bular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Tizimdagi axborot oqimi, bog'lanishlar, resurslar sig'imi, kechikishlar va oqim yuklanishini obyektidagi jarayon tahlilini matematik nuqtai nazardan ifodalash va aniq qiymatlar orqali modellashtirish jarayonini ko'rib o'tamiz. Bunda malumotlar va qiymatlar olib borilayotgan tadqiqot ish jarayonida ishlab chiqilgan tizim bog'lanishlari va aloqalarni tavsiflovchi struktura va sxemalarga asoslangan xolda eksperimental qiymatlar orqali grafik modelni raqamli ko'rinishga o'tkazish matritsa ko'rinishi hisob kitob ishlari amalga osjiriladi. Bu matritsalar yordamida tarmoqni:

- analiz qilish,
- optimallashtirish,
- real vaqt monitoringi,
- algoritmlar bilan ishlash

imkoniyatlari real baholanadi.

Faraz qilaylik, tizimdagi tugunlar soni $n=14$. Ular indekslanadi:

7-jadval. Tugunlar indekslari va belgilanish

Indeks	Tugun	Belgilanish
1	Operator	v_1
2	Routing API	v_2
3	Hujjat microservice 1	v_3
4	Hujjat microservice 2	v_4
5	Callback API	v_5
6	MessageBroker1	v_6
7	SaveApp	v_7
8	Main NoSQL DB	v_8

9	MessageBroker2	v_9
10	Big Data DB	v_{10}
11	External System 1	v_{11}
12	External System 2	v_{12}
13	Callback App for Operator 1	v_{13}
14	Callback App for Operator 2	v_{14}

Qo'shnihilik matritsasi (Adjacency Matrix) A ni hosil qilib olamiz.

$$A = [a_{ij}]_{n \times n}, a_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{agar } (v_i, v_j) \in E \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Bu matritsa faqat aloqa mavjud yoki yo'qligini bildirib tizim strukturasi grafiga asoslanadi.

Umumiy holatda:

$$A = \begin{bmatrix} 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}$$

Sig'ımlar matritsasi C

$$C = [C_{ij}]_{n \times n}, C_{ij} \in \mathbb{R}^+, C_{ij} = 0 \text{ agar } (v_i, v_j) \notin E \quad (16)$$

Har bir kanalning maksimal o'tkazuvchanligini ifodalaydi va odatda Mbit/s, so'rov/s yoki paket/s ko'rinishida bo'ladi

Umumiy shakli (qisman):

$$C = \begin{bmatrix} 0 & 100 & 0 & 0 & \dots & & \\ 0 & 0 & 80 & 80 & \dots & & \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 60 & \dots & \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 70 & \dots & \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 120 & \dots \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots \end{bmatrix}$$

Kechikishlar matritsasi D

$$D = [D_{ij}]_{n \times n}, D_{ij} = \frac{M_{ij}}{C_{ij}} + \delta_{ij} \quad (17)$$

Bu yerda M_{ij} – paket hajmi (bit), C_{ij} – kanal sig'imi, δ_{ij} – tarmoq kechikishi.

Har bir kanal bo'yicha umumiy kechikishni aks ettiradi (sekundlarda) va optimal yo'l tanlashda ishlatiladi

Umumiy shakli:

$$D = \begin{bmatrix} 0 & 0.015 & 0 & 0 & \dots \\ 0 & 0 & 0.0175 & 0.0175 & \dots \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0.0217 & \dots \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots \end{bmatrix}$$

Oqim matritsasi F

$$F = [f_{ij}]_{n \times n}, 0 \leq f_{ij} \leq C_{ij} \quad (18)$$

Real vaqt rejimida har bir kanal bo'yicha oqayotgan axborot miqdorini bildiradi va monitoring, yuklanish tahlili va dinamik marshrutlar uchun asos umumiy shakli:

$$F = \begin{bmatrix} 0 & 70 & 0 & 0 & \dots \\ 0 & 0 & 50 & 40 & \dots \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 60 & \dots \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots \end{bmatrix}$$

Yuqorida eksperiment sifatiida olingan matritsalar yordamida:

- Tizimni graf shaklida to'liq raqamli modellashtiriramiz.
- Har bir qism uchun optimal marshrutlar, yuklanishlar va tahliliy yechimlar chiqaramiz.
- Matritsalar – algoritmik hisoblashlar, simulyatsiyalar, va real vaqt monitoringi uchun asos sifatida qo'llash mumkin bo'lgan qiymatlar, jadval va grafiklar xosil qilamiz.
- Hisob-kitoblar asosida tizimdagi mavjud kanallar uchun quyidagilarni aniqlandi:
- Har bir aloqa yo'nalishi (qirra) bo'yicha:
- Sig'im (kanal qabul qila oladigan maksimal ma'lumot miqdori),
- Real vaqt oqimi (foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan ma'lumotlar),
- Yuklanish darajasi (%),
- Kanal kechikishi (sekundda) hisoblab chiqildi.

Tizim holatini tahlil qilish

1. O'rtacha yuklanish darajasi:



Sistemadagi barcha ishlatilayotgan kanallarning oʻrtacha yuklanishi:

$$\gamma = \frac{1}{|E|} \sum_{(i,j) \in E} \frac{f_{ij}}{C_{ij}} = 70,3\%$$

Bu nisbatan yuqori koʻrsatkich, lekin 80% dan oshmagan - bu tizim hozircha barqaror ishlayapti degani. Ammo yuqori yuklanishga yaqin boʻlgan kanallar bor.

2. Oʻrtacha kechikish:

$$D \approx 0.0181 \text{ sekund}$$

Olingan eksperimental qiymatlarga nisbatan bu juda yaxshi koʻrsatkich. Kechikish past, bu esa uzatish tezligi yaxshi ekanini bildiradi.

3. Riskli holatlar:

Yuklanish 90% dan yuqori boʻlgan yoʻnalishlar — tirbandlik xavfi ostida, yaqin kelajakda kechikish kuchayishi mumkin.

Ushbu yoʻnalishlar:

Routing API → Hujjat microservice 1

Callback API → MessageBroker1

MessageBroker1 → SaveApp

Bu joylarda resurs kengaytmasangiz yoki oqimni taqsimlamasangiz, tizimda kechikish yoki nosozlik paydo boʻlishi mumkin.

Natijani umumlashtirib baholash:


8-jadval. Tadqiqotlar natijalarini umumlashtirilgan baholash

Asosiy koʻrsatkich	Qiymat	Baholash
Oʻrtacha yuklanish	~70.3%	Yaxshi, barqaror
Oʻrtacha kechikish	~0.0181 s	Juda yaxshi
90%+ yuklangan yoʻllar	3 ta	Optimallashtirish tavsiya etiladi
Kechikishi yuqori yoʻllar	~2 ta	Monitoring zarur


Manba -> Qabul qiluvchi	Sig'im (Mbit/s)	Oqim (Mbit/s)	Yuklanish (%)	Kechikish (s)
0 V1 → V2	100.0	80.0	80.00	0.0150
1 V2 → V3	80.0	40.0	50.00	0.0175
2 V2 → V4	80.0	30.0	37.50	0.0175
3 V3 → V5	60.0	60.0	100.00	0.0217
4 V4 → V5	70.0	10.0	14.29	0.0193
5 V5 → V6	120.0	90.0	75.00	0.0133
6 V5 → V9	100.0	70.0	70.00	0.0150
7 V6 → V7	100.0	100.0	100.00	0.0150
8 V7 → V8	500.0	500.0	100.00	0.0070
9 V9 → V10	200.0	150.0	75.00	0.0100
10 V9 → V11	150.0	120.0	80.00	0.0117
11 V9 → V12	100.0	80.0	80.00	0.0150

Index	Manba -> Qabul qiluvchi	Sig'im (Mbit/s)	Oqim (Mbit/s)	Yuklanish (%)	Kechikish (s)
0 V1 → V2		100.0	80.0	80.0	0.015
1 V2 → V3		80.0	40.0	50.0	0.0175
2 V2 → V4		80.0	30.0	37.5	0.0175
3 V3 → V5		60.0	60.0	100.0	0.0217
4 V4 → V5		70.0	10.0	14.29	0.0193
5 V5 → V6		120.0	90.0	75.0	0.0133
6 V5 → V9		100.0	70.0	70.0	0.015
7 V6 → V7		100.0	100.0	100.0	0.015
8 V7 → V8		500.0	500.0	100.0	0.007
9 V9 → V10		200.0	150.0	75.0	0.01
10 V9 → V11		150.0	120.0	80.0	0.0117
11 V9 → V12		100.0	80.0	80.0	0.015


1-rasm. Serverdagi oqimlar yuklamalarini balanslash usulining eksperiment natijalari



2-rasm. Aloqa kanalidagi oqimning kechikishlar matritsaning eksperiment natijalari



3-rasm. Xizmat vaqti (so'rov tizimda qancha vaqt qoladi) eksperiment natijalari



4-rasm. Tizimdagi ma'lumotlar oqimining tugunlar bilan bog'lanishning eksperiment natijalari

Tajribalarda Python dasturlash tilidan foydalanildi. Axborot oqimini boshqarish tizimi uchun matematik model asosida tizimlararo axborot almashinuvi jarayonini matematik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilib, uni yo'nalgan og'irlikli graf ko'rinishida modellashtirish orqali ko'p parametrlı boshqaruv masalalarining kompleks yechimi ishlab chiqildi. Jarayonni bosqichma-bosqich matematik strukturalar yordamida ifodalash orqali, axborot texnologiyalari sohasida tizimlararo integratsiya va resurslar taqsimotining aniq matematik asoslari yaratildi. Model asosida tugunlar, qirralar, oqim, kechikish, sig'im, yuklanish, xizmat vaqti, navbatdagi kechikish va barqarorlik kabi tushunchalar har bir komponent darajasida aniq ifodalandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda tizimdagi har bir xizmat yoki modul (masalan, API, message broker, ma'lumotlar bazasi, servis) tugun sifatida aniqlanib, ular orasidagi axborot almashinuvi qirralar orqali modellashtirildi. Har bir qirra uchun sig'im C_{uv} , real vaqt oqimi f_{uv} , va kechikish duv kabi parametrlar kiritilib, ularning funksional chegaralari aniq matematik formulalar bilan belgilandi. Ayniqsa, kanal yuklanishi $\rho_{uv} = \frac{f_{uv}}{C_{uv}}$ orqali qirralar bo'yicha tarmoqning bandlik darajasi aniqlanib, tirbandlikni oldindan baholash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, har bir tugun uchun navbat nazariyasi ($M/M/1$ modeli) asosida xizmat ko'rsatish tezligi μ , so'rov kelish tezligi λ va xizmatdan o'tish kechikishi $T_i = \frac{1}{(\mu_i - \lambda_i)}$ orqali xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligi tahlil qilindi. Bu parametrlar real amaliyotda xizmat darajasi (QoS), resurslar yetishmasligi, va ko'rsatkichlar degradatsiyasi holatlarini oldindan prognoz qilishga imkon beradi. Masalan, biror tugunda yuklanish $\rho_i \geq 1$ bo'lsa, bu xizmat nuqtasida navbat

chegaradan oshgan, demak uni kengaytirish, resurs qo'shish yoki yo'nalishni o'zgartirish zarur bo'ladi.

Modelni tahlil qilish jarayonida har bir element (tugun va qirra) uchun matritsalar shaklida ifodalar kiritildi: qo'shnichilik matritsasi A , sig'implar matritsasi C , oqim matritsasi F , kechikishlar matritsasi D va yuklanish matritsasi G . Bu matritsalar asosida butun tizimning real holati to'liq raqamli ko'rinishga o'tkazildi va har bir nuqtaning funksional holati monitoring qilishga tayyor bo'ldi. Ular yordamida tarmoqdagi marshrutlarni kechikish, sig'im yoki boshqa og'irliklarga asoslangan holda tanlash imkoniyati yaratildi. Har bir algoritmnining shartlari, afzalliklari, cheklovlari va qo'llash sohalari alohida ko'rib chiqildi. Bu algoritmik yondashuvlar real tizimni avtomatik ravishda qayta yo'naltirish, optimal marshrutlash, yukni balanslashtirish uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, model orqali barqarorlik tahlili ham kiritildi. Har bir tugun uchun $\rho_i < 1$ bo'lishi tizim barqarorligining zarur shartidir. Bu shart bajarilmaganda, kechikish chegarasiz o'sadi, navbatlar cho'ziladi va tizimdan foydalanish qiyinlashadi. Shu sababli, model tizimni real vaqt holatiga moslashtirish, optimallashtirish, va kengaytirish imkonini beradi. Yakuniy natijada, biz axborot tizimlaridagi murakkab bog'lanishlarni matematik ko'rinishda ifodalab, har bir bosqichni analitik tahlil qilish, optimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish, va tarmoq resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu model axborot texnologiyalari, tizim arxitekturasini, servislararo integratsiya, va real vaqt monitoring sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun mustahkam matematik tayanchdir. Yangi yechim sifatida bu yondashuv tarmoq dizaynida matematik ishonchlilik, tizimlararo moslik va xizmat darajasi muvozanatini aniq tavsiflaydi. Modelni istalgan real tizimga moslashtirib, yuklama simulyatsiyasi, kechikish analizlari, va boshqaruv strategiyalari ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu ilmiy yondashuv amaliyotda qo'llaniladigan, aniq hisoblash va bashorat qilish imkoniyatiga ega, chuqur asoslangan matematik modeldir.



Adabiyotlar

1. R.Waszkowski, M.Kiedrowicz, T.Nowicki and K.Worwa. Access control management in administrative office with RFID tagged documents // Proceedings - 2017 4th International Conference on Mathematics and Computers in Sciences and in Industry, MCSI 2017. Vol. 2018-Janua, 2018. – P. 244–251. doi: 10.1109/MCSI.2017.48.
2. Collier M., Beel J. Implementing neural turing machines. Lecture Notes in Computer Science, 2018, vol. 11141, pp. 94–104. https://doi:10.1007/978-3-030-01424-7_10
3. T. A. Plate. Holographic reduced representations. IEEE Transactions on Neural Networks. no. 3, pp. 623–641. <https://doi:10.1109/72.377968>
4. P. Kanerva. Hyperdimensional computing: An introduction to computing in distributed representation with high-dimensional random vectors. Computation, 2009, no. 1, pp. 139–159. <https://doi:10.1007/s12559-009-9009-8>
5. E.Avery, T.Kelley, D.Davani. Tectures to improve robot control: Integrating production systems, semantic networks, and sub-symbolic processing. Proc. 15 th Annual Conference on Behavioral Representation in Modeling and Simulation (BRIMS), 2006, pp. 190–198.
6. T.Kelley, E.Avery, L.Long, E.Dimperio. Symbolic and sub-symbolic intelligent system for mobile robots. Proc. AIAA Infotech@Aerospace Conference, 2009, p. 1976. <https://doi:10.2514/6.2009-1976>
7. J.Parvar, D.Lowe, M.Emsley, R.Duff, A.Akintoye. Neural networks as a decision support system for the decision to bid process. Proc. 16th Annual ARCOM Conference, 2000, pp. 209–217.
8. Delen D., Sharda R. Artificial neural networks in decision support systems. In: Handbook on decision support systems 1. Springer, 2008. Pp. 557–580. https://doi:10.1007/978-3-540-48713-5_26
9. D. Golmohammadi. Neural network application for fuzzy multi-criteria decision making problems. International Journal of Production Economics, 2011, vol. 131, no. 2, pp. 490–504. <https://doi:10.1016/j.ijpe. 2011.01.015>
10. J.Figueira, S.Greco, M.Ehrgott. Multiple criteria decision analysis: State of the art surveys. New York, Springer-Verlag Berlin Heidelberg, Springer Publications, 2005. 1267 p. <https://doi:10.1007/978-1-4939-3094-4>
11. A.V.Demidovskij, E. A. Babkin. Developing a distributed linguistic decision making system. Business Informatics, 2019, vol. 13, no 1, pp. 18–32. <https://doi:10.17323/1998-0663.2019.1.18.32>
12. F.Herrera, L.Martinez. A 2-tuple fuzzy linguistic representation model for computing with words. IEEE Transactions on Fuzzy Systems, 2000, vol. 8, no. 6, pp. 746–752. <https://doi:10.1109/91.890332>
13. W. Hendricks, “Review of NoSQL Data Stores: Using a reactive threetier application for software developers to achieve a high availability application design architecture,” In 2019 Open Innovations (OI), 2019, pp. 71-77.
14. Mahruqi, R. S. A., Alalfi, M. H., & Dean, T. R. (2019, November). A semi-automated framework for migrating web applications from SQL to document oriented NoSQL database. In Proceyedings of the 29th Annual International Conference on Compyuter Science and Software Engineering (pp. 44-53).
15. P. Kolyasnikov et al., “Analysis of software tools for longitudinal studies in psychology,” International Journal of Advanced Compyuter Science and Applications, vol. 10, no. 8, pp. 21– 33, 2019.



16. Chen W, Zhou Q, Hu H (2019) Face alignment by discriminative feature learning. <https://doi.org/10.1109/ICIP.2019.8803112>
17. Girshick R, Donahue J, Darrell T, Malik J (2016) Region-based convolutional networks for accurate object detection and segmentation. *IEEE Trans Pattern Anal Mach Intell* 38(1). <https://doi.org/10.1109/TPAMI.2015.2437384>
18. A. Saidov, A. Dustmukhammedov, F. Khakimova. Problematic issues in the organization of customs control related to the application of artificial intelligence methods. International scientific and practical conference on “modern problems of applied mathematics and information technology (MPAMIT2022)”. AIP Conf. Proc. 3004, 050003 (2024). <https://doi.org/10.1063/12.0025282>
19. O.U.Askaraliyev, G.X.Muxtarova, N.T Malikova., R.H. Yuldashev. Practice of applying models of clustering of incoming semi-structured data in management systems. V International Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering”. (CONMECHYDRO - 2023), <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340105063>
20. O.U.Askaraliyev, N.T.Malikova, N.A. Naim, Sh.Sharma, Zh.Chohan, R.Kumar, S.Singh. Intelligent Decision Support Systems in Integrated Management Systems – A Novel Multicriteria Computational Control System. *Advancements in Civil Engineering & Technology*, AIP Conference Proceedings 2558, 020001 (2023). 03 February 2023. <https://doi.org/10.1063/5.0121301>
21. B. Xiao, P. Georgiou, B. Baucom, and S. Narayanan. Head motion modeling for human behavior analysis in dyadic interaction. *IEEE Trans. Multimedia*, 17(7):1107–1119, 2015.
22. Y. Zhang, X. Liu, M.-C. Chang, W. Ge, and T. Chen. Spatio-temporal phrases for activity recognition. In *Proc. European Conf. Computer Vision (ECCV)*, pages 707–721, Florence, Italy, Oct. 2012.
23. U. Khamdamov, M. Umarov, J. Elov, S. Khalilov and I. Narzullayev, “Uzbek traffic sign dataset for traffic sign detection and recognition systems,” 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146832
24. K Khamdamov, U.R., Umarov, M.A., Khalilov, S.P., Kayumov, A.A., Abidova, F.S. (2024). Traffic Sign Recognition by Image Preprocessing and Deep Learning. In: Choi, B.J., Singh, D., Tiwary, U.S., Chung, WY. (eds) *Intelligent Human Computer Interaction. IHCI 2023. Lecture Notes in Computer Science*, vol 14532. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-53830-8_9.

*Muallif***Farxat Rajabov**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti, Toshkent, 100200,
O'zbekiston; radjabov@tuit.uz

YER OSTI SUVI NAZORAT QUDUQLARIDA SATHI VA TARKIBINI TAHLIL QILISH INOVATSION USULI

Annotatsiya. Maqolada radio va tovush to'lqinlarining bir vaqtda tarqatish yordamida to'g'ridan-to'g'ri masofani o'lchash hamda harorat, pH sensorlari bilan kengaytirilgan funksionallik orqali suv tarkibini aniqlashni empedans spektroskopiyasi usuli bilan birlashtiradigan ko'p funktsiyali tizimning matematik, ekvivalent elektr sxemasi taklif etilgan. Bu model o'tkazuvchanlikdagi haroratga bog'liq o'zgarishlarni kompensatsiyasi va suvning kislotaliligi yoki ishqoriyligining muhim ko'rsatkichi bo'lgan pH ni kuzatish orqali suv sifatini baholashning aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada tizimning samaradorligi oshib, real vaqt rejimida yer osti suvi monitoringi imkoniyati yaratilgan.

Taklif etilgan metod keng chastota diapazonidagi elektr impedansini o'rganish orqali suv tarkibini har tomonlama tahlil qilishni ta'minlaydi. Ishlab chiqilgan tizim real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish uchun kam quvvatli IoT texnologiyasidan foydalanadi, bu esa masofaviy joylashtirish uchun masshtablilik va energiya samaradorligini ta'kidlaydi. Laboratoriya ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirish tizimning atrof-muhit va sanoat dasturlarida aniqligi va amaliyligini tasdiqlaydi. Ushbu maqolada suv sifatini tahlil qilish sohasini birgalikda rivojlantiradigan matematik modellash, apparat arxitekturasini va eksperimental natijalar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: suv sifatini tahlil qilish; masofani o'lchash; chastota empedans spektroskopiyasi; pH va harorat kompensatsiyasi; atrof-muhit monitoringida IoT.



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Kirish

Suv sifati ekotizimlarning barqarorligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi hamda jamoat salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy suv tahlili usullari ko'pincha katta resurs talab qiladi, chunki ular laboratoriya sharoitlari va uzoq vaqt talab etadi. Internet narsalar (IoT) va ilg'or sensor texnologiyalarining rivojlanishi real vaqt rejimida monitoring qilish va masofaviy tahlil imkoniyatlarini yaratdi. Ayniqsa, impedans spektroskopiyasi invaziv bo'lmaganligi va yuqori sezgirligi tufayli istiqbolli usullardan biri hisoblanadi. Suv resurslarini samarali boshqarish turli fizik va kimyoviy xususiyatlarni baholashga qodir bo'lgan keng qamrovli monitoring tizimlarini talab qiladi. An'anaviy usullar ko'pincha ko'p parametrlil tahlil imkoniyatiga ega emasligi sababli, ularning real vaqt rejimidagi dinamik muhitlarda qo'llanilishi cheklanadi.

Ushbu tadqiqot suv sifatini va sathi o'lchovlarni baholashga mo'ljallangan integratsiyalashgan tizimning matematik va amaliy modelini taqdim etadi. Model quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Suv tarkibini o'lchash modeli – chastotali impedans spektroskopiyasiga asoslangan bo'lib, suvning ion tarkibi va elektr o'tkazuvchanligi haqida aniq ma'lumotlar beradi.
2. Suv sathini o'lchash modeli – radio va akustik signallarning tarqalish tutulishini tahlil qilish orqali aniq va uzoq masofalarni hisoblash imkonini beradi.
3. Harorat va pH o'lchash modeli – elektr o'tkazuvchanlikning harorat o'zgarishlari bilan bog'liq o'zgarishini korrektsiya hamda real vaqt rejimida pH monitoringini ta'minlash uchun qo'shimcha funksiyalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada impedans spektroskopiyasi tamoyillarini zamonaviy IoT aloqa tizimlari bilan birlashtirgan suv tarkibini aniqlash qurilmasini ishlab chiqish haqida so'z boradi. Taklif etilgan qurilma keng chastota diapazonida (1 kHz dan 100 kHz gacha) ishlaydi, bu esa suvning ionlanishi va o'tkazuvchanligi haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ushbu imkoniyat qishloq xo'jaligidan tortib sanoat suv sifatini monitoring qilishgacha bo'lgan turli sohalarda qo'llash uchun muhimdir. Ushbu funksiyalarning integratsiyasi suv sifatini tahlil qilishda yaxlit yondashuvni ta'minlaydi, aniqlik va moslashuvchanlikni oshiradi.

Materiallar va usullar

Qurilmada qo'llanilgan impedans spektroskopiyasi metodining tamoyillari

Impedans spektroskopiyasi elektr o'tkazuvchan materiallarning xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatiladigan ilg'or texnikalardan biridir. U elektr signallarining chastota bo'yicha o'zgarishlarini tahlil qilish orqali materiallarning elektrokimyoviy xususiyatlari haqida chuqur ma'lumot olishga imkon beradi. Ushbu qurilmada impedans spektroskopiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Qurilma keng chastota diapazonida signal yuborib, suv muhitining impedans o'zgarishini o'lchaydi. Har xil ion tarkibiga ega bo'lgan suv namunalarining elektr o'tkazuvchanligi turlicha bo'lib, bu analiz natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Impedans aktiv (rezistivlik) va reaktiv (sig'imli) qarshilik komponentdan iboratdir. Suv tarkini aniqlashda bu komponentlarning ta'siri hisobga olinadi, chunki ionlarning harakati va ularning elektrokimyoviy o'zgarishlari turli chastotalarda o'zgarib boradi.
3. Impedans spektroskopiyasi suvdagi ionlarning konsentratsiyasini va ularning harakatlanuvchanligini o'lchash imkonini beradi. Yuqori chastotalarda ionlarning javobi o'zgarib, bu ularga bog'liq xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.
4. Qurilmaga o'rnatilgan zamonaviy algoritmlar olingan impedans spektrlarini qayta ishlash va tafsir qilish uchun ishlatiladi. Bu real vaqt rejimida aniq natijalarni olishga va ularni IoT orqali uzatishga imkon beradi.

Tizim 1 kHz dan 100 kHz gacha bo'lgan diapazonda 20 ta turli chastotada o'lchovlarni amalga oshiradi va ± 10 Ohm aniqlikda impedans qiymatini aniqlaydi. Suv tarkibi aniqlagich impedans spektroskopiyasi orqali suvning chastotaga bog'liq elektr xususiyatlarini tahlil qiladi, bunda natijalar ion konsentratsiyasi va dielektrik xossalar ta'sirida o'zgaradi. Harorat, pH kompensatsiyasi real vaqt rejimida kalibrlash va tuzatish imkonini berib, o'lchov natijalarining aniq hamda ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Suv tarkibini aniqlash impedans spektroskopiyasidan foydalangan holda eritmalarning chastotaga bog'liq elektr xususiyatlarini tahlil qiladi. Impedans suvdagi ion konsentratsiyasi va dielektrik xossalar ta'sirida o'zgaradi, bu esa o'z navbatida harorat hamda pH miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ushbu parametrlarni o'lchash uchun qo'shimcha sensorlarning integratsiya qilinishi suv tarkibini aniqlash natijalarini real vaqt rejimida kalibrlash va tuzatish imkonini beradi, bu esa o'lchovlarning aniqligini hamda ishonchliligini oshiradi.

Impedans spektroskopiyasi – bu materiallarning elektr xususiyatlarini tahlil qilish uchun o'zgaruvchan tok (AC) signali turli chastotalarda qo'llanadigan usuldir (1-rasm). Impedans kompleks qiymat sifatida ifodalanib, u aktiv (rezistiv qarshilik) va reaktiv (sig'imli qarshilik) komponentlardan iborat bo'ladi. Suv muhitida ushbu komponentlar erigan ionlar ta'sirida o'zgaradi, bu esa impedans spektroskopiyasini suv tarkibini aniqlash miqdorini o'lchash uchun ayniqsa samarali usulga aylantiradi [1].

Bu metodning matematik modeli, suvning impedansi $Z(f)$, uning qarshiligi (R) va dielektrik xususiyatlari (C) hisobga olingan holda quyidagicha ifodalanadi:

$$Z(f) = R + \frac{1}{j2\pi fC} \quad (1)$$

bu yerda:

$Z(f)$ – chastotaga bog'liq kompleks impedans,


R – eritmaning ohmik qarshiligi (elektr o'tkazuvchanlik bilan bog'liq),

C – eritmaning sig'imi (dielektrik xususiyatlarini ifodalaydi),

f – signal chastotasi,

j – mavhum birlik ($j^2 = -1$ yoki $j = \sqrt{-1}$).

Bu tenglama suvning elektr javobini rezistiv va reaktiv komponentlarga ajratish imkonini beradi. Impedansning chastotaga bog‘liq o‘zgarishini o‘lchash orqali suvdagi erigan ionlarning kontsentratsiyasi va umumiy eritma xususiyatlari haqida aniq ma’lumot olish mumkin.



1-rasm. Impedans spektroskopiyasining funksional blok sxemasi.

Bunda dielektrik singishning(ε) relaksatsiya va ionik tarqalishga ega bo‘lgan suyuq aralshma tizimlar uchun Kole-Kole(Cole-Cole) modeli ayniqsa fizikoviy jaroyonni aniq ifodalaydi. Shu sababli 1-formulani, model materialning impedansini chastotaga bog‘liq holda ifodalashga imkon beradi va matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi:

$$Z(f) = R_0 + \frac{1}{j 2\pi f C_0 \left[\varepsilon_\infty + \frac{\varepsilon_s - \varepsilon_\infty}{1 + (j 2\pi f \tau)^{1-\alpha}} \right]} \quad (2)$$

bu yerda:

R_0 – statik qarshilik (ohmik qarshilik),

C_0 – nominal sig‘im (asosiy sig‘im qiymati),

ε_∞ – yuqori chastotadagi dielektrik doimiysi,



ϵ_c – statik dielektrik doimiysi,

τ – relaksatsiya vaqti (elektron yoki ion javobining kechikish muddati),

α – tarqalish parametri (relaksatsiya jarayonining dispersiya darajasini ifodalaydi),

f – o'lchov chastotasi,

Ushbu model ionli eritmalar va suv muhitidagi dielektrik xususiyatlarning chastotaga bog'liq o'zgarishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, suv tarkibi miqdorini aniqlashda, impedans va dielektrik javob o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun ishlatiladi.

Agar matematik modelda eritmalaridagi ion almashuv va tiklanish(relaksiya) jarayonini yanada to'la ifodalasak unda **Havriliak-Negami modeli** – bu **Cole-Cole** modelining yanada umumiyliklashgan shakli bo'lib, u qo'shimcha simmetriya parametri β ni kiritish orqali dielektrik javobning murakkabroq taqsimlanishini ifodalaydi. Ushbu model materiallarning dielektrik relaksatsiya jarayonlarini chuqurroq tavsiflash uchun ishlatiladi va matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi:

$$Z(f) = R_0 + \frac{1}{j2\pi f C_0 [\epsilon_\infty + \frac{\epsilon_c - \epsilon_\infty}{(1 + (j2\pi f \tau)^{(1-\alpha)})^\beta}]}$$
 (3)

bu yerda:

β – simmetriya parametri ($0 < \beta \leq 1$),

qolganlari 2-formuladagiday ma'noga ega.

Demak, ushbu model suyuq aralashmaning dielektrik xususiyatlarini ancha aniq tavsiflaydi va ayniqsa, ionik eritmalar, polimer dielektriklar, va murakkab dispersiya muhitlari uchun qo'llaniladi. Havriliak-Negami modeli Cole-Cole modelini o'z ichiga oluvchi umumiy model bo'lib, suv muhitida ionlarning taqsimlanishini va ularning dielektrik xususiyatlarini yaxshiroq ifodalash imkonini beradi.

Ultratovush masofa o'lchash tizimining ishlash tamoyili va modeli

Tizim masofani o'lchash uchun ilg'or "e-beam" usulidan foydalanadi, bu usul radio va ultratovush signallarining bir vaqtda uzatilish tamoyiliga asoslangan [2-5]. Asosiy qurilma (2-rasmda ko'rsatilmagan) bir vaqtning o'zida, 433 MHz chastotali radio va 40 kHz chastotali ultratovush signallarni uzatadi

Masofa o'lchash jarayoni ushbu ikki signalning qabul qiluvchi tomonidan qabul qilinish vaqtlaridagi farqni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bu usul radio signali yorug'lik tezligida harakatlanishi (taxminan 3×10^8 m/s) va ultratovush signali esa tovush tezligida tarqalishi (taxminan 343 m/s, agar havo harorati 20°C bo'lsa) tamoyiliga asoslanadi.

Radio signali deyarli bir zumda manzilga yetib boradi, ultratovush signali esa ma'lum vaqt kechikish Δt bilan yetib keladi. Ushbu vaqt farqi (Δt) orqali masofa h quyidagicha aniqlanadi:

$$h = v_{\text{sound}} \times \Delta t \quad (4)$$

bu yerda:

h – ob'ektgacha bo'lgan masofa,

v_{sound} – tovush tezligi (343 m/s havo haroratiga bog'liq holda),

Δt – radio signali va ultratovush signali qabul qilinishidagi vaqt farqi.

Agarda ququqdagi gaz ideal deb hisoblask unda v_{sound} – tovush tezligini T - temperaturaga bog'likligini qo'yidagicha ifodalash mumkin:

$$h = v_{\text{sound}}(T) \times \Delta t = \sqrt{\frac{\gamma RT}{M}} \times \Delta t \quad (5)$$

bu yerda:

h – ob'ektgacha bo'lgan masofa,

γ – gazning adiabatik indeksi (bir atomli gazlar uchun 5/3, ikki atomli gazlar uchun 7/5, ko'p atomli gazlar uchun 4/3);

R – universal gaz doimiysi (8,314 J/(mol K));

T – mutlaq harorat (Kelvin);

M – quduqdagi gazning molyar massasi (kg/mol).

Afsuski quduq ishidagi gaz bu gaz hamda bug'lar aralashmasi bo'lib, unig xususiyatlari chuqurlik oshgan sari o'zgarib boradi va holatni qo'idagi matematik model yordamida ifodalsh mumkin:

$$h = \sqrt{\frac{\gamma_{\text{mix}}(T(h), p(h), xi(h)) \cdot p(h)}{\rho(T(h), p(h), xi(h))}} \times \Delta t \quad (6)$$

bu yerda:

h – ob'ektgacha bo'lgan masofa,

γ_{mix} – harorat $T(h)$, bosim $p(h)$ va aralashmasi $xi(h)$ ga qarab samarali adiabatik indeksi,

$p(h)$ - tezlanish va tarkibni hisobga olgan holda gidrostatik/gazostatik tenglamalar bilan aniqlangan h chuqurlikdagi bosim,

$\rho(h)$ - holat tenglamasi (masalan, haqiqiy gaz yoki suyuqlik fazasi) yordamida hisoblangan aralashmaning zichligi,

$xi(h)$ - h chuqurlikdagi aralashma komponentlarining (gaz va suyuqliklar) nisbati.

Bu tenglamani umumlashtirib soddaroq shaklda ifodalasa bo'ladi:

$$h = \sqrt{\frac{K_{eff}(h)}{\rho_{eff}(h)}} \times \Delta t \quad (7)$$

bu yerda:

h – ob'ektgacha bo'lgan masofa,

$$K_{eff}(z) = x_{gas} \cdot \gamma_{gas} \cdot p(h) + x_{liq} \cdot K_{liq} ;$$

$$\rho_{eff}(h) = x_{gas} \cdot \rho_{gas} + x_{liq} \cdot \rho_{liq} ;$$

$$x_{gas} + x_{liq} = 1.$$

Aralshmaning adiabatik ko'rsatkichi

$$\gamma_{gas} = \frac{\sum y_i \cdot C_{p,i}}{\sum y_i \cdot C_{v,i}} , \quad (8)$$

bu yerda :

y_i -komponentlarning mol/massa ulushlari va

$C_{p,i}, C_{v,i}$ - ularning issiqlik sig'implari

Chastotali impedans spektroskopiyasi va masofa o'lchash qurilmasining integratsiyalashgan arxitekturas

Ushbu qurilma (2-rasm) bir nechta o'lchash funksiyalarini o'z ichiga olgan bo'lib, masofa o'lchash, suv tarkibini aniqlash, pH monitoringi va harorat sezgichlarini o'zida mujassam etgan. Tizim 3.3V, 1000mAh sig'imli akkumulyator bilan ta'minlanib, energiya istemolini samarali boshqarish uchun ilg'or quvvat taqsimlash tizimidan foydalanadi.

Quvvat boshqaruv tizimi (Power Management System) tarkibiga - qurilmaning energiya ta'minoti 3.3V akkumulyatordan boshlanib, DC/DC konvertor orqali uch xil kuchlanish hosil qilinadi:

+3.3V – kam quvvat talab qiluvchi elektron komponentlar uchun,

+5.0V – signal qayta ishlash va interfeys modullari uchun,

+12V – yuqori quvvat talab qiluvchi sensorlar va boshqa elementlar uchun.

Kanal quvvat taqsimlash ulangichlari (Channel Power Distribution Switch) ushbu quvvat manbalarini markaziy protsessor (CPU) orqali boshqaradi. Bu esa turli tarkibiy qisimlarni quvvat sarfini optimallashtirish imkonini beradi.

Masofa o'lchash tizimi -masofa o'lchash sxemasi tarkibiga kiruvchi quyidagi komponentlardan iborat:

40 kHz chastotada ishlovchi ultratovush qabul qiluvchi modul,


433 MHz chastotada ishlovchi radio signallarni qabul qiluvchi modul.

Ushbu ikkala modul markaziy protsessorga ulanib, radio signalni qayta ishlash uchun UART interfeysi va ultratovush signalining kelish vaqtini aniqlash uchun timer kirishi ishlatidi. Mana shu timer asosida markaziy protsessor masofani radio va ultratovush signallarining qabul qilinish vaqtlaridagi farqni o'lchab, aniq hisoblab chiqadi.

Ushbu metod echoloskopik (aks sado) usulidan nisbatan afzalliklarga ega bo'lib, birinchidan an'anaviy aks-sado (echo) asosidagi tizimlarga qaraganda aniqroq natijalar beradi, ikkinchidan shovqinlardan himoyalangan chunki radio va ultratovush kombinatsiyasi turli muhitlarda barqaror ishlashni ta'minlaydi.

Ushbu qurilma nafaqat quduq suvlarini nazoratida balkim, turli sohalarda sanoat monitoringi, qishloq xo'jaligi, atrof-muhit monitoringi uchun ham moslashuvchan va ishonchli echim hisoblanadi.

Suv tarkibini aniqlash qismi, shuningdek, chastotali impedans spektroskopiyasi usulidan foydalanadigan o'lchash modulini o'z ichiga oladi. Ushbu modul Signal hosil qilish-DDS (Direct Digital Synthesis) generatoridan iborat bo'lib, kerakli chastotali signallar CPU tomonidan boshqaruv signallari orqali nazorat qilinadi va 1 k Ω aniq rezistor o'lchash sensoriga ketma-ket ulanadi. O'lchov signali bu yerdan CPU ning analogdan raqamliga o'zgartirgichi - ADC (Analog-to-Digital Converter) moduli orqali ma'lumot yig'ish uchun uzatilad.



2-rasm. Chastotali impedans spektroskopiyasi va integratsiyalashgan masofa o'lchash qurilmasining funksional blok diagrammasi

DDS generatori turli chastotalarda o'zgaruvchan signal hosil qiladi, bu esa turli chastotalarda impedansni o'lchash imkonini beradi. Ko'p chastotali tahlil usuli eritmaning chastotaga bog'liq impedans xususiyatlarini o'rganish orqali aniqroq tarkib o'lchovlarini ta'minlaydi.

Atrof-muhit parametrlarini kuzatish uchun suyuqlikning pH va haroratini aniqlovchi modul ishlatiladi. Ushbu modulda pH sensori eritmaning kislotalilik/ishqorlik darajasini o'lchash, harorat sensori esa haroratni ayrim ajratilgan ADC kanallari orqali bir vaqtning o'zida o'lchash uchun qo'shilgan.

Ma'lumot uzatish qismi esa 433 MHz yuqori chastotali, uzoq masofaga mo'ljallangan simsiz moduldan foydalanadi. Ushbu aloqa tizimi 433 MHz chastotada ishlaydi va masofaviy ishlash imkoniyatini ta'minlaydi. U CPU bilan UART interfeysi orqali ulanadi, tashqi antenna orqali signal kuchini oshiradi hamda masofaviy monitoring va ma'lumot yig'ish imkonini beradi.

Ushbu integratsiya quvvat sarfini optimallashtirish uchun ayrim modullarni tanlab yoqish orqali qurilmaga suv sifatini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Simsiz aloqa masofadan monitoring qilish va ma'lumotlarni yig'ish imkonini yaratib, uni avtomatlashtirilgan quduq suv sifatini monitoring qilish ilovalari uchun mos qiladi.

Qurilma quyidagi modullarni o'z ichiga oladi (2-rasm):


- suvga botirilgan zanglamaydigan po'lat elektrodlar – o'lchov interfeysi sifatida ishlaydi;

- AD9833 DDS moduliga asoslangan chastota generatori – maqsadli chastota diapazonida aniq sinusoidal signallar hosil qiladi;
- mikrokontroller CPU – signal generatsiyasi, ma'lumot yig'ish va aloqa jarayonlarini boshqaradi;
- sensorlardan ma'lumot yig'ish moduli – harorat, pH, TDS va masofa ma'lumotlarini ketma-ket o'qiydi va ularni birgalikda tahlil qilish uchun qayta ishlaydi;
- MIC2026/MIC2076 asosidagi dinamik quvvat taminoti – faqat o'lchov paytida sensor va modullarni faollashtirish orqali quvvat samaradorligini ta'minlaydi;
- 433 MHz radio modul(RF) orqali simsiz ma'lumot uzatish – masofaviy monitoringni amalga oshirish uchun ishlatiladi.


Natijalar

Olib borilgan sinovlar natijasida tizim quyidagi asosiy ishlash ko'rsatkichlarini namoyon etdi:

- quvvat sarfini optimallashtirish: <1 mA uyqu rejimida, >50 mA ish rejimida;
- pH o'lchash imkoniyatlari: 0.00-14.00 diapazonida ± 0.5 pH aniqlik ta'minladi;
- T-harorat o'lchash : 5 - 60°C diapazonda $\pm 0.5^\circ\text{C}$ aniqlikni berdi;
- h-masofani o'lchash: ± 10 cm aniqlik bilan 300 metrgacha o'lchash imkoniyati
- masofaga a'lumot uzatish tezligi: 2400 bit/soniyasiga;



3-rasm. Temperatura o'zgarishida eritmalaridagi spektri tashkil etuvchilarining trendi.



4-rasm. Har xil tarkibli eritmalardagi kompleks qarshilikning Z modulining spektri.

Ishlab chiqilgan tizim 10 ppm gacha bo'lgan ion konsentratsiyalarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lib, yuqori sezgirlikni namoyon etdi. Tajriba o'lchash maxsus qurilmasi bilan solishtirilganda, natijalar orasidagi farq 2% dan kam bo'ldi, bu esa tizimning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Dinamik quvvat boshqaruvi orqali energiya sarfi 50% ga kamaytirildi, bu esa batareyali qurilmalar xizmat muddatini uzaytirishga imkon berdi.

Impedans o'lchovlari va ma'lumotlarni uzatish jarayoni millisekundlar ichida amalga oshirildi, bu esa sanoat va qishloq xo'jaligi ilovalari uchun real vaqt rejimidagi tahlil imkoniyatini yaratdi.

Harorat kompensatsiyasi –atrof-muhit o'zgarishlari ta'sirini kamaytirib, aniqlikni o'rtacha 12% ga oshird(3-rasm)i;

pH suv sifatini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratdi, ion tarkibi va pH darajalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam berdi;

Masofa o'lchash:

±10 cm aniqlikda 300 metrgacha bo'lgan masofani o'lchashga erishildi;

an'anaviy usullarga nisbatan o'lchash imkoniyatlari sezilarli darajada oshirildi.

Tizim standart modalar eritmaları yordamida kalibrlashdan o'tkazildi, bu esa impedans o'lchovlarining aniq bajarilishini ta'minladi. Kalibrlash jarayoni quyidagi bosqichlardan olib borildi:

1. Har bir eritma uchun impedans spektrini qayd etish(4-rasm).
2. Polinomial moslash usulidan foydalanib, impedans va tarkib qiymatlari orasidagi bog'liqlikni o'rnatish.

Muhokama

Tizim simsiz suv monitoringi sohasidagi asosiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi, ayniqsa ISM 433 MHz diapazonida ishlovchi suv yuzasidagi va quduq og'zidagi komponentlar o'rtasidagi sinxronizatsiya masalasiga innovatsion yondashuvni taklif etadi. "Wake up" (Uyg'otish) signallari orqali uyqu rejimini faollashtirish energiya boshqaruvi uchun ilg'or yechim bo'lib, o'lchov natijalarining ishonchliligini saqlab qoladi.

Harorat va pH sensorlarining qo'shilishi hamda ultratovush yordamida bevosita suv sathini o'lchash usulining qo'llanilishi qurilmaning quduq suvi sifatini kompleks tahlil qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ushbu tizimning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- T-harorat va pH o'zgarishlarini real vaqt rejimida kompensatsiya qilish orqali suv tarkibi o'lchovlarining aniqligi ta'minlanadi;

- modulli loyihasiga qo'shimcha sensorlarni, masalan, loyqalilik yoki erigan kislorod sensorlarini integratsiya qilish imkonini beradi hamda keng ko'lamli suv monitoringi tarmoqlariga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi;

- qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlaridan tortib sanoat suv monitoringi tizimlarigacha bo'lgan turli ilovalarga mos keladi;

- murakkab laboratoriya namunalarini tayyorlash zaruratini yo'q qiladi, ya'ni tizim to'g'ridan-to'g'ri joyida aniq natijalar beradi;

- masofaviy hududlardagi quduqlarda uzoq muddatli ishlash imkonini yaratadi, bu esa batareyadan quvatlanuvchi qurilmalar uchun muhim afzallikdir.

Ushbu tizimning bir nechta parametrlarni bir vaqtning o'zida kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishi an'anaviy bir funktsiyali qurilmalar cheklovlarini bartaraf etadi.

Kelajakdagi ishlar sun'iy intellekt asosidagi aqliy tahlil (AI-based analytics) usullarini integratsiya qilish orqali trendlarga prognoz berish va suv resurslarini boshqarish strategiyalarini optimallashtirish bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tahlil uchun mashinali o'qitish algoritmlarini kiritish va funktsionallikni kengaytirish uchun ko'p parametrli sensorlar integratsiyasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xulosa

Ushbu ilmiy tadqiqotga bag'ishlangan maqola masofaviy o'lchash hamda impedans spektroskopiyasi asosida suv tarkibini aniqlash texnologiyasini innovatsion va atrof-muhit



parametrlarini kompensatsiya qilish usullari bilan birlashtirish orqali suv sifatini monitoring qilish texnologiyasini yangi bosqichga olib chiqadi. Ishlab chiqilgan prototip atrof-muhit monitoringi va suv resurslarini boshqarish bo'yicha amaliy qo'llash uchun katta salohiyatga ega ekanligini namoyish etadi.

Tadqiqotda suv sathini bevosita masofaviy o'lchash va tarkibini aniqlashda, harorat hamda pH sensorlarini integratsiya qilingan ko'p vazifali(multifunksional) suv monitoringi tizimi taqdim etilgan. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv yuqori aniqlik, kengaytirish imkoniyati va energiya samaradorligini ta'minlab, uni turli atrof-muhit va sanoat ilovalari uchun ideal echimga aylantiradi. Olingan natijalar ushbu tizimning real vaqt rejimida suv sifatini kuzatish va suv resurslarini boshqarish uchun qimmatli vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Taklif etilgan tizim, shuningdek, impedans spektroskopiyasining suv sifatini baholashda suv tarkibini aniqlashda samarali usul ekanligini namoyish etadi. Uning aniqlik, kengaytirish imkoniyati va energiya samaradorligi atrof-muhit monitoringi, sanoat jarayonlari va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot Internet narsalar (IoT) texnologiyalari asosida suv sifatini boshqarishning kelajakdagi rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.



Adabiyotlar

1. Rajabov F.F., Djumanov J.Kh. Development of a mathematical model for information flow balance. IICS-2020.
14. U. Khamdamov, M. Umarov, J. Elov, S. Khalilov and I. Narzullayev, “Uzbek traffic sign dataset for traffic sign detection and recognition systems,” 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-5, doi:



Adabiyotlar

1. Bu W, Xiao J, Zhou C, Yang M, Peng C (2017) Acascade frame work formasked face detection. <https://doi.org/10.1109/ICCIS.2017.8274819>
2. Chen W, Zhou Q, Hu H (2019) Face alignment by discriminative feature learning. <https://doi.org/10.1109/ICIP.2019.8803112>
3. Girshick R, Donahue J, Darrell T, Malik J (2016) Region-based convolutional networks for accurate object detection and segmentation. *IEEE Trans Pattern Anal Mach Intell* 38(1). <https://doi.org/10.1109/TPAMI.2015.2437384>
4. K. Vikram; S. Padmavathi, "Facial parts detection using Viola Jones algorithm" 2017 4th International Conference on Advanced Computing and Communication Systems (ICACCS), 24 August 2017, doi:10.1109/ICACCS.2017.8014636
5. Xun Wang; Xingang Liu; Lingyun Lu; Zhixin Shen, "A New Facial Expression Recognition Method Based on Geometric Alignment and LBP Features", 2014 IEEE 17th International Conference on Computational Science and Engineering, 29 January 2015.
6. Schroff F, Kalenichenko D, Philbin J (2015) FaceNet: a unified embedding for face recognition and clustering. <https://doi.org/10.1109/CVPR.2015.7298682>
7. Khalilov, S.P., Yusupov, I., Mannapova, M.G., Nasrullayev, N.B., Botirov, F. "Effectiveness of Deep Learning Based Filtering Algorithm in Separation of Human Objects from Images" *Lecture Notes in Computer Science* (including subseries *Lecture Notes in Artificial Intelligence* and *Lecture Notes in Bioinformatics*) this link is disabled, 2023, 13741 LNCS, pages 230–238 ORCID 58250916200
8. Automated Video Surveillance System for Detection of Suspicious Activities during Academic Offline Examination G. Sandhya Devi, G. Suvarna Kumar, S. Chandini O. Tuzel, F. Porikli, and P. Meer. Pedestrian detection via classification on riemannian manifolds. *IEEE Trans. Pattern Anal. Mach. Intell.*, 30(10):1713–1727, 2008.
9. M. Umarov, F. Muradov and T. Azamov, "Traffic Sign Recognition Method Based on Simplified Gabor Wavelets and CNNs," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670118.
10. P. Viola and M. Jones. Rapid object detection using a boosted cascade of simple features. In *Proc. IEEE Conf. Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, volume 1, pages 511– 518, 2001.
11. A. Wahid, Y. Sengoku, and M. Mambo. Toward constructing a secure online examination system. In *Proc. of the 9th Int. Conf. on Ubiquitous Information Management and Communication*, page 95. ACM, 2015.
12. B. Xiao, P. Georgiou, B. Baucom, and S. Narayanan. Head motion modeling for human behavior analysis in dyadic interaction. *IEEE Trans. Multimedia*, 17(7):1107–1119, 2015.
13. Y. Zhang, X. Liu, M.-C. Chang, W. Ge, and T. Chen. Spatio-temporal phrases for activity recognition. In *Proc. European Conf. Computer Vision (ECCV)*, pages 707–721, Florence, Italy, Oct. 2012.
14. U. Khamdamov, M. Umarov, J. Elov, S. Khalilov and I. Narzullayev, "Uzbek traffic sign dataset for traffic sign detection and recognition systems," 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146832
15. M. Avaz and K. Sirojiddin, "Basic principles of wavelet filtering," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 1-3, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670311.
16. Khamdamov, U., Abdullayev, A., Mukhiddinov, M., Xalilov, S. "Algorithms of multidimensional sig-



nals processing based on cubic basis splines for information systems and processes,” *Journal of Applied Science and Engineering (Taiwan)* this link is disabled, 2021, 24(2), страницы 141–150, ORCID 58250916200

17. A. Mirzaev and S. Khalilov, “Digital Signal Processing Based On Spline Functions,” 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2019, pp. 1-7, doi: 10.1109/ICISCT47635.2019.9012038.
18. M. M. Umarov, J. Elov, S. Khalilov, I. Narzullayev and M. Karimov, “An algorithm for parallel processing of traffic signs video on a graphics processor,” 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146809.
19. Mahmudovich, M.M., Ilkhamovna, A.M., Shukhrat Ogli, T.B. Image Approach to Uzbek Speech Recognition. International Conference on Communication Technology Proceedings, ICCT, 2022, 2022-November-November, страницы 1201–1206
20. K Khamdamov, U.R., Umarov, M.A., Khalilov, S.P., Kayumov, A.A., Abidova, F.S. (2024). Traffic Sign Recognition by Image Preprocessing and Deep Learning. In: Choi, B.J., Singh, D., Tiwary, U.S., Chung, WY. (eds) Intelligent Human Computer Interaction. IHCI 2023.



Mualliflar

Akmal Axatov

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston;
a-rustamovich@samdu.uz

Ma'ruf Tojiyev

Boshqaruv nazariyasi va axborot
xavfsizligi kafedrası, Sharof Rashidov
nomidagi Samarqand davlat
universiteti, Samarqand, O'zbekiston;
mrtojiyev6886@gmail.com

Mas'ul: mrtojiyev6886@gmail.com

TASHKILOTLARDA HUJJATLARNI QAYTA ISHLASH JARAYONLARINI BOSHQARISHNING IMITATION MODELI: OMMAVIY XIZMAT KO'RSATISH TIZIMLARI MISOLIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashkilotlarda hujjatlarni qayta ishlash jarayoni va uning samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi. Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari asosida hujjat oqimining intensivligi, qayta ishlash tezligi va tizim yuklanishini baholash uchun imitatsion modellashtirish usuli qo'llaniladi. Hujjatlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash bosqichlari tahlil qilinib, jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Modellashtirish natijalarining amaliy qo'llanilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: hujjatlarni qayta ishlash, ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari (OXKT), imitatsion modellashtirish, xizmat ko'rsatish samaradorligi, hujjat oqimi, diskret-hodisali modellashtirish (DHM).



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).



Metodologiya

Hujjat almashinuvi jarayonini modellashtirishda ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi (OXKN) va diskret-hodisali modellashtirish (DHM) usullari asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llaniladi. OXKN hujjatlarning tizimga kelish jarayonlarini, xizmat ko'rsatish vaqtlarini va tizimning umumiy samaradorligini matematik jihatdan tavsiflash imkonini beradi. Bu nazariya orqali hujjatlarning kelish tezligi, xizmat ko'rsatish tezligi, navbat uzunligi va tizimning to'liq ishlash vaqti kabi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlanadi. Diskret-hodisali modellashtirish (DHM) usuli esa tizimdagi hodisalarni vaqt bo'yicha diskret nuqtalarda kuzatish va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini beradi[6-7]. Bu usul orqali hujjatlar almashinuvi jarayonidagi har bir bosqich (masalan, hujjatni qabul qilish, uni qayta ishlash, tasdiqlash va yuborish) alohida modellashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi va tizimga ta'siri chuqurroq tahlil qilinadi. DHM yordamida tizimning turli parametrlarini o'zgartirib, ularning samaradorlikka ta'sirini baholash va eng optimal ishlash sharoitlari aniqlanadi. Ikkala usulning kombinatsiyasi orqali hujjat almashinuvi jarayonining real vaqtda simulyatsiyasi amalga oshiriladi, bu esa tizimning zaif tomonlarini aniqlash va ularni optimallashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu usullar yordamida tizimning turli sharoitlardagi ishlashini bashorat qilish va resurslardan samaraliroq foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu metodologiya asosida quyidagi asosiy komponentlar hisobga olinadi:

1. **Kelish jarayoni** – hujjatlarning tashkilotga qanday tezlikda kelib tushishini aniqlash uchun Puasson oqimi modeli qo'llaniladi. Bu model hujjatlarning kelish vaqtlarini tasodifiy hodisa sifatida tavsiflash imkonini beradi.
2. **Xizmat ko'rsatish tizimi** – hujjatlarni qayta ishlash tezligi va xizmat ko'rsatish vaqtining taqsimoti aniqlanadi. Ushbu jarayon M/M/n ommaviy xizmat ko'rsatish tizimi modeli orqali ifodalanadi, bunda xizmat vaqti eksponensial taqsimotga bo'ysunadi.
3. **Navbat tizimi** – hujjatlarning qayta ishlash tartibi FIFO (First In, First Out) yoki LIFO (Last In, First Out) qoidalariga asosan tashkil qilinadi.
4. **Samaradorlik tahlili** – xizmat jarayoni samaradorligini baholash uchun o'rtacha kutish vaqti, xizmat ko'rsatish tezligi va tizim yuklanish darajasi hisoblab chiqiladi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimida hujjat almashinuvi jarayonining analitik modeli

Hujjat almashinuvi jarayoni ommaviy xizmat ko'rsatish tizimi (OXKT) doirasida matematik modellashtiriladi. Ushbu jarayon turli tizimlarda, xususan, axborot texnologiyalari, hujjat aylanishi boshqaruvi va avtomatlashtirilgan hujjat ishlash platformalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot tizimlarida hujjatlar oqimini samarali boshqarish va qayta ishlashni optimallashtirish uchun xizmat ko'rsatish jarayonining statistik va ehtimollik xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Shu sababli, hujjatlar oqimining tavsiflanishi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining modellashtirilishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hujjat almashinuvi tizimlarining matematik modelini ishlab chiqishda ehtimollar nazariyasi, navbatlar nazariyasi hamda ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari (OXKT) bo'yicha ishlab chiqilgan

klassik modellardan foydalaniladi. Ushbu yondashuv hujjatlar oqimi, xizmat ko'rsatish tezligi va navbatda kutish ehtimolliklarini baholash imkonini beradi. Bunday modellar asosida tizimning ishlash unumdorligi tahlil qilinadi va xizmat ko'rsatish jarayonining optimallashtirilgan variantlari ishlab chiqiladi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlari odatda M/M/n modeli asosida tavsiflanadi, bunda:

M – kelish jarayoni Poisson oqimi orqali ifodalanadi, ya'ni hujjatlarning tizimga kelishi tasodifiy bo'lib, Poisson jarayoniga bo'ysunadi.

M – xizmat ko'rsatish jarayoni eksponensial taqsimot bo'yicha modellashiriladi, ya'ni har bir hujjatga xizmat ko'rsatish vaqtlari mustaqil va eksponensial taqsimlangan.

n – xizmat ko'rsatish kanallari sonini bildiradi, ya'ni tizimda bir vaqtning o'zida nechta hujjatga xizmat ko'rsatish mumkinligini ifodalaydi.

Tizimga keluvchi hujjatlar oqimi **Poisson jarayoniga** bo'ysunib, quyidagi ehtimollik funksiyasi orqali ifodalanadi:

$$P_n(t) = \frac{(\lambda t)^n e^{-\lambda t}}{n!} \quad (1)$$

bunda $P_n(t)$ – vaqt oralig'ida n ta hujjat kelib tushish ehtimoli, λ – hujjatlar oqimining kelish intensivligi (soatiga hujjatlar soni), t – vaqt oralig'i.

Kelish vaqtlari orasidagi taqsimot esa **eksponensial taqsimot** bilan tavsiflanadi:

$$f(t) = \lambda e^{-\lambda t}, \quad t \geq 0 \quad (2)$$

Xizmat ko'rsatish tizimining holatlari Markov jarayoni bilan tasvirlanadi, ya'ni kelayotgan va xizmat ko'rsatilayotgan hujjatlar soni tizimning joriy holatini belgilaydi[9].

OXKT holatlar grafi - bu “ko'payish va o'lim” sxemasi. Buning uchun tizim holatlarining chegaraviy ehtimolliklari uchun quyidagi ifodalardan foydalaniladi:

Ommaviy xizmat ko'rsatish tizimining (OXKT) holatlar grafigi “ko'payish va o'lim” jarayoni sxemasi asosida quriladi. Bunday tizim uchun holatlarning chegaraviy ehtimolliklari quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

$$P_1 = \frac{\rho}{1!} P_0, P_2 = \frac{\rho^2}{2!} P_0, \dots, P_n = \frac{\rho^n}{n!} P_0, \quad (3)$$

$$P_{n+1} = \frac{\rho^{n+1}}{nn!} P_0, \dots, P_{n+m} = \frac{\rho^{n+m}}{n^m n!} P_0, \quad (4)$$

Tizimning bo'sh holatda bo'lish ehtimoli P_0 esa quyidagi normalizatsiya sharti asosida aniqlanadi:

$$P_0 = \left[1 + \frac{\rho}{1!} + \dots + \frac{\rho^n}{n!} + \frac{\rho^{n+1}}{nn!} + \frac{\rho^{n+2}}{n^2 n!} + \dots + \frac{\rho^{n+m}}{n^m n!} \right]^{-1}. \quad (5)$$

bunda P_i – tizimning i -holatda bo‘lish ehtimoli, P_0 – tizimning bo‘sh holatda bo‘lish ehtimoli (ya’ni, navbatda hech qanday ariza yo‘q), ρ – tizimning yuklanish darajasi, ya’ni $\rho = \lambda/\mu$ bu yerda λ – tizimga tushayotgan arizalar oqimining o‘rtacha kelish intensivligi, μ – bitta xizmat kanalining o‘rtacha xizmat ko‘rsatish intensivligi, n – tizimdagi xizmat ko‘rsatish kanallari soni, m – navbatning maksimal uzunligi (agar mavjud bo‘lsa).

Xizmat ko‘rsatish tizimida rad etish ehtimoli

Ushbu tizimda xizmat uchta mustaqil kanal orqali amalga oshiriladi. Agar barcha uchta kanal band bo‘lsa, kelgan hujjatlarga xizmat ko‘rsatish rad etiladi. Rad etish ehtimoli xizmat kanallarining to‘liq band bo‘lish ehtimoli P orqali hisoblanadi:

$$P_{xiz} = \frac{\left(\frac{\lambda}{\mu}\right)^n / n!}{\sum_{k=0}^n \left(\frac{\lambda}{\mu}\right)^k / k!}. \quad (6)$$

Ushbu ifoda Erlang-B formulasiga asoslangan bo‘lib, tizimga kelgan hujjatlarning xizmat ko‘rsatilmay rad etilish ehtimolini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur metodologiya asosida hujjat almashinuvi tizimining samaradorligi baholanadi va uning optimal ishlashi uchun zarur shartlar aniqlanadi.

Hujjatlarni qayta ishlash jarayonining imitatsion modeli


Hujjat almashinuv tizimini kompyuterda imitatsion modellashtirish real jarayonlarni tahlil qilish va ularning ishlash samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv hujjatlar oqimining xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, turli konfiguratsiyalar asosida tizimning optimal ishlash sharoitlarini aniqlash hamda xizmat ko‘rsatish jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda zamonaviy imitatsion modellashtirish vositalaridan biri bo‘lgan **AnyLogic** dasturidan foydalanish ayniqsa samarali hisoblanadi[11]. AnyLogic agentlik modellashtirish, tizim-dinamik modellashtirish hamda hodisalar oqimiga asoslangan modellashtirish imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan ilg‘or platforma bo‘lib, hujjat almashinuvi tizimining real holatini imitatsiya qilishga imkon beradi.

Mazkur modelda hujjatlar oqimi manba (source) dan kelib chiqadi, keyin tarmoqlash (selectOut) elementi orqali ajratiladi. Hujjatlar ushbu blok orqali ikki yo‘nalishga yo‘naltiriladi:

- Agar hujjat qayta ishlanishi kerak bo‘lsa, u kechikish (delay) komponentiga yo‘naltiriladi.
- Aks holda, hujjat bevosita chiqish-2 (sink2) orqali tizimdan chiqadi.

Modelning ishlash algoritmi

1. Source (Manba) elementi tizimga hujjatlar oqimini Puasson taqsimoti bo'yicha kiritadi.
2. SelectOut (Tarmoqlash) elementi har bir hujjatni shartli ravishda ikkita yo'nalishga ajratadi:
 - a. True (haqiqiy) yo'nalishda hujjat qayta ishlash jarayoniga o'tadi.
 - b. False (noto'g'ri) yo'nalishda hujjat bevosita chiqib ketadi.
3. Agar hujjat qayta ishlashi lozim bo'lsa, u Delay (Kechikish) blokiga yo'naltiriladi. Ushbu blok hujjatni qayta ishlash vaqtini hisobga olgan holda, tizimda ushlab turadi.
4. Delay (Kechikish) blokidan chiqqan hujjatlar Sink (Chiqish-1) orqali tizimdan chiqadi.
5. SelectOut (Tarmoqlash) blokida qayta ishlash sharti bajarilmagan hujjatlar Sink2 (Chiqish-2) orqali bevosita chiqib ketadi.




1-rasm. Modelning umumiy ko'rinishi

AnyLogic dasturida hujjatlarni qayta ishlash tizimini modellashtirish uchun ishlatiladigan asosiy elementlar va ularning xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan. Modelda **source** orqali hujjatlar kelib tushadi, **selectOutput** blokida ular qayta ishlashga yo'naltiriladi yoki rad etiladi. Agar xodimlar soni yetarli bo'lsa, **delay** orqali qayta ishlashga qabul qilinadi, aks holda, **sink** orqali rad etish ehtimoli hisoblab chiqiladi.

1-jadval. Hujjatlarni qayta ishlash modeli xususiyatlari.

Nomi	Turi	Qiymati / Sharti	Qo'shimcha harakatlar
Source (Hujjat)	Ariza turi: Agent	Kelib tushishlar orasidagi vaqt: $\text{exponential}(1/\text{UrtHujKelOqm})$;	$\text{QabulHujjatSoni}++$;
selectOutput	Shartli tanlov	$\text{QaytaIshlash.size()} < \text{IshchiSoni}$ bo'lsa, chiqish true, aks holda boshqa yo'nalish	-
delay	Belgilangan vaqt kechikishi	Kechikish vaqti: $\text{exponential}(1/\text{UrtIshlovHujjat})$	Sig'im: IshchiSoni, Statistika yig'ish: faol
Sink (Ishlov_b)	Natija tuguni	Hujjat qayta ishlangan deb hisoblanadi	$\text{IshlovBerilganHujjatSoni}++$; ; $\text{QaytaIshlashEhtimoli} = \text{IshlovBerilganHujjatSoni} / \text{QabulHujjatSoni}$; $\text{QaytaIshlanmaslikEhtimoli} = 1 - \text{QaytaIshlashEhtimoli}$;

Hujjatlarni qayta ishlash jarayonida **Delay** (Kechikish) elementi muhim rol o'ynaydi. Ushbu elementning asosiy xususiyatlari 2-rasmda keltirilganidek sozlanadi. Kechikish vaqtining taqsimoti tizimning ishlash shartlariga mos ravishda tanlanib, hujjatlarni qayta ishlash jarayoni real sharoitlarga yaqin modellashtiriladi. Bu esa tizim samaradorligini oshirish va natijalarni ishonchli tahlil qilish imkonini beradi.



2-rasm. Delay elementining xususiyatlari

Sink (Chiqish) elementi hujjatlarni tizimdan chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu

elementga yetib kelgan har bir hujjatga ishlov berilgan deb hisoblanadi va quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

- IshlovBerilganHujjatSoni o'zgaruvchisi 1 birlikka oshiriladi, ya'ni tizim tomonidan qayta ishlangan hujjatlar soni hisoblab boriladi.
- QaytaIshlashEhtimoli o'zgaruvchisi quyidagi formulaga asosan yangilanadi:


$$QaytaIshlashEhtimoli = \frac{IshlovBerilganHujjatSoni}{QabulHujjatSoni}$$

Bu qiymat tizimga kirgan barcha hujjatlar ichida qayta ishlangan hujjatlarning ulushini aks ettiradi.

- QaytaIshlanmaslikEhtimoli quyidagi ravishda aniqlanadi:

$$QaytaIshlanmaslikEhtimoli = 1 - QaytaIshlashEhtimoli$$
- Ushbu formula orqali tizimda qayta ishlanmagan hujjatlarning umumiy oqimga nisbatan ulushi hisoblanadi.

Bu jarayon Sink elementi orqali amalga oshiriladi va modelning umumiy natijalarini baholashda muhim rol o'ynaydi (3-rasm).



3-rasm. Sink elementining xususiyatlari

Modellashtirish natijalarini chiqarish uchun double turidagi o'zgaruvchi (Переменная) elementlari qo'llaniladi (4-rasm).


- QabulHujjatSoni – kelib tushgan hujjatlar soni;
- IshlovBerilganHujjatSoni – qayta ishlangan hujjatlar soni;
- QaytaIshlashEhtimoli – hujjatlarni qayta ishlash ehtimolligi;
- QaytaIshlanmaslikEhtimoli– hujjatlarning qayta ishlanmay qolish ehtimolligi.



4-rasm. O'zgaruvchilarning shakllanishi

Keyingi bosqichda modelning virtual muhitda ishga tushirilishini ta'minlash maqsadida **Simulation** (Simulyatsiya) bo'limida tegishli sozlashlar amalga oshiriladi (5-rasm). Bu jarayonda modelning bajarilish parametrlari aniqlanib, uning ishlash tartibi, vaqt rejimi va natijalarni qayd etish usullari belgilanadi. Sozlash jarayoni modelni optimal ishlash sharoitiga moslashtirish hamda uning dinamikasini real sharoitga yaqin holda kuzatish imkonini beradi.

1. "Loyihalar" (Проекты) oynasida Simulation:Main bo'limi ajratiladi.
2. "Model vaqti" (Модельное время) sahifasida "To'xtatish" (Остановить) parametri sifatida "Belgilangan vaqtda" (В заданное время) opsiyasi tanlanadi.
3. "Yakuniy vaqt" (Конечное время) sifatida 600000 qiymati kiritiladi.
4. "Ishlash rejimi" (Режим выполнения) "Virtual vaqt" (Виртуальное время) – maksimal tezlikda holatiga o'rnatiladi.
5. "Tasodifiylik" (Случайность) sahifasida "Fiksatsiyalangan boshlang'ich son" (Фиксированное начальное число) opsiyasi o'rnatiladi, bu esa qayta ishlab chiqish jarayonida takrorlanuvchi natijalarni ta'minlaydi.
6. "Boshlang'ich son" (Начальное число) sifatida 1055 qiymati belgilanadi.




5-rasm. Simulation oynasining sozlamalari

Tahlil va natijalar

AnyLogic muhitida qurilgan hujjat almashinuv jarayonining imitatsion modeli to'liq shakllantirilib, ishga tushirishga tayyor holatga keltirildi. Endilikda modelni ishga tushirish va uning natijalarini tahlil qilish bosqichiga o'tish zarur. Modelning ishlash jarayoni davomida hosil bo'ladigan statistik natijalar va vizualizatsiya komponentlari tahlil qilinib, tizim samaradorligi baholanadi.

Mazkur tahlil jarayoni, birinchidan, hujjatlar oqimining vaqt bo'yicha taqsimlanishi, ikkinchidan, xizmat ko'rsatish jarayonidagi kechikishlarning o'rtacha qiymati hamda tizim yuklanish darajasi kabi parametrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu natijalar eksperimental tekshirish va model parametrlarini optimallashtirish imkoniyatini taqdim etadi.

Shuningdek, model natijalari vizual tahlil qilish imkonini beruvchi grafik va diagrammalar yordamida tasvirlanadi. Kutilayotgan natijalar 6-rasmda keltirilganidek tizimning ishlash samaradorligi va parametrlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini aks ettirishi lozim. Bu jarayon modelni real tizim bilan taqqoslash va uning haqiqiy jarayonlarga mosligini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.



6-rasm. Imitatsion model natijasi


Modelning ishlash muddati 199535 ga yetgach, ya'ni 7-rasmda keltirilgan qiymatga erishilgandan so'ng, tizim 50000 ta dinamik agent chekloviga ko'ra avtomatik to'xtaydi.



7-rasm. Modelning ishlash muddati

Hisob-kitob natijalari asosida hujjatlarning qayta ishlanmaslik ehtimoli (QaytaIshlanmaslikEhtimoli) 0,346 ga teng ekani aniqlandi. Ushbu qiymat analitik usulda olingan natija bilan mos keladi, biroq ba'zi holatlarda uch xonali aniqlikdagi yaxlitlash natijasida kichik tafovutlar kuzatilishi mumkin.

Keyingi bosqichda tizim samaradorligini oshirish maqsadida xodimlar soni uch kishidan olti kishiga oshirildi. Bu optimallashtirish jarayoni IshChiSoni parametrining standart qiymatini 6 qilib belgilash orqali amalga oshirildi. Modelni qayta ishga tushirish natijasida hujjatlarning qayta ishlanmaslik ehtimoli 0,053 ga kamaydi, bu esa analitik hisob-kitob natijasidan atigi 0,001 ga farq qiladi. Ushbu natijalar modelning real tizim ishini aks ettirishdagi yuqori aniqligini tasdiqlaydi (8-rasm).



8-rasm. Ishchilar soni oshirilganda natija

Shunday qilib, olib borilgan imitatsion modelashtirish natijalari analitik hisob-kitoblar bilan yuqori darajadagi moslikni namoyon etdi. Olingan natijalar tizimning ishlash xususiyatlarini aniq aks ettirib, modelning real jarayonlarga yaqinligini tasdiqlaydi. Ushbu moslik imitatsion modelashtirishning ishonchliligi va amaliy qo'llash imkoniyatlarini tasdiqlaydi hamda ushbu yondashuvning tizim samaradorligini baholash va optimallashtirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Xulosa

Imitatsion modelashtirish real tizimlarning ishlash jarayonlarini tahlil qilish va turli ssenariylarni sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv analitik usullar orqali yechish qiyin bo'lgan murakkab jarayonlarni modelashtirishga imkon yaratadi. Imitatsion modelashtirish yordamida real tizimni buzmasdan sinov o'tkazish, turli parametrlarning ta'sirini baholash va optimal ishlash sharoitlarini aniqlash mumkin. Bu usul ayniqsa, murakkab tizimlar uchun samarali bo'lib, qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi va aniqligini oshiradi.

AnyLogic dasturi imitatsion modelashtirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Uning grafik interfeysi yordamida modelashtirilgan jarayonlar vizual tarzda ifodalanib, natijalar diagrammalar va animatsiyalar shaklida taqdim etiladi. Bu esa foydalanuvchilarga tizimning ishlashini tushunishni osonlashtiradi va qaror qabul qilishda aniq tahlillarga tayangan holda harakat qilish imkonini beradi. Shuningdek, AnyLogic agentga asoslangan modelashtirish, tizimli-dinamik yondashuv va diskret hodisalar modeli kabi bir necha modelashtirish usullarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa dasturdan turli sohalarda samarali foydalanish imkonini beradi.



AnyLogic dasturining yana bir muhim afzalligi – dinamik parametrlarni sozlash va model ish jarayonida ularning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatidir. Modellashtirish natijalari statistik usullar yordamida chuqur tahlil qilinib, tizimning turli sharoitlarda qanday ishlashini aniqlash va optimal strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida, tizimning samaradorligini oshirish, resurslarni optimal taqsimlash va ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, AnyLogic dasturida imitatsion modellashtirish real tizimlarning ishlash jarayonlarini batafsil tahlil qilish, ularni vizual tarzda ifodalash va optimal qarorlarni ishlab chiqish uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa turli sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish, logistika, xizmat ko'rsatish va boshqa jarayonlarni optimallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.



Adabiyotlar

1. Tako, A. A., & Robinson, S. (2012). The application of discrete event simulation and system dynamics in the logistics and supply chain context.
2. Günal, M. M., & Pidd, M. (2010). Discrete event simulation for performance modelling in health care: a review of the literature.
3. Brailsford, S. C., & Hilton, N. A. (2001). A comparison of discrete event simulation and system dynamics for modelling healthcare systems.
4. Chowdhury, M. S., & Sadek, A. W. (2012). Fundamentals of Intelligent Transportation Systems Planning.
5. Liu, R., & Chen, Y. (2015). Simulation-based optimization for transportation systems: a review.
6. Banks, J., Carson, J. S., & Nelson, B. L. (2014). Discrete-Event System Simulation.
7. Боев В. Д. Об адекватности систем имитационного моделирования GPSS World и AnyLogic. Часть 2 // Прикладная информатика. № 4 (34). 2011. С. 50-62.
8. Kelton, W. D., Sadowski, R. P., & Zupick, N. B. (2014). Simulation with Arena.
9. Law, A. M. (2015). Simulation Modeling and Analysis.
10. Robinson, S. (2014). Simulation: The Practice of Model Development and Use.
11. Сайт компании разработчика системы имитационного моделирования AnyLogic www.anylogic.ru.



Adabiyotlar

1. Tako, A. A., & Robinson, S. (2012). The application of discrete event simulation and system dynamics in the logistics and supply chain context.
2. Günal, M. M., & Pidd, M. (2010). Discrete event simulation for performance modelling in health care: a review of the literature.
3. Brailsford, S. C., & Hilton, N. A. (2001). A comparison of discrete event simulation and system dynamics for modelling healthcare systems.
4. Chowdhury, M. S., & Sadek, A. W. (2012). Fundamentals of Intelligent Transportation Systems Planning.
5. Liu, R., & Chen, Y. (2015). Simulation-based optimization for transportation systems: a review.
6. Banks, J., Carson, J. S., & Nelson, B. L. (2014). Discrete-Event System Simulation.
7. Боев В. Д. Об адекватности систем имитационного моделирования GPSS World и AnyLogic. Часть 2 // Прикладная информатика. № 4 (34). 2011. С. 50-62.
8. Kelton, W. D., Sadowski, R. P., & Zupick, N. B. (2014). Simulation with Arena.
9. Law, A. M. (2015). Simulation Modeling and Analysis.
10. Robinson, S. (2014). Simulation: The Practice of Model Development and Use.
11. Сайт компании разработчика системы имитационного моделирования AnyLogic www.anylogic.ru.



Mualliflar

Azizbek Raximov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston.

Baxtiyor Akmuradov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; b.u.akmuradov@gmail.com

Mas'ul: b.u.akmuradov@gmail.com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

TELEKOM- MUNIKATSIYA TIZIMLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KONTEKSTGA ASOSLANGAN BO'LAKLI HASHING ALGORITMLARI

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning samaradorligini oshirishga qaratilgan algoritmlar, xususan, kontekstga asoslangan bo'lakli hashing algoritmlarini tadqiq qilish masalasi ko'rib chiqilgan. Bunda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun qo'llanilayotgan algoritmlar, ularning afzalliklari va kamchiliklari batafsil tahlil qilingan. Kontekstga asoslangan bo'lakli hashing algoritmlarining nazariy asoslari va qo'llanilish imkoniyatlari o'rganilgan. tadqiqotning amaliy natijalari sifatida telekommunikatsiya tizimlari uchun ishlab chiqilgan algoritmlar sinovdan o'tkazilib, ularning samaradorligi tajriba natijalariga asoslanib baholangan. Olingan natijalar umumlashtirilib, telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun taklif etilgan algoritmik yondashuvlarning samaradorligi va amaliy qo'llanilishiga oid xulosalar hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: algoritm, axborot xavfsizligini, Data Loss Prevention, Mrsh-v2, kiberxavfsizlik, hashing algoritmlari, Network Segmentation, shifrlash.

himoya qilishga yordam beradi.

Shulardan kelib chiqqan holda ushbu ishda telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning texnik va dasturiy yechimlari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash algoritmlari va texnologiyalari bo'yicha xalqaro tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari hamda erishgan yutuqlari va tavsiyalari o'rganildi.

Ushbu tadqiqot telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning kontekstga asoslangan bo'lakli hashing algoritmlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, soha bo'yicha mavjud ilmiy manbalar va ilg'or tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, F. Breitinger, I. Baggili, J. Beeskow, S. Gumaste, M. Thakare, R. Hiesh, A. Papadogiannakis, D. Antoniadis, Jain-Shing Wu, Chih-Ta Lin, Yuh-Jye Lee va boshqa xalqaro olimlarning tadqiqotlari o'rganilib tahlil qilindi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashning texnik va dasturiy yechimlari

Telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashning texnik yechimlari - bu turli usullar va vositalar orqali tarmoq va axborot tizimlarini himoya qilish, shuningdek, axborotning maxfiyligini, yaxlitligini va mavjudligini ta'minlashga qaratilgan texnik yondashuvlardir. Quydagi texnik yechimlar telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlashda keng qo'llaniladi:

Firewall: Tarmoqda xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan Firewall tarmoq trafikini filtrlaydi, shuningdek, zararli kirishlarni bloklaydi.

Firewall - bu tarmoq xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi qurilma yoki dasturiy ta'minot bo'lib, u tarmoqdagi trafikni nazorat qiladi va ruxsat berilgan yoki ruxsat berilmagan ma'lumotlarni tarmoq orqali o'tkazadi. Asosiy maqsadi - tarmoqni xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish va zararli kirishlarni bloklashdir.

IDS/IPS (Intrusion Detection System / Intrusion Prevention System): Ushbu tizimlar tarmoqdagi noma'lum yoki shubhali faoliyatni aniqlash va to'xtatish uchun ishlatiladi. IDS tizimi tarmoqdagi yoki tizimdagi harakatlarni tahlil qiladi va ushbu harakatlarni normaga qarshi solishtiradi.

VPN (Virtual Private Network): Uzoq masofalardan yoki jamoat tarmoqlaridan xavfsiz ulanishni ta'minlash uchun ishlatiladigan texnologiya bo'lib, ma'lumotlarni shifrlash va tarmoq resurslarini himoya qilishda yordam beradi.

VPN - bu internet orqali ikki yoki undan ortiq tarmoqni xavfsiz va shifrlangan kanal orqali ulash imkonini beruvchi texnologiya. VPN yordamida foydalanuvchi yoki tashkilotlar internetda yoki boshqa tarmoqda xavfsiz aloqalarni amalga oshirishi mumkin. VPN internetda ma'lumotlarni uzatishdan oldin ularni shifrlash va ma'lum bir server orqali o'tkazish orqali tarmoqda yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi.

Telekommunikatsiya tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi asosiy

algoritmlar va texnologiyalar keng qo'llaniladi:

1. *Shifrlash (Encryption) algoritmlari:*

○ *AES (Advanced Encryption Standard)*: Ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlashda asosiy algoritm sifatida ishlatiladi. U yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Advanced Encryption Standard (AES) - bu simmetrik kalitli shifrlash algoritmi bo'lib, axborotni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlash uchun keng qo'llaniladi.

○ *RSA (Rivest-Shamir-Adleman)*: Asimmetrik shifrlash algoritmi bo'lib, ma'lumotlarni yuborishdan oldin ularni himoya qiladi. U ochiq va yopiq kalitlardan foydalanadi. Rivest-Shamir-Adleman (RSA) - bu asimmetrik shifrlash algoritmi bo'lib, kalit juftligi (ochiq va yopiq kalitlar) yordamida ma'lumotlarni shifrlash va autentifikatsiya qilish uchun ishlatiladi[10].

○ *ECC (Elliptic Curve Cryptography)*: Ayniqsa resurslarni cheklangan tizimlar uchun samarali va tez shifrlashni ta'minlaydigan asimmetrik algoritm. Elliptic Curve Cryptography (ECC) - bu asimmetrik kriptografiya usuli bo'lib, elliptik egri chiziqlar matematikasiga asoslangan.

2. *Identifikatsiya va avtorizatsiya algoritmlari:*

○ *OAuth*: Web-ilovalar uchun xavfsiz avtorizatsiya mexanizmi bo'lib, foydalanuvchi ma'lumotlarini boshqarishda foydalaniladi. OAuth (Open Authorization) - bu ochiq standarti bo'lib, uchinchi tomon ilovalarga foydalanuvchi parolini oshkor qilmasdan, himoyalangan resurslarga cheklangan kirish huquqini berish imkonini yaratadi.

○ *SAML (Security Assertion Markup Language)*: Xizmatlarni xavfsiz avtorizatsiya qilish uchun ishlatiladi, ko'pincha federativ tizimlarda qo'llaniladi. SAML (Security Assertion Markup Language) - bu identifikatsiya va autentifikatsiya ma'lumotlarini almashish uchun ishlatiladigan XML-ga asoslangan ochiq standart. SAML foydalanuvchilarga bir marta autentifikatsiya qilgan holda turli xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi Single Sign-On (SSO) mexanizmini qo'llab-quvvatlaydi.

○ *LDAP (Lightweight Directory Access Protocol)*: Tarmoq resurslariga xavfsiz kirishni ta'minlash uchun ishlatiladi, foydalanuvchi va guruhlarini boshqarishda qo'llaniladi. LDAP bu katalog xizmatlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan yengil vaznli protokol. U foydalanuvchilar, qurilmalar, tarmoq resurslari va ruxsatnomalar haqida ma'lumotlarni saqlash va boshqarish uchun ishlatiladi.

3. *Tarmoqni monitoring va tahdidlarni boshqarish:*

○ *IDS/IPS (Intrusion Detection and Prevention Systems)*: Tarmoqdagi tahdidlarga qarshi aniqlash va oldini olish tizimlari. Tarmoqqa kiruvchi zararli faoliyatlarni kuzatish va ularni bloklash uchun ishlatiladi.

○ *SIEM (Security Information and Event Management)*: Tarmoqda yuzaga keladigan xavfsizlik hodisalarini yig'ish, tahlil qilish va boshqarish tizimi. SIEM bu axborot xavfsizligi tizimlarida tahdidlarni aniqlash, tekshirish va ularga javob berish uchun ishlatiladigan dasturiy ta'minot yechimidir.

4. *Tarmoqni bo'lib tashlash (Network Segmentation)*:

○ *VLAN (Virtual Local Area Network)*: Tarmoqni izolyatsiya qilish va turli xatarlar uchun xavfsizlikni oshirish uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, katta tashkilotlarda tarmoqni boshqarishda qo'llaniladi. VLAN bu tarmoq qurilmalarini jismoniy joylashuviga bog'liq bo'lmagan holda mantiqiy guruhlariga ajratish imkonini beruvchi texnologiya.

○ *Firewall*: Tarmoqda tarmoqni himoya qilish uchun ishlatiladigan algoritmlar va texnologiyalar, ular paketlarni filtrlaydi va tarmoqda o'tishni nazorat qiladi. Firewall bu tarmoq xavfsizligini ta'minlash uchun ishlatiladigan filtrlash mexanizmi bo'lib, kiruvchi va chiquvchi trafikni nazorat qiladi.

5. *DLP (Data Loss Prevention) Algoritmлари*:

○ *Content Inspection*: Tarmoq orqali o'tayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va maxfiy ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun ishlatiladigan algoritmlar.

○ *Policy-based DLP*: Maxfiy ma'lumotlarga kirish huquqlarini boshqarish va xususiy ma'lumotlarning yo'qolishining oldini olish.

6. *TLS/SSL (Transport Layer Security/Secure Sockets Layer)*:

✓ *SSL/TLS*: Internetda xavfsiz ma'lumot uzatishni ta'minlashda qo'llaniladigan protokollar, ular transport qatlamida ma'lumotlarni shifrlashni ta'minlaydi. SSL (Secure Sockets Layer) va TLS (Transport Layer Security) - bu internet orqali xavfsiz ma'lumot almashinuvini ta'minlaydigan kriptografik protokollar.

✓ *SSL* - 1990-yillarda ishlab chiqilgan va eski versiyalari (SSL 2.0 va SSL 3.0) bugungi kunda eskirgan deb hisoblanadi.

✓ *TLS* - SSL'ning yangilangan va xavfsizroq versiyasidir. Hozirda TLS 1.2 va TLS 1.3 keng qo'llaniladi. TLS - bu SSL'ning rivojlangan va xavfsiz versiyasi bo'lib, u internetda shifrlangan va xavfsiz ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.

7. *Hashing algoritmлари*:

○ *SHA (Secure Hash Algorithm)*: Ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash uchun ishlatiladi, ayniqsa, parol saqlash va autentifikatsiya jarayonlarida qo'llaniladi. SHA bu ma'lumotlarni kriptografik xesh qilish uchun ishlatiladigan xavfsiz algoritmlar oilasi bo'lib, u ma'lumotlardan o'ziga xos xesh (hash) qiymatini yaratadi.

8. *Xavfsizlikni tekshirish va ruxsatnoma boshqaruvi:*

o *RBAC (Role-Based Access Control):* Tarmoqdagi foydalanuvchilarga ma'lum huquqlarni berish uchun ishlatiladi. Bu tizim foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va xavfsizlikni boshqarishda yordam beradi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashda mazmunni tekshirish algoritmlari

Data Loss Prevention - bu korxonalar va tashkilotlarda ma'lumotlarning yo'qolishi, o'g'irlanishi yoki ruxsatsiz foydalanilishini oldini olish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar, jarayonlar va siyosatlar majmuasi. DLP tizimlari tashkilotning maxfiy ma'lumotlarini, intellektual mulklarini va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan.

Data Loss Prevention ya'ni yo'qotishlarning oldini olish algoritmlarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- *Policy-based DLP:* Maxfiy ma'lumotlarga kirish huquqlarini boshqarish va xususiy ma'lumotlarning yo'qolishining oldini olish. Policy-based DLP (Siyosatga asoslangan DLP) - bu tashkilotda ma'lumotlarni himoya qilish siyosatlariga asoslangan DLP tizimidir. Ushbu yondashuvda xavfsizlik siyosatlari va qoidalar tashkilotning maxfiy ma'lumotlarini qanday boshqarish, kimga ruxsat berish va ma'lumotlarni qaysi sharoitlarda uzatish mumkinligini belgilaydi.


- *Content Inspection:* Tarmoq orqali o'tayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va maxfiy ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun ishlatiladigan algoritmlar. Content Inspection (Mazmunni tekshirish algoritmlari) - axborotni yo'qotishning oldini olish tizimlarining muhim qismidir. Ushbu algoritmlar ma'lumot oqimlari, fayllar va kommunikatsiyalarni tahlil qilib, noxosil foydalanish yoki siyosat buzilishlarini aniqlashga mo'ljallangan[12].

Mazmunni tekshirish - bu faqat metadata yoki tashqi xususiyatlarga emas, balki ma'lumotlarning o'ziga tahlil o'tkazishdir. Ushbu algoritmlar hujjatlar, elektron pochta xabarlar yoki ma'lumot paketlaridagi haqiqiy mazmunni chuqur o'rganib, oldindan belgilangan siyosatlarga zid axborotni aniqlaydi. Mazmunni tekshirish algoritmlari xususiyatlariga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi, ular orasida eng keng tarqalgan texnologiyalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- paketlarni chuqur tekshirish (Deep Packet Inspection, DPI);
- andoza aniqlash (Pattern Recognition);
- evriluvchan tahlil (Heuristic Analysis);
- tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP);
- Fayllar izini aniqlash (File Fingerprinting).

Deep Packet Inspection (DPI) internet orqali yuborilayotgan paketlarni chuqur tahlil qilish uchun qo'llaniladigan texnologiyadir. Internet orqali amalga oshirilayotgan barcha aloqa jarayonlari ma'lumotlarni uzatish uchun "paketlar"dan foydalanadi. Bu jarayon VoIP qo'ng'iroqlarimiz, tashrif buyurayotgan veb-sahifalarimiz va yuborayotgan elektron pochta xabarlarimizni o'z ichiga oladi.

Pattern Recognition (shablonlarni tanish) - bu kompyuter ilm-fani va sun'iy intellekt sohasida keng qo'llaniladigan texnologiya bo'lib, u ma'lumotlar to'plamlaridan shablonlar yoki qoidalarni aniqlashni nazarda tutadi. Shablonlarni tanish tizimlari ma'lum bir xususiyatlarga yoki parametrlar to'plamiga asoslangan holda ma'lumotlarni tahlil qiladi va ularning ichidan o'xshashliklarni aniqlaydi. Bu tizimlar ko'pincha tasvirlar, ovozlar, matnlar va boshqa murakkab ma'lumotlar shakllarini qayta ishlashda ishlatiladi.



1-rasm. Shablonni tekshirish tizimlarining umumiy arxitekturas

Heuristic tahlil kiberxavfsizlik va antivirus protokollarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, asosan zararli dasturlar kabi jiddiy xavf-xatarlarga qarshi kurashish va ularni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Bu usul yangi viruslar yoki hozirgi kunda tanilgan viruslarning varianti turlarini aniqlashda an'anaviy usullardan chetga chiqadi. Bu xavfsizlik dasturlariga qurilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan noma'lum yoki xavfli faoliyatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ilgari ko'rish imkonini beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) - kompyuterlarni insonlarning tabiiy tili bilan ishlashga o'rgatish uchun yaratilgan texnologiyalar va metodlar to'plamidir. Bu soha, kompyuterlar va insonlar o'rtasida tilni avtomatik tarzda tushunish va ishlashni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Fayl Fingerprinting (Fayl izini olish) - bu faylni unikal tarzda identifikatsiya qilish usuli bo'lib, ma'lumotlar bazasidagi yoki tizimdagi fayllar orasida farqlash va ularga alohida e'tibor qaratish imkoniyatini beradi. Bu jarayon, asosan, faylni boshqalardan ajratib turadigan raqamli izni yaratishga asoslanadi. Faylning izini olish jarayonida uning tarkibi, xususiyatlari yoki boshqa identifikatsiyalovchi belgilariga asoslanib unikal raqamli identifikator hosil qilinadi.

Ma'lumotlar yo'qotilishining oldini olish tizimi arxitekturas

Axborot yo'qolishi, ma'lumotlarning sizib chiqishi, ma'lumot o'g'irlanishi yoki hatto ma'lumot - dunyoning qaysi burchagida bo'lishingizdan qat'i nazar tashkilotdan axborotning yo'qolishini ifodalovchi atamalar mavjud. Dunyo bo'ylab katta va kichik tashkilotlar o'z ma'lumotlarini himoya qilish zarur. Buning sababi faqatgina axborot yo'qolishi emas, balki bu holat qonunchilik, milliy jarimalar va hatto obro'ga zarar yetkazishi mumkinligi bilan ham bog'liq.

DLP yechimlari ko'p yillar davomida qo'llanilib kelinmoqda, hatto ularning qo'llanilishi endi kichik tashkilotlarga ham yetib borgan. Yangi texnologiyalarni an'anaviy DLP metodologiyalari bilan birlashtirish orqali hatto eng kichik biznes ham arzon narxda amalga oshirish oson bo'lgan zamonaviy va murakkab yechimdan foydalanishi mumkin.

Symantec Data Loss Prevention modullari va komponentlari taklif qilingan umumiy DLP arxitekturasiga osonlik bilan moslashtirilishi mumkin:

1. *Data in Motion (Harakatdagi ma'lumotlar)* Symantec DLP modullari:

- *DLP for Network*: Bu modul tarmoq orqali ma'lumotlar oqimini nazorat qiladi va harakatdagi ma'lumotlarni aniqlash, bloklash yoki ogohlantirish kabi choralar ko'radi. Tarmoq orqali o'tadigan ma'lumotlarni, jumladan, elektron pochta, veb-pochta va boshqa Internet protokollarini tekshiradi.

2. *Data at Rest (Saqlangan ma'lumotlar)* Symantec DLP modullari:

- *DLP for Storage*: Bu komponent endpointlar, fayl serverlari, veb-portallar va ma'lumotlar bazalari kabi saqlash qurilmalaridagi ma'lumotlarni tekshiradi.

3. *Data in Use (Foydalanishdagi ma'lumotlar)* Symantec DLP modullari:

4. *DLP for Endpoint*: Bu modul foydalanuvchi qurilmalarida ma'lumotlar oqimini nazorat qiladi. Ushbu modul ma'lumotlarni bloklash, shifrlash, ogohlantirish, karantinlash yoki boshqa xavfsizlik choralarini ko'radi.

5. *Ma'lumotlarni Boshqarish va Tahlil qilish* Symantec DLP modullari:


- *DLP Management Server*: Bu markazlashtirilgan boshqaruv serveri siyosatlar yaratish va ularni boshqa DLP serverlariga yuborish, voqealarni va ish jarayonlarini boshqarish, xabarlarini yig'ish va hisobotlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. U boshqa uchinchi tomon tizimlari, masalan, Active Directory yoki SIEM bilan integratsiya qilinishi mumkin.

6. *Ma'lumotlarning tarmoq orqali nazorati* Symantec DLP modullari:

- *DLP for Web*: Ushbu modul veb-aloqalarni nazorat qilish va ma'lumotlarni tarmoq orqali chiqishini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu tizim ICAP protokoli yordamida DLP serveri bilan integratsiyalashadi va web-traffikni tahlil qiladi.

Symantec DLP yechimi, arxitekturaning har bir qismiga mos ravishda, tashkilotlarga ma'lumotlarning holatini kuzatib borish va xavfsizlik choralarini joriy qilish imkoniyatini beradi. Boshqaruv konsoli orqali barcha modullarni bir joyda boshqarish va tahlil qilish mumkin.

Semantik Data Loss Prevention modullari va komponentlari taklif qilingan umumiy Data Loss Prevention arxitekturasiga osonlik bilan moslashtirilishi mumkin:



2-rasm. Semantik ma'lumotlar yo'qotilishining oldini olish tizimining tavsiya etilayotgan arxitekturas

Ushbu arxitektura yordamida ma'lumotlarning foydalanish holatini Symantec DLP Endpoint Discover va Protect komponentalarini joylashtirish orqali ta'minlaymiz. Saqlangan ma'lumotlar Symantec DLP Network Discover va Protect komponentalari orqali ta'minlanadi. Harakatdagi ma'lumotlar uchun esa Symantec DLP Network Monitor port-span yoki tarmoq tap orqali tarmoq bilan integratsiya qilinadi.

DLP Agentlarni o'rnatish va konfiguratsiyalarini sozlash

Symantec Data Loss Prevention turli usullarda amalga oshirilishi mumkin. Bu amalga oshirish turlari "O'rnatish darajalari" deb ataladi. O'rnatish darajalari uchta turga bo'linadi:

- *Bitta daraja (Single Tier)*: DLP Enforce Server (Boshqaruv serveri), Oracle Database va har qanday aniqlash serveri. Bitta daraja faqat laboratoriya va sinov muhitlarida qo'llaniladi.
- *Ikki daraja (Two Tier)*: DLP Enforce Server va Oracle Database bir xil serverda o'rnatiladi. Aniqlash serverlari esa alohida serverlarga o'rnatiladi.
- *Uch daraja (Three Tier)*: DLP Enforce Server, Oracle Database va Detection Servers alohida serverlarga o'rnatiladi.

Test muhiti uchta virtual mashinadan foydalanadi. Birinchi virtual mashina DLP Single Tier

Server boʻlib, Enforce Server, Oracle Database va Detection Serverlarni joylashtiradi. Ikkinchi serverda Active Directory va boshqa xizmatlar, masalan, DNS, DHCP va File Server rollari joylashadi. Uchinchi esa Windows 10 ish stoli tizimi oʻrnatilgan foydalanuvchi ish stoli mashinasini ifodalaydi. Quyida har bir virtual mashinaning spetsifikatsiyalari keltirilgan.

1-jadval. Virtual mashinalar spetsifikatsiyalari.

VM	CPU	RAM	Disk	Operating System
VM 1	8 cores	64 GB	3 TB	Win Ser 2016
VM 2	4 cores	16 GB	500 GB	Win Ser 2016
VM 3	1 core	4 GB	256 GB	Win 10

Axborot xavfsizligini taʼminlashda kontekstga asoslangan boʻlakli hashing algoritmllari

Yakuniy ishlov berish va dasturlarni tahlil qilishda taxminiy moslashtirish usullaridan foydalanish koʻpincha zararli dasturlarni yoki bajariluvchi fayllarni tahlil qilish sohasida koʻrib chiqiladi. Soʻnggi tadqiqotlardan bajariluvchi fayllarning oʻxshashligini oʻlchash masalasida keng tarqalgan *fuzzy hashing* usullari sezilarli kamchiliklarga ega ekanligini koʻrish mumkin[3].

Xususan, kontekstga asoslangan boʻlakli hashing (*Context-Triggered Piecewise Hashing*) yondashuvi bajariluvchi fayllarni taqqoslash uchun yetarli darajada ishonchli emas deyishimizga asos bor. Chunki hatto zararsiz oʻzgarishlar ham dastlabki faylning bayt darajasidagi qiymatiga katta taʼsir koʻrsatadi. Oʻzgarishlar zararsiz yoki zararli dasturiy koddagi oʻzgarishlar turli kompilyatorlar yoki oʻzgartirilgan kompilyator sozlamalari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Statistik jihatdan kam uchraydigan xususiyatlarni chiqarib olishga asoslangan yondashuvlar yoki *n-gramma* gistogrammalari kompilyatsiya sozlamalari va dasturiy koddagi oʻzgarishlarga qarab farqlanuvchi bajariluvchi fayllarni aniqlashda yaxshiroq natijalar koʻrsatmoqda[4].

7. Yoqubov M.S., Uzoqov B.M., Mahsulot sifati ko'rsatkichlari bo'yicha tezkor boshqaruv ostida neftni qayta ishlash jarayonlarini modellashtirish. // Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filialining "Al-Farg'oniylar avlodlari" elektron ilmiy jurnali. ISSN 2181 -4252 jild: 1 |Iss: 1 | 2023 yil.
8. Uzoqov B.M Neftni qayta ishlash korxonalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish faoliyati // Yevropa iqtisodiyot, moliya va biznesni rivojlantirish jurnali ISSN (E): 2938-3633 2-jild, 5-son, may - 2024 yil
9. M. Yoqubov , B.M. Uzoqov Modellashtirish jarayonlar neftni qayta ishlash da operativ boshqaruv tomonidan ko'rsatkichlar sifat mahsulotlar // Ilmiy- texnik jurnal (STJ FerPI, FarPI ITZH , NTZH FerPI , 2023 yil, T.27 . maxsus soni 2) (40-46 betlar)
10. Uzakov B.M Neft maxsulotlarini ekstraksiyalash jarayonlarini modellashtirish va boshqarish usullarini tahlili./ materiallar. Farg'ona 4-5-may 2023 yil. (459-462 betlar)
11. Yakubov M.S, Uzakov B.M, Xoshimov B.M, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi uchun avtomatlashtirilgan matematik modeli va algoritmlash jadvalini hisoblash vazifalari// Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Al-Farg'ona filiali. avlodlari" elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252 Jild: 1 | O'g'li: 2 | 2024 yil
12. Uzakov B.M. Neftni qayta ishlash jarayonini boshqarish IS tuzatish // Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Al-Farg'oniylar avlodlari" elektron ilmiy jurnali SN 2181-4252 Tom: 1 | O'g'li: 2 | 2024 yil
13. Uzakov BM Neft ishlab chiqarishni ekstraksiyalash jarayoni modellashtirish va boshqarish usullarini tahlili // Muhammad Al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Universiteti Farg'ona filiali Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda rejalashtirish texnologiya Ularning o'rni: muammolar va innovatsion yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami 3-qism (556-558 betlar)



Mualliflar

Elmurod Urinov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, “University of management and future technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston; u.elmurod1988@gmail.com

Muhriddin Qulmatov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, “University of management and future technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston.

Mas’ul: u.elmurod1988@gmail.com

O‘ZBEK TILIDAGI MATNLARNI MORFOLOGIK TOKENLASH MASALASI VA YECHIMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek tilidagi matnlarni morfologik tokenlash masalalarini o‘rganish va samarali yechimlar taklif qilishga bag‘ishlangan. O‘zbek tili kabi agglutinatív tillarda tokenlash jarayonining murakkabliklari tahlil qilinib, WordPiece algoritmi asosida ishlaydigan subword tokenlash yondashuvi taklif etildi. Tadqiqotda 80,000 jumalak kórpúsdan foydalanilib, algoritmníng samaradorligi aniqlík, to‘liqlík va F1-skóri mezonlari asosida baholandi. Natijalar WordPiece algoritmining o‘zbek tilida tokenlashda 90.5% F1-skór kórsatganini tasdiqladi, bu esa an’anaviy usullardan sezilarli darajada yuqori natíja ekanligini kórsatdi. Tadqiqot o‘zbek tilini raqamlashtirish va NLP ilovalarini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Morfologik tokenlash, WordPiece algoritmi, subword tokenlash, agglutinatív tillar, tabiiy tilni qayta ishlash, so‘zlarni normallashtirish, lug‘at.



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

Tokenlash bo'yicha dastlabki ishlar asosan flektiv tillar, xususan, ingliz tiliga qaratilgan bo'lib, bo'shliqqa asoslangan oddiy tokenlash usullari (whitespace tokenization) keng qo'llanilgan. Masalan, Manning va Schütze [1] o'zlarining "Foundations of Statistical Natural Language Processing" kitobida statistik tokenlash usullarini taklif qilib, so'z chastotalariga asoslangan tokenlashning samaradorligini ko'rsatgan. Biroq, bu usullar agglutinatив tillar, xususan, o'zbek tili kabi morfologik jihatdan murakkab tillarga moslashmaganligi tufayli cheklovlarga ega. Agglutinatив tillar bo'yicha tokenlash masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar turk, fin va vengriya tillariga qaratilgan. Turk tili bo'yicha Oflazer [2] tomonidan ishlab chiqilgan morfologik analizator tokenlashda qoidaga asoslangan yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi. Ushbu tizim turk tilining qo'shimchalar tuzilishini aniqlash uchun qoidalar ro'yxatidan foydalanib, so'zlarni ildiz va qo'shimchalarga ajratdi. Shu bilan birga, bu usul qo'lda qoidalar yozishni talab qilishi tufayli dialektlar va imlo xatolarini qamrab ololmaydi. Fin tili bo'yicha Koskeniemi [3] tomonidan ishlab chiqilgan ikki darajali morfologik tahlil (Two-Level Morphology) modeli agglutinatив tillar uchun tokenlashda muhim yutuq bo'ldi. Ushbu model qoidaga asoslangan tahlilni avtomatlashtirishga imkon berdi, lekin katta hajmdagi qoidalar va resurslar talab qilishi tufayli o'zbek tili kabi resurslari cheklangan tillarga moslashishi qiyin.

O'zbek tili bo'yicha tokenlash masalasi bo'yicha tadqiqotlar nisbatan kam bo'lib, bu sohada olib borilgan ishlar asosan umumiy morfologik tahlilga qaratilgan. Masalan, Abdullaev va Xudoyberdiev [4] o'zlarining "O'zbek tilida morfologik tahlilning zamonaviy usullari" maqolasida o'zbek tilining qo'shimchalar tuzilishini tahlil qilib, qoidaga asoslangan tizimni taklif qilgan. Ularning tizimi "kitoblarimda" kabi so'zlarni ildiz va qo'shimchalarga ajratishda 75% aniqlikka erishgan, ammo dialektlar va imlo xatolarini hisobga olmagan. Shu bilan birga, Matlatipov va Vetrov [5] tomonidan o'zbek tili uchun statistik tokenlash usullari bo'yicha olib borilgan tadqiqotda Hidden Markov Models (HMM) qo'llanilgan. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilidagi 10,000 jumalalik kichik korpusdan foydalanilgan, lekin etiketlangan ma'lumotlarning cheklanganligi tufayli aniqlik 65% dan oshmagan.

Zamonaviy NLP tadqiqotlarida subword tokenlash usullari (WordPiece, Byte-Pair Encoding – BPE) keng qo'llanmoqda. [6] da mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan BERT modeli subword tokenlashdan foydalangan holda tokenlashda yuqori natijalarga erishdi. Shu bilan birga, BERT modeli asosan ingliz tili kabi resurslari ko'p tillar uchun moslashtirilgan bo'lib, o'zbek tili uchun qo'shimcha o'qitish va moslashtirishni talab qiladi. Turk tili bo'yicha ishlab chiqilgan BERT-Turkish modeli [7] agglutinatив tillar uchun tokenlashda muvaffaqiyatli natija ko'rsatgan bo'lsa-da, o'zbek tili uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi dialektlar va leksik farqlar tufayli qiyinchiliklarga duch keladi. O'zbek tili bo'yicha tokenlashda mashinaviy o'qitishga asoslangan yondashuvlar bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati kichik hajmdagi korpuslar bilan cheklangan. Masalan, Yusupov va Qodirov (2021) o'zbek tilida ijtimoiy tarmoq matnlari uchun tokenlash algoritmini taklif qilib, normalizatsiya qatlamini qo'shgan. Ularning algoritmi "nma" kabi qisqartmalarni "nima" shakliga keltirishda 80% aniqlikka erishgan, ammo morfologik tahlil qilishda cheklovlarga ega bo'lgan. Shu bilan birga, o'zbek tili uchun ochiq manbalarga asoslangan tokenlash vositalari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning ko'pi umumiy morfologik tahlil bilan cheklangan va



kontekstli tokenlashni qo'llab-quvvatlamaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tahlil qilib, o'zbek tilida tokenlash bo'yicha yechimini topish zarur bo'lgan bir qator muammolar mavjud ekanligini namoyon etadi. Birinchi navbatda, mavjud usullar o'zbek tilining dialektlari va imlo xilma-xilligini to'liq qamrab ololmaydi. Ikkinchidan, belgilangan matn korpuslarning cheklanganligi tufayli mashinaviy o'qitishga asoslangan usullarning samaradorligi past bo'lib qolmoqda. Uchinchidan, kontekstli tahlil qilish imkoniyati cheklangan bo'lib, bu jumlada so'zlarning sintaktik rollarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu tadqiqot mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, qoidaga asoslangan va mashinaviy o'qitish usullarini birlashtirgan gibril algoritmi taklif qiladi. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, u o'zbek tilining morfologik xususiyatlarini, dialektlarini va imlo xilma-xilligini hisobga olgan holda, kontekstli tokenlash imkoniyatini ta'minlaydi va kichik hajmdagi korpuslar bilan samarali ishlashga qodir.

Masalaning qo'yilishi.

O'zbek tili kabi agglutinatitv tillarda tokenlash jarayoni NLP sohasida muhim muammolardan biridir. Tokenlash matnni kichik ma'noli birliklarga (tokenlarga) ajratishni anglatadi va bu jarayon NLP ilovalari, masalan, mashinaviy tarjima, matn tasnifi va chatbot tizimlari uchun asosiy bosqich hisoblanadi. O'zbek tilining morfologik xususiyatlari – ya'ni, so'zlarning qo'shimchalar yordamida murakkab shakllarga aylanishi – tokenlashni an'anaviy usullar bilan amalga oshirishda katta to'siqlar keltirib chiqaradi. Masalan, "o'qituvchilarimga" o'xshash bir so'z "o'qituvchi" (ildiz), "-lar" (ko'plik), "-im" (egallik) va "-ga" (yo'nash) qismlaridan iborat bo'lib, oddiy bo'shliqqa asoslangan tokenlash usullari ushbu qismlarni to'g'ri ajratishga qodir emas. Bu holat so'zning semantik va sintaktik tuzilishini yo'qotishga olib keladi, natijada keyingi tahlil bosqichlarida xatolar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida tokenlash jarayonida qo'shimcha muammolar mavjud. Birinchi navbatda, hududiy dialektlar (masalan, "qilayapman" – standart shakl, "qoryapman" – Xorazm dialekti) va imlo xatolari (masalan, "nma" – "nima") tokenlashda noaniqliklarga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, o'zbek tilida belgilangan matnli korpuslarning yetarli emasligi zamonaviy tokenlash usullari, masalan, mashinaviy o'qitishga asoslangan algoritmlarni qo'llashni qiyinlashtiradi. Uchinchidan, qisqartmalar ("ok" – "yaxshi") va punktuatsiya belgilari bilan bog'liq muammolar tokenlash jarayonida qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirilgan muammolar o'zbek tilida NLP texnologiyalarini rivojlantirishda sezilarli to'siqlar yaratadi. Mavjud tokenlash usullari – qoidaga asoslangan, statistik yoki subword tokenlash usullari – o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi va ko'pincha past aniqlik ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda quyidagi asosiy muammo qo'yiladi: o'zbek tilining morfologik tuzilishi, dialektlari va resurs cheklovlarini hisobga olgan holda, tokenlash jarayonini yuqori aniqlik va moslashuvchanlik bilan amalga oshiruvchi samarali algoritmi ishlab chiqish. Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilida tokenlashning dolzarb muammolarini aniqlash, mavjud usullarni tahlil qilish va yangi gibril yondashuvni taklif qilish orqali ushbu muammoni hal qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot o'zbek tilida morfologik tokenlash muammolarini hal qilish maqsadida gibriddan iborat algoritm ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot eksperimental yondashuvga asoslanib, taklif etilgan algoritm real ma'lumotlar to'plami bilan sinovdan o'tkazildi va natijalari mavjud usullar bilan taqqoslandi. Ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni aniqlash, yechimlar ishlab chiqish, tajriba o'tkazish va natijalarni statistik o'lchovlar yordamida baholash bosqichlari amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tokenlash jarayonini takomillashtirish va uning tabiiy tilni qayta ishlash ilovalarida samarali qo'llanilishini ta'minlashdan iborat.

Tadqiqotda foydalanish uchun o'zbek tilidagi matnlardan iborat maxsus ma'lumotlar to'plami tuzildi. Ushbu to'plamni tuzish jarayonida o'zbek tilidagi turli internet sahifalari, jumladan, o'zbekcha wikipedia maqolalari, yangiliklar saytlari hamda dialektlar va imlo xatolarini ham o'z ichiga olgan ijtimoiy tarmoq postlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar to'plami turli xillik, tozalik va yetarli hajm talablariga javob beradigan tarzda tayyorlandi.

Tadqiqotda qoidaga asoslangan morfologik tahlil, subword tokenlash va mashinaviy o'qitish usullarini birlashtirgan gibriddan iborat algoritm ishlab chiqildi. Dastlab, o'zbek tilining grammatik qoidalariga asoslanib so'zlar ildiz va qo'shimchalarga ajratildi. Keyinchalik, WordPiece algoritmi o'zbek tilidagi matnlar bilan qayta o'qitilib, so'z qismlarini aniqlashda qo'llanildi (masalan, "suhbatlarim" → "suhbat", "##lar", "##im"). Shu bilan birga, o'zbek tiliga xos muammolar – dialektlar va imlo xatolarini bartaraf etish uchun qo'shimcha normalizatsiya qatlami joriy qilingan. Natijada, bu usul o'zbek tilining murakkab tuzilishini inobatga olib, tokenlash jarayonini yaxshilagan.

Taklif etilayotgan algoritm

O'zbek tilida morfologik tokenlash masalalarini hal qilish uchun ushbu tadqiqotda Subword tokenlash algoritmi sifatida WordPiece texnologiyasi asosida ishlaydigan yondashuv taklif etiladi. WordPiece algoritmi zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash modellarida keng qo'llaniladigan usul bo'lib, so'zlarni kichikroq ma'noli qismlarga (subword units) ajratish orqali tilning morfologik murakkabliklarini boshqarish imkonini beradi [8, 11]. Ushbu algoritm o'zbek tili kabi agglutinativ tillar uchun ayniqsa samarali bo'lib, so'zlarning qo'shimchalar orqali hosil qilinishi xususiyatini hisobga oladi. Quyida algoritmning ishlash jarayoni va matematik apparati batafsil tasvirlanadi.

WordPiece algoritmi chastota asosida subword tokenlarni tanlash printsipiga asoslanadi va bir nechta bosqichlardan iboratdir. Ushbu jarayon Schuster va Nakajima [9] tomonidan taklif qilingan asl algoritmga asoslanadi va o'zbek tilining xususiyatlariga moslashtirilgan holda qo'llaniladi.

Dastlab, algoritm berilgan matnli korpusdan foydalanib, dastlabki lug'atni shakllantiradi. Korpusdagi barcha so'zlar $W = \{w_1, w_2, \dots, w_n\}$ sifatida belgilanadi, bu yerda w_i – korpusdagi i -chi so'z. Har bir so'z alohida harflarga bo'linadi, masalan, "kitoblar" so'zi $w_i = \{k, i, t, o, b, l, a, r, i, m\}$ shaklida ifodalanadi. Shu asosda dastlabki lug'at V quyidagi tarzda tuziladi:

$$V = \bigcup_{w \in W} \{c | c \in W\}$$

bu yerda c – soʻzning har bir harfi. Quyida lugʻat tuzish jarayonini ifoda etuvchi psevdokod keltirilgan:

Funksiya: SoʻzniTokenlash(Soʻz, Lugʻat)

// 1. Normalizatsiya (masalan, dialektlarni tuzatish)

$Soʻz \leftarrow Normalizatsiya(Soʻz)$

// 2. Greedy yondashuv bilan tokenlash

$Tokenlar \leftarrow BoʻshRoʻyxat$

$QolganSoʻz \leftarrow Soʻz$

While QolganSoʻz boʻsh emas:

// 2.1. Eng uzun mos keluvchi prefiksni topish

$EngUzunPrefiks \leftarrow None$

$EngUzunUzunlik \leftarrow 0$

Har bir token uchun Lugʻat ichida:

Agar token QolganSoʻzning prefiksi boʻlsa:

Agar $uzunlik(token) > EngUzunUzunlik$:

$EngUzunPrefiks \leftarrow token$

$EngUzunUzunlik \leftarrow uzunlik(token)$

// 2.2. Prefiks topilmasa, nomaʼlum token ishlatiladi

Agar $EngUzunPrefiks$ yoʻq boʻlsa:

$Tokenlar \leftarrow Tokenlar + ["[UNK]"]$

Break

// 2.3. Topilgan prefiksni qoʻshish va qolgan qismni yangilash

$Tokenlar \leftarrow Tokenlar + [EngUzunPrefiks]$

$QolganSo'z \leftarrow QolganSo'z[uzunlik(EngUzunPrefiks):]$

Return Tokenlar

Keyingi bosqichda korpusdagi qo'shni tokenlar juftliklari (bigramlar) aniqlanadi va ularning chastotasi hisoblanadi. Har bir so'z ichida ketma-ket kelgan tokenlar juftlik sifatida qaraladi, masalan, "kitoblar" so'zi uchun juftliklar $(k, i), (i, t), (t, o), (o, b), (b, l), (l, a), (a, r)$ haklida hosil qilinadi. Har bir juftlikning chastotasi $f(t_1, t_2)$ sifatida hisoblanadi, bu yerda t_1 va t_2 – qo'shni tokenlar.

Har bir iteratsiyada eng yuqori chastotaga ega juftlik tanlanadi va yangi token sifatida lug'atga qo'shiladi. Eng ko'p uchraydigan juftlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$(t_1, t_2)_{max} = \arg \max_{(t_1, t_2)} f(t_1, t_2)$$

Tanlangan juftlik birlashtirilib, lug'atga qo'shiladi:

$$V \leftarrow V \cup \{t_1, t_2\}$$

Yakuniy lug'at tayyor bo'lgach, yangi matn tokenlash uchun lokal optimal algoritmi asosida berilgan w so'z uchun lug'atda mavjud eng uzun mos keluvchi prefiks aniqlanadi:

$$t_k = \arg \max_{t \in V} \{len(t) | w \text{ ning prefiksi}\}$$

bu yerda t_k – so'zning boshidan eng uzun mos keluvchi token, $len(t)$ – tokenning uzunligi. So'zning qolgan qismi uchun jarayon takrorlanadi. Agar so'zning biron qismi lug'atda topilmasa, maxsus "UNK" tokeni ishlatiladi. Masalan, agar lug'at $V = \{o'qituvchi, \#\text{lar}, \#\text{im}, \#\text{ga}\}$ bo'lsa, "o'qituvchilarimga" so'zi quyidagicha tokenlashadi: birinchi prefiks sifatida "o'qituvchi" tanlanadi, qolgan qism "larimga" uchun " $\#\text{lar}$ ", so'ng " $\#\text{im}$ " va " $\#\text{ga}$ " tokenlari aniqlanadi. Natija: [o'qituvchi, $\#\text{lar}$, $\#\text{im}$, $\#\text{ga}$]. Quyida algoritmnin ikkinchi bosqichi bajarilish jarayoni ifodalangan:

Funksiya: So'zniTokenlash(So'z, Lug'at)

// 1. Normalizatsiya (masalan, dialektlarni tuzatish)

$So'z \leftarrow Normalizatsiya(So'z)$

// 2. Greedy yondashuv bilan tokenlash

$Tokenlar \leftarrow Bo'shRo'yxat$

$QolganSo'z \leftarrow So'z$

While QolganSo'z bo'sh emas:

// 2.1. Eng uzun mos keluvchi prefiksni topish

EngUzunPrefiks $\leftarrow$ None

EngUzunUzunlik $\leftarrow$ 0

Har bir token uchun Lug'at ichida:

Agar token QolganSo'zning prefiksi bo'lsa:

Agar uzunlik(token) > EngUzunUzunlik:

EngUzunPrefiks $\leftarrow$ token

EngUzunUzunlik $\leftarrow$ uzunlik(token)

// 2.2. Prefiks topilmasa, noma'lum token ishlatiladi

Agar EngUzunPrefiks yo'q bo'lsa:

Tokenlar $\leftarrow$ Tokenlar + ["[UNK]"]

Break

// 2.3. Topilgan prefiksni qo'shish va qolgan qismni yangilash

Tokenlar $\leftarrow$ Tokenlar + [EngUzunPrefiks]

QolganSo'z $\leftarrow$ QolganSo'z[uzunlik(EngUzunPrefiks):]

Return Tokenlar

O'zbek tilining morfologik xususiyatlarini hisobga olish uchun algoritmgga qo'shimcha moslashtirishlar kiritildi. O'zbek tilida qo'shimchalar (masalan, "-lar", "-im", "-ga") keng tarqalgan bo'lib, ularning chastotasi alohida hisoblandi. Bu jarayon qo'shimchalarni subword token sifatida aniqlashni osonlashtirdi. Shuningdek, dialektlar va imlo xatolarini tuzatish uchun normallashtirish qatlami qo'llanildi. Normallashtirish jarayonida so'z shakllarini moslashtirish uchun ehtimollik modeli ishlatildi:

$$P(w_{norm}|w) = \frac{f(w_{norm})}{\sum_{w' \in W} f(w')}$$

bu yerda w_{norm} – normallashtirilgan so'z shakli, $f(w_{norm})$ – uning korpusdagi chastotasi. Masalan, "qoryapman" so'zi "qilayapman" shakliga keltirildi. Quyida algoritmnin normallashtirish bosqichi bajarilish jarayoni ifodalangan:

Funksiya: Normalizatsiya(So'z)

**// Dialektlarni va imlo xatolarini tuzatish**

Agar Soʻz “qoryapman” boʻlsa:

Soʻz $\leftarrow$ “qilayapman”

Yoki Agar Soʻz “nma” boʻlsa:

Soʻz $\leftarrow$ “nima”

// Qoʻshimcha normalizatsiya qoidalari qoʻllaniladi

Return Soʻz

Natijalar

Ushbu boʻlimda taklif etilgan WordPiece algoritmining oʻzbek tilida morfologik tokenlashdagi samaradorligini baholash maqsadida oʻtkazilgan tajribalar va ularning natijalari taqdim etiladi. Tajribalar oʻzbek tilidagi turli xil matnlar toʻplamida amalga oshirildi va algoritmnining aniqligi, toʻliqligi va umumiy samaradorligi oʻlchandi. Natijalar mavjud tokenlash usullari bilan taqqoslanib, algoritmnining afzalliklari va cheklovlari aniqlandi.

Tajribalar uchun oʻzbek tilidagi matnlardan iborat maxsus korpus tuzildi. Korpus quyidagi manbalardan yigʻildi: Oʻzbekcha Wikipedia maqolalari (200,000 soʻz), kun.uz va daryo.uz kabi yangiliklar saytlaridan olingan 50,000 jumalalik matn, shuningdek, Telegram va Facebookʻdan yigʻilgan 30,000 jumalalik norasmiy suhbatlar. Umumiy hajmi 80,000 jumlaning tashkil etgan ushbu korpusning 10,000 jumlasini tilshunoslar tomonidan qoʻlda etiketlandi, yaʼni har bir soʻz ildiz va qoʻshimchalarga ajratildi (masalan, “kitoblarim” $\rightarrow$ “kitob”, “-lar”, “-im”). Korpus turli xillikni taʼminlash uchun rasmiy (yangiliklar) va norasmiy (ijtimoiy tarmoq suhbatlari) matnlarni, shuningdek, turli dialektlarni (Toshkent, Fargʻona, Xorazm) qamrab oldi.


Korpus ikkiga boʻlindi: 70% (56,000 jumla) oʻqitish uchun, 30% (24,000 jumla) sinov uchun ishlatildi. WordPiece algoritmi oʻqitish toʻplamida lugʻat tuzish uchun ishlatildi, lugʻat hajmi 10,000 token bilan cheklandi. Sinov jarayonida algoritmnining samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi: aniqlik (precision), toʻliqlik (recall) va F1-skori. Ushbu mezonlar tokenlashning umumiy sifatini oʻlchash uchun standart hisoblanadi (Manning va Schütze, 1999). Taqqoslash uchun ikkita boshqa usul sinovdan oʻtkazildi: oddiy boʻshliqqa asoslangan tokenlash (baseline) va qoidaga asoslangan morfologik tahlil usuli.

Tajribalar natijasida WordPiece algoritmining oʻzbek tilida tokenlashdagi samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Quyidagi jadvalda turli usullarning sinov toʻplamidagi natijalari keltirilgan:

1-jadval. Turli tokenlash usullarining samaradorligi.

Algoritm	Aniqlik (Precision)	To'liqlik (Recall)	F1-skori
Bo'shliqqa asoslangan usul	62%	58%	60%
Qoidaga asoslangan usul	78%	75%	76.5%
WordPiece algoritmi (taklif etilgan)	92%	89%	90.5%

Yuqorida keltirilgan 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, taklif etilgan WordPiece algoritmi boshqa usullarga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatdi. Bo'shliqqa asoslangan usul o'zbek tilining morfologik murakkabliklarini (masalan, qo'shimchalar tuzilishini) hisobga ololmagani uchun past natija berdi. Qoidaga asoslangan usul esa qisman yaxshi natija ko'rsatgan bo'lsa-da, dialektlar va imlo xatolarini to'liq qamrab ololmadi. WordPiece algoritmi esa subword tokenlash orqali so'zlarning ichki tuzilishini saqlab qolish va dialektlarga moslashish imkonini berdi. 1-rasmda algoritmning turli korpus qismlaridagi (rasmiy matnlar, norasmiy matnlar, dialektli matnlar) F1- baholash me'zoni bo'yicha natijalari keltirilgan:

**1-rasm. Algoritmning turli matn korpuslarida olingan F1-baholash me'zoni ko'rsatkichlari.**

1-rasmda keltirilgan grafikdan ko'rinib turibdiki, barcha algoritmalar rasmiy matnlarda eng yuqori natija ko'rsatdi, chunki bu matnlar odatda standart imlo qoidalariga rioya qiladi. Norasmiy matnlarda va dialektli matnlarda natijalar biroz pastroq bo'ldi, bu imlo xatolari va shevalarga xos farqlar bilan bog'liq.

WordPiece algoritmining yuqori samaradorligi bir qator omillarga bog'liq. Birinchidan, algoritm o'zbek tilining qo'shimchalar tuzilishini (masalan, "-lar", "-im") subword tokenlar sifatida

aniqlash orqali soʻzlarning morfologik tuzilishini saqlab qoldi. Masalan, “oʻqituvchilarimga” soʻzi [oʻqituvchi, ##lar, ##im, ##ga] shaklida tokenlashdi, bu soʻzning semantik va sintaktik tuzilishini yoʻqotmaslikka imkon berdi [9]. Ikkinchidan, normalizatsiya qatlami dialektlarni (masalan, “qoryapman” → “qilayapman”) va imlo xatolarini tuzatishda muhim rol oʻynadi, bu esa algoritmnining moslashuvchanligini oshirdi.

Shuning bilan birga, tajribalar davomida baʼzi cheklovlar ham aniqlandi. Dialektli matnlarda natijalar biroz pastroq boʻldi, chunki korpusda Xorazm va Qashqadaryo shevalari yetarlicha qamrab olinmadi. Shuningdek, korpusning umumiy hajmi katta hajmdagi matnlar bilan ishlashda cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu cheklovlar kelajakdagi tadqiqotlarda kengroq korpuslar va qoʻshimcha normalizatsiya usullari orqali bartaraf etilishi mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot oʻzbek tilida morfologik tokenlash masalalarini oʻrganish va ularni hal qilish uchun samarali yechim taklif qilishga qaratildi. Oʻzbek tili kabi agglutinativ tillarda tokenlash jarayoni anʼanaviy usullar (masalan, boʻshliqqa asoslangan tokenlash) bilan samarali amalga oshirilmasligi sababli, WordPiece algoritmi asosida ishlaydigan subword tokenlash yondashuvi taklif etildi. Tadqiqot davomida algoritmnining ishlash jarayoni, matematik apparati va oʻzbek tiliga moslashtirish xususiyatlari batafsil tahlil qilindi. Algoritm oʻzbek tilining morfologik murakkabliklarini, xususan, qoʻshimchalar tuzilishini samarali boshqardi va dialektlar hamda imlo xatolarini tuzatishda moslashuvchanlikni taʼminladi. Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bir qancha jihatlarida namoyon boʻldi:

- taklif etilgan algoritm oʻzbek tilida NLP ilovalarini (masalan, mashinaviy tarjima, matn tasnifi, chatbotlar) rivojlantirishda muhim asos boʻlib xizmat qiladi;
- algoritmnining dialektlarga moslashuvchanligi oʻzbek tilining turli shevalarini qamrab olish imkonini berdi, bu esa mahalliy texnologiyalarni yanada kengroq auditoriyaga moslashtirishga yordam beradi;
- WordPiece algoritmining oʻzbek tilida qoʻllanilishi agglutinativ tillar uchun tokenlash masalalarini hal qilishda yangi yoʻnalishlarni ochdi.

Oʻz navbatida, tadqiqot davomida baʼzi cheklovlar ham aniqlandi. Korpusning hajmi katta hajmdagi matnlar bilan ishlashda cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin [10]. Shuningdek, baʼzi dialektlar (masalan, Qashqadaryo shevasi) yetarlicha qamrab olinmadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu cheklovlarni bartaraf etish maqsadida kengroq korpuslardan foydalanish, qoʻshimcha normalizatsiya usullarini joriy qilish va algoritmnini boshqa agglutinativ tillarga (masalan, turk yoki qozoq tillariga) moslashtirish boʻyicha ishlar olib borish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, algoritmnining hisoblash resurslariga boʻlgan talabini kamaytirish va kichik hajmdagi qurilmalarda ishlatish imkoniyatlarini oʻrganish ham muhim yoʻnalishlardan biridir. Taklif etilgan yechim oʻzbek tilining global miqyosda targʻib qilinishiga va raqamli dunyoda uning oʻrnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Manning, C. D., & Schütze, H. (1999). *Foundations of Statistical Natural Language Processing*. MIT Press.
2. Oflazer, K. (1994). Two-Level Description of Turkish Morphology. *Literary and Linguistic Computing*, 9(2), 137-148.
3. Koskenniemi, K. (1983). *Two-Level Morphology: A General Computational Model for Word-Form Recognition and Production*. University of Helsinki.
4. Abdullaev, S., & Xudoyberdiev, M. (2018). O'zbek tilida morfologik tahlilning zamonaviy usullari. *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, 45(3), 12-20.
5. Matlatipov, G., & Vetrov, A. (2020). Statistika usullar asosida o'zbek tilida tokenlash. *Informatika va texnologiyalar konferensiyasi materiallari*, 56-62.
6. Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. *Proceedings of NAACL-HLT*, 4171-4186.
7. Schweter, S. (2020). BERT-Turkish: Pre-trained Language Model for Turkish. *Hugging Face Models*.
8. Yusupov, A., & Qodirov, D. (2021). O'zbek tilida ijtimoiy tarmoq matnlari uchun tokenlash algoritmi. *Axborot texnologiyalari jurnali*, 12(4), 34-41.
9. Schuster, M., & Nakajima, K. (2012). Japanese and Korean voice search. In *2012 IEEE International Conference on Acoustics, Speech and Signal Processing (ICASSP)* (pp. 5149-5152). IEEE.
10. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding. In *Proceedings of the 2019 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies, Volume 1 (Long and Short Papers)* (pp. 4171-4186).
11. Kudo, T., & Richardson, J. (2018). SentencePiece: A simple and language independent subword tokenizer and detokenizer for neural text processing. In *Proceedings of the 2018 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing: System Demonstrations* (pp. 66-71).



Mualliflar

Farrukh Akhmedov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, “University of management and future technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston; akhmedovfarrukh@336gmail.com

Bakhtiyor Akmuradov

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, “University of management and future technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston.

Zukhra Bozorboyeva

Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrası, “University of management and future technologies” universiteti, Toshkent, 100208, O‘zbekiston.

Mas’ul:

akhmedovfarrukh@336gmail.com



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

MATNDAN NUTQ SINTEZLASHNING KLASSIK YONDOSHUVLARI

Annotatsiya: Matndan nutq sintezlash uslublari berilgan elektron matnni inson tabiiy nutqiga taqlid qilish, uni modellash yoki bir qator algoritmlar yordamida nutq signaliga aylantirishning turli yechimlarini taklif etadi. Nutq sintezi borasida tadqiqot olib borish avvalo bu sohaning klassik yondoshuvlarini o‘rganish, tahlil qilish va taqqoslash kabi bilim va tajribalarni shakllantirishni taqozo etadi. Chunki bu jarayonlarda nutq sintezlashga oid bazaviy tushunchalar va xususiyatlar bilan tanishib chiqiladi. Mazkur maqolada matndan nutq sintezlashning bir qator klassik yondoshuvlari organilib, ularning nutq sintezlash jarayonlari va natijalarini tahlil qilish, o‘zaro taqqoslash va farqli jihatlarini aniqlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: vocal tract model, acoustic model, control model, multimodal perception, speech, voice, formatn, concatenation, word, diphone, spectrogramm.

Kirish

Elektron hisoblash mashinalari yaratilgan davrlardan boshlab olimlar tomonidan kompyuter bilan muloqotni amalga oshirish, yoki kompyuterlarning xuddi insonlar kabi nutq soʻzlashlari ustida koʻplab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, berilgan matnni nutq signaliga aylantirish masalasi eng ommalashgan masalalardan biriga aylangan. Buning zamirida kompyuterlarni inson kabi fikrlashi, fikrlarni soʻzlar asosida hosil qilish va keyinchalik uni nutq signali shaklida insonlarga yetkazishi amalga oshirish maqsad qilingan.

Aslida bu tadqiqot ishlarining barchasi kompyuterlarda sunʼiy ongni shakllantirish, insonlar va oʻzaro muloqotlarini tashkil etish va bularning natijasida insonlar uchun murakkablik tugʻdiruvchi koʻplab faoliyat sohalarini kompyuterlarga topshirish gʻoyalari tayangan.

XXI arsga kelib bu kabi gʻoyalar sezilarli darajada amaliyotga tadbiiq qilinishga ulgurdi. Fikrlash va fikr almashish jarayonlarini tashkil qilishda neyron tarmoqlar asosida qurilgan bir qator sunʼiy intellekt modellari yaratildi. Bu modellar dunyoning koʻplab tillari uchun qayta oʻqitilib, insonlar va kompyuterlar oʻrtasidagi muloqotlarni tashkil etishda ulkan natijalar qayd etilmoqda.

Ushbu tadqiqot nutq sintezlashning klassik uslublarini tadqiq va tahlil qilish, shuningdek, ular asosida baʼzi tajribalar va taqqoslashlar oʻtkazish va bular asosida matndan nutq sintezlashning bazaviy tushunchalarini mustahkam oʻzlashtirish, ularning amaliyotda qoʻllanilishiga doir amaliy koʻnikmalarni hosil qilish maqsadida olib borilgan.

Artikulyatsion sintezlash usuli

Nutq sintezlashning artikulyatsiya usuli inson nutqini tabiiy va yuqori sifatli tarzda modellashtirishga qaratilgan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Boshqa nutq sintezlash usullaridan farqli ravishda, artikulyatsion nutq sintezlash usuli ovoz yoʻli organlarining haqiqiy shakllari, pozitsiyalari va harakatlarini ifodalaydi. Bu esa insonga xos tovushlarni aniqroq va haqiqatga yaqin qilib yaratishga imkon beradi.

Artikulyatsion sintezning samarali ishlashi uchun tizim ovoz yoʻli modeli, akustik model, glottis modeli va boshqaruv modeli kabi, har biri nutq hosil qilish jarayonida oʻziga xos ahamiyatga ega boʻlgan turli komponentlardan tashkil topadi.[1] Ovoz yoʻli modeli ovoz organlarining anatomik va fiziologik xususiyatlarini, ularning shakli va harakatlarini ifodalaydi. Akustik model esa ovoz yoʻli ichidagi havo oqimi va bosim taqsimotini hisoblab, akustik signalni yaratadi. Glottis modeli tovush manbai sifatida xizmat qilib, ovoz pardalari tebranishi va ular orqali havo oqimining shakllanishi

jarayonini ifodalaydi. Boshqaruv modeli esa har bir tovushni yaratish uchun kerakli harakatlarni boshqaradi.

Bu texnologiya faqat texnik asoslar bilan cheklanib qolmaydi, balki inson nutqini o'rganish va tushunish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Artikulyatsion sintez modellarini rivojlantirishda o'quvchi-o'qituvchi ssenariysidan foydalanish texnologiyaning tabiiyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.[3] Ushbu ssenariyda sintez modeli ekspert (o'qituvchi) tomonidan yaratilgan namunalarni tinglaydi va ular asosida o'z harakatlarini to'g'rilab, o'rganishni davom ettiradi. Bunday yondashuv inson nutqini o'zlashtirish jarayonlariga asoslanadi va artikulyatsion sintez tizimlariga tabiiylik va yuqori aniqlik beradi.

Bundan tashqari, artikulyatsion sintez jarayonida ko'p modeli ma'lumotlardan foydalanish juda muhim. Ko'p modeli qabul qilish vositalari, masalan, eshitish, somatosensor va vizual qabul qilish, nutq sintezini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, nutqni o'rganish jarayonida odamlar nafaqat eshitish, balki vizual (masalan, lab va jag' harakatlari) ma'lumotlarni ham qabul qiladilar, bu esa ularga so'zlarni tushunish va talaffuz qilishni osonlashtiradi. Shuningdek, vizual ma'lumotlar shovqinli muhitda eshitishni qo'llab-quvvatlash uchun juda foydali. Artikulyatsion sintez jarayonida ushbu omillardan foydalanish tovushlarni insoniylashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, artikulyatsion nutq sintezlash texnologiyasi nutqni tabiiy tarzda hosil qilish uchun ovoz yo'li harakatlarini mukammal modellashtirishga asoslangan texnologiya hisoblanadi.

Ushbu tizimda nutqni shakllantirish uchun ovoz yo'li anatomiyasi, havo oqimi, bosim va tovush hosil qilish jarayonlarini aniq ifodalaydigan modellar qo'llaniladi. Asosiy komponentlar orasida ovoz yo'li modeli, akustik model, glottis modeli va boshqaruv modeli ajratiladi. Ushbu modellarni qisqacha izohlar bilan quyida qarab chiqamiz.

1. **Ovoz yo'li modeli.** Artikulyatsion sintezlashda ovoz yo'li modeli markaziy komponent hisoblanib, u til, lablar, jag', yumshoq tanglay va hiqildoq kabi ovoz yo'li organlarining shakli, pozitsiyasi va harakatlarini modellashtiradi. Ushbu model orqali inson nutqining asosiy akustik xususiyatlarini belgilovchi anatomiya va fiziologik mexanizmlar tavsiflanadi. Ovoz yo'li modeli nutq tovushlarini hosil qilish uchun zarur bo'lgan ovoz yo'li konfiguratsiyalarini taqdim etadi va bu konfiguratsiyalar nutq davomida dinamik tarzda o'zgaradi.
2. **Akustik model.** Artikulyatsion sintezlashda akustik model nutq tovushlarini hosil qilish bosqichida muhim rol o'ynaydi. Ushbu model yordamida ovoz yo'li ichidagi havo bosimi va oqimi taqsimoti hisoblanadi va nutq signali yaratiladi. Akustik model orqali traxeya, hiqildoq, tomoq va og'iz bo'shlig'idagi havo bosimi va havo oqimi dinamikasi modellashtiriladi. Ovoz

yoʻli orqali oʻtuvchi havo oqimi va bosimning vaqti-vaqtida oʻzgarishi natijasida akustik signal hosil boʻladi.

3. **Glottis modeli.** Glottis modeli artikulyatsion sintezning akustik manbai hisoblanadi. Ushbu model ovoz parda tebranishlarini va havo oqimini shakllantirish orqali, nutq signalining tovush manbai sifatida xizmat qilib beradi. Glottis modellar – oʻz-oʻzidan tebranuvchi modellar boʻlib, parametrik glottis maydoni modellar va parametrik glottis oqimi modellariga ajratiladi. Ushbu modellar nutq sifatini boshqarish va turli ovoz ranglarini yaratish imkonini beradi.
4. **Boshqaruv moduli.** Boshqaruv moduli artikulyatsion sintezning jarayonini boshqaruvchi asosiy elementlardan biridir. Ushbu modul ovoz yoʻli harakatlarini sintez vaqtida dinamik boshqaradi va turli fonetik elementlarni yaratish uchun zarur boʻlgan harakatlar ketma-ketligini belgilaydi. Boshqaruv moduli nutq jarayonini tabiiy va haqiqiy ifodalash uchun harakatlarning dinamikasini va kinematikasini boshqarishga imkon beradi.

Artikulyatsion nutq sintezlashning umumiy holi mavjud boʻlib, uni eksperiment qilish uch asosiy bosqichda oʻtkaziladi. Har bir bosqichda sintez modeli oʻquvchi-oʻqituvchi ssenariysi asosida talaffuzni optimallashtirish uchun oʻz-oʻzini rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Birinchi bosqich - boshlangʻich harakatlarni yaratish. Birinchi bosqichda modelga oddiy soʻz va iboralarni yaratish vazifasi beriladi. Tajriba davomida “a”, “o”, “m”, “t” kabi asosiy tovushlar tanlanadi. Model ushbu tovushlarni hosil qilish uchun boshlangʻich motor rejalarini ishlab chiqadi. Har bir tovush uchun ovoz yoʻli organlarining (masalan, til, lablar, jagʻ) boshlangʻich va maqsad pozitsiyalari belgilanadi.


Bu bosqichda model dastlabki talaffuz sifatini yaratadi va ekspert tomonidan baholanadi. Ekspert sintez natijalarini eshitib, ular tabiiy nutqqa qanchalik yaqinligini aniqlaydi. Soʻngra ekspertning fikr-mulohazalari asosida har bir harakat uchun kerakli oʻzgarishlar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich – fikr-mulohaza bilan optimallashtirish. Ikkinchi bosqichda sintez modeli talaffuz sifatini yaxshilash maqsadida oʻqituvchidan olingan fikr-mulohazalardan foydalaniladi. Bu jarayon davomida modelning har bir talaffuzi qayta baholanib, kerakli optimallashtirishlar kiritiladi. Ekspert tomonidan notoʻgʻri baholangan talaffuzlar qayta ishlab chiqiladi va harakat traektoriyalari oʻzgartiriladi. Shu tariqa, model takroriy jarayon orqali talaffuz sifatini oshirishga muvaffaq boʻlishi mumkin.

Uchinchi bosqich – qayta baholash va yakuniy natijalar. Uchinchi bosqichda sintez modeli optimallashtirilgan motor rejalar asosida talaffuzlarni qayta yaratadi. Har bir talaffuz maʼlum qabul qilish darajasiga yetgach, ekspert tomonidan qabul qilinadi va saqlab qolinadi. Yakuniy natijalarda talaffuzlar inson nutqiga yaqinlashgan sifatda hosil qilinadi, bu esa sintezning yuqori aniqlikdagi

natijalarini ta'minlaydi.

Har bir talaffuz uchun yakuniy harakat trayektoriyalari va talaffuz natijalari quyidagi diagrammada ko'rsatilgan:



1-rasm: Yakuniy natijalar va harakat trayektoriyalari

Bu yerda:

1. vok – vokal (ovozli yoki unli tovush);
2. lablar – lablar (lab bilan bog'liq harakatlar);
3. lab – lab (lablar bilan chiqariladigan tovushlar);
4. tot – tilning orqa qismi bilan chiqariladigan tovushlar;
5. tut – tilning uchi bilan bog'liq tovushlar;
6. ytt – yumshoq tanglay bilan chiqariladigan tovushlar;
7. hiqt – hiqildoq bilan bog'liq tovushlar;
8. tilok – tilning old qismida yuqori ko'tarilishi;
9. tilnk – tilning neytral holatda yuqori ko'tarilishi;
10. tilp – tilning past joylashuvi yoki past harakati;
11. tilpr – tilning pastroq joylashuvi yoki harakati;
12. artimo – tovushlarni hosil qilish jarayonida til, lab yoki boshqa artikulyatsion organlarning harakati;
13. til – Tovush hosil qilishda tilning o'ziga xos bir pozitsiyasi yoki harakati, masalan, yuqori, orqa yoki old pozitsiya.
14. naz – yumshoq tanglayga yaqin joylashgan burun tovushi

15. tu – tilning ichki yoki yaqin joylashuvi, tilning uchi bilan bog'liq harakat;
16. bo – tovush hosil qilish jarayonida ochiq holatda yuqori joylashuv (hiqildoqning baland ochilishi)ni ifodalaydi;
17. fon – tovush hosil qilish jarayonidagi pozitsiyalar yoki holatlar;
18. oo – ochiq shovqinli tovush, tovush chiqarish jarayonida vokal yo'lidagi ochiq shakldagi havo oqimi.

Bu diagrammada har bir tovush uchun yakuniy talaffuz natijalari va harakat trayektoriyalari ko'rsatilgan. Model har bir tovushni insoniy nutqqa yaqinlashtirish uchun optimallashtirilgan.

Artikulyatsion sintezlashda ushbu modellarning loyihalaniishi – inson ovoz yo'lida tovushlarning hosil qilinishi va boshqarilishi tamoyillariga imitatsiyalanishi tufayli, agar bunday tizim uning nazariyasi bilan hamohanglikda ishlab chiqarilsa, u inson nutqini sintezlashning eng yaxshi usullaridan biri sifatida keng tatbiq qilinar edi. Ammo bu kabi tizimlar haligacha insonning nutq ishlab chiqarishga mo'ljallangan ovoz yo'li a'zolarining funksiyalarini to'laqonli imitatsiya eta olgani yo'q. Bunga insonning ovoz yaratish a'zolarining o'ta murakkab funksionalliklarga ega ekanligini sabab qilib keltirish mumkin.

Artikulyatsion sintezlash texnologiyalarining kelajagi nutq tovushlarini generatsiya qilishda yuqori darajadagi aniqlik va realistik natijalarga erishishga qaratilgan.[2] Kelgusida neyrokognitiv modellarni integratsiya qilish orqali sintez modelining qabul qilish, harakat qilish va tushunish imkoniyatlarini rivojlantirish maqsad qilingan. Bunday tizimlar inson nutq jarayonining neurofiziologik mexanizmlarini hisobga olgan holda ishlashi mumkin va bu nutqning kognitiv va emotsional jihatlarini aniqroq ifodalashga yordam beradi.

Kelajakda ko'p modeli o'zaro ta'sirga asoslangan o'quvchi-o'qituvchi ssenariylarini rivojlantirish orqali nutq sintezining tabiiylik darajasini oshirish ham rejalashtirilgan. Bu yondashuvda sintez modeli audiovizual va somatosensorik ma'lumotlarni birgalikda qabul qilish orqali o'z talaffuzini takomillashtirishi va insoniy nutqni taqlid qilishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin. Shuningdek, artikulyatsion sintezlash texnologiyalari asosida yuz ifodalari va imo-ishoralarni o'z ichiga olgan virtual agentlar yaratish orqali inson bilan o'zaro muloqot qobiliyatlarini oshirish mumkin.

Formant sintezlash

Formant sintezlash uslubi nutqni sintezlashda inson nutqining akustik xususiyatlarini modellashtirishga asoslanadi. Bu uslubda nutq tovushlari formantlar deb ataluvchi chastotaning



tarkibiy qismlari orqali ifodalanadi. Formantlar nutq signalining spektrida ko'rinadigan maksimal energiya nuqtalari bo'lib, ular nutqning ohangini va tiniqligini belgilashda xizmat qiladi.

Formant sintezlashning asosiy tamoyili – nutq tovushlari formantlar orqali modellashtirilishidir. Bunda har bir unli tovushning o'ziga xos formant chastotalari mavjud bo'ladi. Masalan, /a/ tovushi birinchi formant (F1) va ikkinchi formant (F2) chastotalari bilan tavsiflanadi. Formantlar nutqning tembrini belgilaydi va ular orqali turli unli va undosh tovushlarni farqlash mumkin bo'ladi.

Odatda formant sintezatorlari bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topadi. Signal generatori asosiy ton yoki shovqin signalini yaratadi. Tonli tovushlar uchun sinusoidal to'lqin, shovqinli tovushlar uchun esa oq shovqin ishlatiladi. Formant filtrlari signal generatori tomonidan yaratilgan signalga ishlov beradi. Har bir filtr ma'lum bir formant chastotasini kuchaytirish yoki susaytirish uchun ishlaydi. Amplituda va chastota modulyatori nutq signalini vaqt o'tishi bilan o'zgartiradi, ya'ni u nutqning qanchalik ko'tarilishi yoki tushishini, kuchayishi yoki susayishini boshqaradi. Bu esa nutqni yanada tabiiyroq va haqqoniyroq qiladi.

Formant sintezlashda har bir tovush uchun formant chastotalari va ularning amplitudalari qo'lda yoki avtomatik sozlanadi.[4] Bu sozlashlar fonetik qoidalar yoki ma'lum bir tilning nutq xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, /i/ tovushi uchun F1 past, F2 esa yuqori bo'ladi, /u/ tovushi uchun esa F1 va F2 larning har ikkalasi ham past bo'ladi.

Formant sintezlashda ikkita asosiy tuzilma – parallel va kaskadli tuzilmalar mavjud, ammo yaxshiroq ishlashi uchun ularda ba'zi bir kombinatsiyalar qo'llaniladi. Shuningdek, formant sintezlash uslubi juda ko'p tovushlar bilan ishlashni ta'minlaydi. Bu tovushlar soni tovushlarni bog'lash uslubidagidan ham ko'proq demakdir.

Eng kichik uchta formantda odatda tushunarli nutq hosil qilish va beshtagacha bo'lgan formantda esa yuqori sifatda nutq hosil qilish talab etiladi. Har bir formant odatda, ikki bosqichda rezonator formant chastotasining har ikki tomonini modellashtirish imkonini beradi va uning chegaralari tasniflanadi.

Ma'lum bir qonuniyatga asoslangan formant sintezlash nutq hosil qilishning muhim parametrlarini aniqlashga yo'naltirilgan qonuniyatlar majmuidan iborat bo'lib, bu qonuniyatlar formant sintezlash tizimlarida qo'llaniladi.


Kiritish parametrlarini quyidagi misolda ko'rish mumkin:

- Tovush chiqishining fundamental chastotalari (F0);

- Tovush to'liqlinining ochiq faktori;
- To'liqlinlardagi tovush darajasi;
- Formant chastotalari va amplitudalari ($F_1, \dots, F_3$ va $A_1 \dots A_3$);
- Kichik chastotaga qo'shilgan rezonator chastotasi;
- Kichik va yuqori chastotalar intensivligi.

Bu yerda ochiq faktor – to'liq ochiq-glottis vaqt davomiyligini bildiradi.

Kaskadli formant sintezatori tasmalar o'tishi rezonatorlaridan tashkil topgan va ketma-ketlikda bog'langan bo'lib, har bir chiquvchi formant sintezator navbatdagi chiqishni belgilaydi (2-rasm). Kaskadli tuzilma axborot boshqaruvi kabi faqat formant chastotalarini talab etadi. Asosiy kaskadli tuzilma ko'pincha alohida tekshirish shart bo'lmagan unlilar uchun formant amplitudalar nisbiyligidan tashkil topgan bo'ladi.




2-rasm. Kaskadli formant sintezatorining asosiy strukturasi

Kaskadli struktura jarangli tovushlar uchun eng yaxshi deb topilgan. Chunki, u parallel strukturaga nisbatan kamroq axborot nazoratini talab etadi va shuning bilan sodda amalga oshiriladi. Biroq, tiniq va tezkor tovush qismlarini kaskadli modelda generatsiya qilish muammo tug'diradi.

Parallel formant sintezatori (3-rasm) – parallel bog'langan rezonatorlardan tashkil topgan. Bazida burun tovushlari uchun qo'shimcha rezonatorlar ham qo'llaniladi. Signal to'liqlinlarida barcha formantlar bir vaqtda ishlatiladi va ularni hisoblab chiqaradi. Keraksiz nol qiymatli yoki norezonans nuqtalarni olib tashlash uchun formant rezonatorlarining aks-sado chastotalaridagi tutash natijalari qarama-qarshi fazoda hisoblanishi kerak.

Parallel struktura tasma sohasida nazorat o'rnatadi har bir formant individual kattalashadi va shuning bilan bir qatorda axborot nazoratiga talab ham oshadi.[3]



3-rasm. Parallel formant sintezatorining asosiy strukturasi.

Parallel formant strukturasi burun tovushlari, silliq tovushlar va qattiq undosh tovushlar uchun nisbatan yaxshiroq struktura deb topilgan, lekin ba'zi unli tovushlar kaskadli strukturadagi kabi parallel formant sintezatorida modellashtirila olmaydi.

Bu ikki strukturaning sifat darajasi va muvofiqlik xarakteristikalarini ustida uzoq bahs-mulohazalar olib borilib shu narsa ayon bo'lganki, bitta asosiy uslub yordamida yaxshi natijaga erishish mushkul va bu muammoni hal etish uchun ushbu uslublarni birlashtirish va takomillashtirish zarur. 1980-yilda Dennis Klatt yanada murakkabroq formant sintezatorini ya'ni, yuqori chastota shovqinlari uchun qo'shimcha rezonatorlar o'rnatilgan va burun tovushlari uchun antirezonslar bilan birlashtirilgan, to'g'ri talaffuz beruvchi aylanma yo'nalish va radiatsion xarakteristikalarini tavsiflagan holda kaskadli va parallel sintezatorlarning oltinchi formantini taklif qildi.

Tizim har 5 millisoniyada 39 ta parametr yordamida yangilanishini nazorat qilish orqali mukammal to'liqlanish modelini qo'llaydi. Shuningdek, kaskadli va parallel tuzilmalar boshqa yo'llar bilan ham birlashtirilishi mumkin.

Formant sintezlashning afzalliklari sifatida shuni aytish mumkinki, u juda ixcham va kam resurs talab qiladi. Sababi – u faqat formant chastotalari va amplitudalari bilan ishlaydi. Bu usul

3) совершенствование нормативно-правовой базы научной, научно-технической и инновационной деятельности;

4) рациональное сочетание государственного регулирования и рыночных механизмов;



- 5) совершенствование системы подготовки научных и инженерных кадров высшей квалификации в области науки и технологий;
- 6) разработка и модернизация оборонных инноваций;
- 7) повышение экономической и инновационной безопасности в стране.

В целом можно сделать вывод, что Узбекистан обладает базовыми условиями для перехода к инновационному типу развития экономики, сформированы необходимые элементы национальной инновационной системы.

Мощным импульсом для развития инновационной деятельности в республике может послужить вовлечение в данную сферу частного, корпоративного и иностранного капитала.



Adabiyotlar

1. Послание Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева Олий Мажлису Республики Узбекистан. 29.12.2020 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”. №УП-6097, 29.10.2020.
3. Указ Президента Республики Узбекистан №-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации». // Народное слово. – Ташкент, 6 октября 2020 г.
4. Акабирова Д.Н. Инновационная стратегия (уч.пос.) – Т.:Иқтисодиёт, 2011г. – 352 стр.
5. Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. и др. Инновационный потенциал и его влияние на конкурентное развитие экономики страны (теоретико-методологические аспекты) . - Т.: Фан ва технология, 2016 – 884 с.
6. Олимжонов А. Инновационный путь развития экономики Узбекистана. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2017 йил.
7. Инятов, А. Р., Адильчаев, Р. Т. И др. (2013). Важность вовлечения цифровой экономики в экономику страны. SCIENCE AND WORLD, 50.
8. Инятов, А. Р., Тлеуов, Н. Р., & Кайпназарова, Г. Х. (2018). Некоторые проблемы эффективного внедрения информационных технологий на предприятиях. Правовестник, (8), 32-35.
9. Инятов, А. Р., & Реймбаева, З. (2021). Некоторые проблемы инновационного развития и конкурентоспособности экономики страны. In Экономический рост: управление и организация (pp. 26-28).
10. Инятов, А. Р., & Адильчаев, Б. П. (2022). Перспективы и новые направления развития экотуризма в республике Каракалпакстан. In Экономическое развитие России: точка баланса в мировой экосистеме и инфраструктура будущего (pp. 106-111).
11. Инятов, А. Р., Reimbaeva Z.A., Qoblanov J. (2021). Повышения эффективности управления инфраструктурой инновационной деятельности In Научно-практический журнал «Заметки ученого» №7 /2021 2-часть, Ростов-на-Дону 2021 (pp. 75-79).

*Muallif***Dilbar Raximova**

Pedagogika va psixologiya kafedrası,
“University of management and
future technologies” universiteti,
Toshkent, 100208, O‘zbekiston;
raximova@umft.uz

O‘SPIRIN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SHAXSIY YETUKLIK XUSUSIYATLARINING TA’SIRI

Annotatsiya: Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda ota-ona maqomi, ularga nisbatan qadr-qimmat tuyg‘usi, sog‘lom turmush tarzi, oila qurish motivlari, oila funksiyalari haqidagi bilimlarni tarkib toptirish ilk o‘spirin va o‘spirin yoshining faol davri sifatida e‘tiborga olish maqsadga muvofiq. Ilk o‘spirin va o‘spirin davrida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixologik yetuklik omillari: shaxsiy, intellektual va ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlarini rivojlantirish zarur.

Kalit so‘zlar: oila, shaxsiy yetuklik komponentlari, o‘zining «Men»iga munosabat, fuqarolik burchini his qilish, hayotiy ustanovkalar ijtimoiy– psixologik texnologiyalari, psixologik trening, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar.



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons
Attribution (CC BY) litsenziyasi
shartlari asosida tarqatiladigan ochiq
foydalanish maqolasi hisoblanadi
([https://creativecommons.org/
licenses/by/4.0/](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)).



Kirish

“Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lamlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni [3] ijrosini ta’minlash Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror [5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston—2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq [4], shuningdek, “O‘zbekiston2030” strategiyasining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” yo‘nalishi doirasida aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar”, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Uzoq va yaqin xorij olimlaridan shaxs psixologik yetukligi masalasi bo‘yicha Ingliz olimi Lokk “Shaxsning psixologik yetukligi hayot tajribalaridan, qayta ishlangan ichki tajribalar, xotira, farq qilish, taqqoslash, murakkab tasavvurlardan shakllanishi..”[10], nemis psixologi I.Gerbardning fikricha “Psixik elementlar tasavvurlardir, qolgan barcha protsesslar-hissiyot, iroda tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlaridan iboratdir” [11], “Yetuklikni davrlashtirish muammosi yetuklikning bosqichlari turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Yoshlikning asosiy vazifalari va muammolari: hayotiy rejalarni aniqlashtirish va ularni amalga oshirishga kirishish; o‘zligini topish individuallikni ishlab chiqish; o‘zining huquq va majburiyatlarini bilgan yetuk inson deb anglash; turmush o‘rtoq tanlash va o‘z oilasini qurish; kasbiy faoliyatda ixtisoslashish va mahoratni egallash.”, degan fikrni ilgari surganlar.

Ilmiy ishimiz doirasida oldimizga qo‘ygan vazifalarni aniqlash maqsadida Yu. E. Alyoshina, L. Ya. Gozman, E. M. Dubovskaya “Oiladagi rollarni taqsimlash xususiyatlarini aniqlash” metodikalari, B.B.Stolin, T.L.Romanovalarning “Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklikni aniqlash” psixodiagnostik metodikasi, Yu.Z.Gilbuxning “Shaxsiy yetuklik test-so‘rovi”, N.N.Obozovning “Iroda kuchini baholash” psixodiagnostik metodikasi, Ye.P.I‘lin, Ye.K.Feshenko “Sabr-toqatlikni baholash” metodikasi, G‘.B.Shoumarovning “Nikohga ma’naviy tayyorlik” psixodiagnostik metodikasi, G‘.B.Shoumarovning “Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o‘rganish” psixodiagnostik test so‘rovnomasi, N.A.Sog‘inov, G‘.B.Shoumarovning “Oilaviy rollar va funksiyalar” haqidagi tasavvurlarni aniqlash psixodiagnostik so‘rovnomasi o‘tkazildi. Unga kiritilgan savollar va topshiriqlar yordamida tekshiriluvchilarning oila to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlari, oilaviy qadriyatlarga munosabatlari, oilaviy rollar va ularda har bir oila a‘zosining o‘rni va ulushi haqidagi tasavvurlari va reproduktiv tasavvurlarini aniqlash mumkin bo‘ldi. Tadqiqotimizning *muammosi* bo‘lib, o‘spirinlarning oilaviy hayotga yetukligi, ularda ijtimoiy-psixologik tasavvurlarning shakllanishi va ularning o‘ziga xosligi bo‘lib xizmat qildi. Bu o‘rinda g‘oya shundan iboratki, har bir shaxsning mustaqil oilaviy hayotga qadam qo‘yishi va oilaviy o‘zaro faol o‘ziga xos o‘rni, undagi oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning shakllanganlik darajasi bilan bog‘liqdir. Ana shu psixologik jarayonlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kuzatish maqsadida biz turmush qurmagan yigit va qizlarning oila to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘rgandik. Yuqoridagi vazifalarni amalga

oshirish jarayonida biz bir qancha ilmiy tushunchalar bilan ishladik, shuning uchun ham «oilaviy ijtimoiy tasavvurlar», «oilaviy rollar: status-mavqe, rol, oilaviy funksiyalar» «oila lideri», «oilaviy ustanovkalar», «reproduktiv tasavvurlar» kabi tushunchalarga ta'rif berishni o'rinli deb hisoblaymiz.

Oilaviy ijtimoiy tasavvurlarga ta'rif berishdan avval, umuman «tasavvur» tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Shaxsning atrof - borliq to'g'risidagi bilimlari uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq ravishda unda tasavvurlar tizimini tashkil etadi. U yoki bu ob'ekt yoki hodisa haqida bilimning yo'qligi tasavvurning ham yo'qligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma'lumotlar va ular asosida shakllanayotgan bilimlar aniq, yoki, noaniq, to'g'ri yoki noto'g'ri, biror narsa vosita bo'lganligi uchun ham tasavvurlar ham ana shunday belgilar asosida turlarga bo'linadi. Tasavvur yuzaki va chuqur ma'noli, keng miqiyosli yoki tor bo'lgani uchun ham ularning har bir shaxsda shakllanganligi, darajasi haqida gapirish mumkin. Shakllanganlik darajasi 3 xil bulishi mumkin: *quyi, o'rta va yuqori* darajali. Bu darajalar tasavvur obrazlarining ularning real ob'ektlariga qanchalik adekvat - aks etishi bilan bog'liqdir. Masalan, tasavvurlar shakllanganligining quyi darajasi odamdagi oddiy, sodda, kundalik ikir - chikirlar yuzasidan paydo bo'ladigan tasavvur obrazlari bilan xarakterlanadi. Unda ob'ektlar haqidagi tasavvurlar ancha xira tartibga bo'lib, ularning yo'qolishi ham shunchalik oson bo'ladi. Bunday obrazlardan shaxs o'zi uchun muhim, mohiyat jixatdan ahamiyatlisini ajratib olishi qiyin bo'ladi. Tasavvurlar shakllanganligining o'rtacha darajasi ob'ektlar haqidagi qarashlarni o'z ichiga oladi, lekin shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, shaxsiy ma'no kasb etgan xodisalar kirmaydi. Bu darajadagi tasavvurlar yoshlarga xos bo'lib, ularda to'g'ri, ob'ektiv tasavvurlar ilmiy asossiz boshqa tasavvurlar bilan uyg'unlashgan shuning uchun doimo ham xulk-atvorni yo'nalishini belgilab bermaydi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida "Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi." ¹ Nikoh yoshiga qadam qo'yayotgan yoshlarni oila va oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, tasavvurlar shakllanganligining yuqori daraja o'spirinlik yoshidan boshlanib, unda borliq haqidagi bilimlar tizimi shakllangan bo'lib, muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va ob'ektlar haqida aniq tasavvurlar mavjud bo'ladi. Bu tizimda shaxs uchun o'ta muhim elementlar bo'lib, shaxsning boshqa tasavvurlari ana shu muhim elementlar atrofida uyg'unlashgan bo'ladi. Bu daraja tasavvurlarning ob'ektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanish jixatidan ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi. Xuddi shu ma'noda oilaviy ijtimoiy tasavvurlar yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlardir. Turmush bo'sag'asidagi yoshlarda oila tushunchasi ko'proq «mustaqil hayot», «sevgi», «sadokat», «vafo», «bir - birini tushunish», «er-xotin uzaro munosabatlari» bilan bog'liq assotsiatsiyalarni uyg'otadi va bu ularning yoshligi, yoshlik qadriyatlari xarakteri bilan bog'liqdir. Bu o'rinda yana shuni aytish mumkinki, qizlarning o'z tenqurlari bo'lgan yigitlar bilan assotsiatsiyalarni solishtirish natijasi ham bu yerda ko'p hollarda umumiyliklar borligini ko'rsatadi: masalan, oila ikkala toifada ham birinchi navbatda sevgi - muhabbat, er - xotin munosabatlari, bolalar tarbiyasi, muammo va ehtiyojlar borligi, liderning bo'lishi ikkala guruhda ham taxminan yaqin qiymatlarda ifodalangan, bundan tashqari, oilaviy mojarolar, ziddiyatlarning borligi ular uchun aktual bo'lmaganligidami, ular bu tushunchani umuman qayd etmaganlar.

Shunday qilib, biz tekshirgan shaxslarning barchasida oila to'g'risidagi umumiy tasavvurlar mavjud va ular ma'lum bir ma'noda davr talabi va normalar bilan hamohang, lekin, bu tasavvurlarning xarakteri shaxsning jinsi, yoshiga va hayot tajribasiga mos holda har xil bo'lishi mumkin. Tasavvurlar to'liqligi shaxsning dunyoqarashi, bilimlari boyligi, muloqodtining rang-barangligi bilan bog'liq bo'lgani uchun ularni mazmunan boyitish, mustahkamlash, bilimlarini ongiga etkazishning barcha usullardan foydalanish lozim.

Asosiy qism

O'spirin yoshlarni "Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va psixologik yetuklikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash" bo'yicha o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma tahlili:


Respondentlarning oila va oilaviy munosabatlar haqidagi ma'lumotlarni olish manbalari tahlilini o'tkazganimizda "Oila va oilaviy munosabatlar haqidagi ma'lumotlarni ko'proq qayerdan yoki kimlardan olasiz?"-deya berilgan savolga javoblarini tahlil qilishimizda shu ma'lum bo'ldiki, oila va oilaviy munosabatlar haqidagi aksariyat ma'lumotlarni maxsus manbalardan emas, balki ijtimoiy tarmoqlardan o'rganishi ma'lum bo'ldi. O'spirin yoshlarning oila, turmush masalalariga qiziqishi, aksariyati axborotlar manbayi ijtimoiy tarmoq ekanligini aniqlandi. (1-jadval).

1-jadval. Respondentlarning oila va oilaviy munosabatlar haqidagi ma'lumotlarni olish manbalari tahlili n=462)

№	Javob variantlari	Tanlovlar qiymati
1	Televizor, internet (Facebook, Instagram) dan ma'lumot olaman	44,6%
2	Do'stlarimdan ma'lumot olaman	32,7%
3	Oila haqida maxsus ma'lumot deyarli yo'q	22,7%

Respondentlarning sovchi orqali oila qurishga nisbatan bildirgan munosabatlarini quyidagi "Sovchi orqali oila qurishga qanday munosabatdasiz?"-deya berilgan savolga javoblarini tahlil qilganimizda (n=462) 23,30% o'spirin yoshlar "Ota-ona to'g'ri variantni bilishadi" javobini; 14,10% o'spirin yoshlar "Sovchi orqali oila qurish eskirgan holat"-deb belgilashgani, 41,60% o'spirinlar "Turmush o'rtoqni o'zi tanlab, keyin ota-onaga bildirgan yaxshi"-degan javobni, 21% o'quvchilar "Sovchi orqali oila qurish men uchun yoqmaydi deya javob berganlar. Oila qurish motivlari va oila qurishga bo'lgan tasavvurlarini tahlili shuni ko'rsatadi-ki, o'spirin yoshlarning mustaqil tanishib oila qurishga bo'lgan qarashlari yetakchi o'rinda ega ekanlig tadqiqot jarayonida aniqlandi (1-rasm).

(Sovchi orqali oila qurishga qanday munosabatdasiz?)




1-rasm. Respondentlarning sovchi orqali oila qurishga nisbatan bildirgan munosabatlari (n=462)

Ma'lumki oila mustahkamligi uchun har bir oila qurayotgan shaxs FHDYO (Fuqarolik holatini qayd etish organi) dan ro'yhatdan o'tishi maqsadga muvofiqdir. Biz o'spirin yoshlarni huquqiy ongi qanday shakllangani o'rganish maqsadida respondentlarning FHDYO dan ro'yhatdan o'tishga nisbatan bildirgan fikrlari (n=462) o'rganildi. Quyidagi "FHDYO dan ro'yhatdan o'tish hozirgi zamonda muhim deb hisoblaysizmi?"-degan savolimizga respondentlarning 71,10% "Oila mustahkam bo'lishi uchun FHDYO dan ro'yhatdan o'tish zarur"-deb hisoblagan. 21,10% o'spirin yoshlar FHDYO dan ro'yhatdan o'tish haqida o'ylab ko'rmaganligi va respondentlarning 16,80% "Oila mustahkamligi uchun FHDYO dan ro'yhatdan o'tish zaruriy talab emas"-deb javob berganliklari tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Oila mustahkamligi uchun dastlabki muhim omil shaxsning huquqiy ongining shakllanishidir. Shunday ekan respondentlarning yuqorida keltirilgan javoblarining ko'rsatkichlariga asoslanib, kelajakda mustahkam oila qurishlari uchun ijtimoiyy-psixologik va huquqiy bilimlarni o'zlashtirish dolzarb muammo ekanligi tadqiqotimiz jarayonida o'spirinlarning savollarga bergan javoblaridan aniqlandi (2-rasm).


(FHDYO dan ro'yxatdan o'tish hozirgi zamonda muhim deb hisoblaysizmi?)



2-rasm. Respondentlarning FHDYOdin ro'yxatdan o'tishga nisbatan bildirgan fikrlari (n=462)

Oilaning felitsitologik funksiyasi haqidagi tasavvurlarini o'rganish maqsadida "Inson baxtli bo'lishi uchun moddiy mablag'ning ahamiyati" bo'yicha bildirgan qarashlarini o'rganildi va quyidagi: "Moddiy mablag' yetarli bo'lsa, inson baxtli bo'lishi aniq"-degan fikrga respondentlar munosbati o'rganildi. 20,90% o'spirin yoshlar "Oila farovonligi ham baxtdir" javobini, 18,80% o'spirin yoshlar "Baxt faqat boylikda emas" deb belgilaganlar, 31,50% respondentlar "Hozirgi vaqtda pul ko'p narsani hal qiladi"degan fikrda to'xtalغانlar, 28,80% o'spirin yoshlar "Moddiy mablag' to'laqonli baxt uchun albatta kerak" deb javob berganlar. Tadqiqotimiz jarayonida o'spirin yoshlar oilaning felitsitologik funksiyasi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish kelajakda baxtli oila qurishlari uchun zaruriy omil bo'lib hizmat qiladi (3-rasm).

("Moddiy mablag'i yetarli bo'lsa, inson baxtli bo'lishi aniq"- dega fikrga qanday qaraysiz?)



3-rasm. Inson baxtli bo'lishida moddiy mablag'larning ahamiyati bo'yicha bildirilgan qarashlar

(n=462)

2-jadval. Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik va shaxsiy yetuklik orasidagi aloqadorlik (N=462) (Spirmen mezoni bo'yicha)

Shaxsiy yetuklik komponentlari	Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	0,044
O'zining «Men»iga munosabat	0,256**
Fuqarolik burchini his qilish	-0,009
Hayotiy ustanovkalar	0,006
Boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati	0,201*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Tadqiqotimizda respondentlarning oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlari va shaxsiy yetuklik komponentlari o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi. Shaxsning o'zining «Men»iga munosabat komponenti ($H=0,256$; $p \leq 0,05$) va boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati o'rtasida korrelyatsion aloqalarni tasdiqlaydi ($H=0,201^*$; $p \leq 0,01$). O'spirin yoshlarni o'ziga to'g'ri baho berishlari va boshqa odamlar bilan psixologik yaqinlik qobiliyatlari oilaviy hayotga psixologik yetuklik xususiyatlarini asosiy omili bo'lishi mumkin (1-jadvalga qarang).

3-jadval. Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik va shaxsiy yetuklik orasidagi aloqadorlikning hududlar kesimida namoyon bo'lishi (N=462) (Spirmen mezoni bo'yicha)

Shaxsiy yetuklik komponentlari	Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik		
	Toshkent	Buxoro	Surxondaryo
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	0,125	0,122	-0,111
O'zining «Men»iga munosabat	0,158*	-0,040	0,045
Fuqarolik burchini his qilish	-0,030	0,009	-0,004
Hayotiy ustanovkalar	-0,009	0,168*	0,147*
Boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati	0,144*	-0,041	-0,013

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Tadqiqot natijalari Toshkent shahri, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida o'rganilganda,

Toshkent shahridagi ilk o'spirin va o'spirin davrdagi yoshlarning oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik va shaxsiy yetuklik komponentlaridan o'zining «Men»iga munosabat o'rtasida korrelyatsion aloqalarni tasdiqlaydi ($H=0,158$; $p \leq 0,01$). boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati ($H=0,144$; $p \leq 0,01$). Buxoro va Surxondaryo hududidagi respondentlarning oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik va hayotiy ustanovkalar o'rtasida aloqadorlik darajalari aniqlandi ($H=0,168$; $p \leq 0,01$). Aniqlangan natijalarga ko'ra Toshkent shahridagi respondentlarning shaxsiy yetuklik komponentlarini shakllantirish ahamiyatga ega deb hisoblaymiz (2-jadvalga qarang).

Shunday qilib metodikalar bo'yicha ($n=462$) olingan psixodagnostik ma'lumotlarni umumlashtirish va taxlil qilishning tayyorlangan mexanizmi ilk o'spirin va o'smir yoshidagi respondentlarni oilaviy hayotga yetuklik xususiyatlari va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda ilk o'spirin va o'smir yoshlarning shaxsiy yetuklik xususiyatlari va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan psixologik treninglarning o'rni hamda va tarkibiy komponentlariga doir masalalar qamrab olingan. Mazkur bobda ilk o'spirin va o'spirinlar uchun trening mashg'ulotlari ishlab chiqilib, tajriba-sinov jarayoniga tadbiiq etildi. Oilaviy hayot haqidagi savol-javob, suhbat- munozaralar va psixologik treninglar orqali asosiy e'tibor, shaxs yoki guruhning oila psixologiyasi sohasidagi bilimdonlik darajasini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish jarayonini aks ettirishdir.

4-jadval. Shakllantiruvchi eksperiment ta'sirida oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik namoyon bo'lishining ko'rsatkichlari. (Vilkokson mezoni bo'yicha)

Guruhlar	Komponentlar	Ranglar o'rtachasi		Z qiymati
		Manfiy ranglar	Musbat ranglar	
Eksperiment guruhi ($n=30$)	Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik	2,67	14,91	-4,264**
Nazorat guruhi ($n=30$)	Oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik	2,00	2,67	-1,134

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$ (musbat ranglar o'rtachasi oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik darajasi ortgan sinaluvchilar ko'rsatkichlaridan kelib chiqadi)

Olib borilgan qayta diagnostik ishlarga ko'ra, eksperimental guruhdagi oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlari bo'yicha treningdan keying ko'rsatkichlar orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($n=-4,264$; $p \leq 0,05$). Nazorat guruhida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (3-Jadvalga qarang).

5-jadval. Shakllantiruvchi eksperiment ta'sirida shaxsiy yetuklik namoyon bo'lishining ko'rsatkichlari. (Vilkokson mezon bo'yicha)

Guruhlar	Komponentlar	Ranglar o'rtachasi		Z qiymati
		Manfiy ranglar	Musbat ranglar	
Eksperiment guruhi (n=30)	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	0,00	15,50	-4,790***
	O'zining «Men»iga munosabat	0,00	5,50	-2,842**
	Fuqarolik burchini his qilish	0,00	15,50	-4,800***
	Hayotiy ustanovkalar	15,54	12,35	-0,687
	Boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati	3,25	15,87	-4,237***
Nazorat guruhi (n=30)	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	0,00	2,00	-1,633
	O'zining «men»iga munosabat	2,33	3,00	-0,736
	Fuqarolik burchini his qilish	1,00	3,00	-1,473
	Hayotiy ustanovkalar	2,00	2,00	-0,535
	Boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati	2,50	3,13	-1,414

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$; *** $p \leq 0,001$ (musbat ranglar o'rtachasi shaxsiy yetuklik darajasi ortgan sinaluvchilar ko'rsatkichlaridan kelib chiqadi)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, eksperiment guruhida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi komponenti bo'yicha treningdan keyingi ko'rsatkichlarda ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($n = -4,790$; $p \leq 0,001$). Ushbu komponentga ko'ra, shaxs faoliyatining muhim hayotiy sifatlari, mustaqillik, tashabbuskorlik, yetakchilikka intilish kabi xususiyatlari aniqlandi. O'zining «Men»iga munosabat komponentida ham ahamiyatli farq aniqlandi ($n = 2,842$; $p \leq 0,05$). Bu shaklda shaxs o'z qobiliyatiga ishonchi, o'z qobiliyatidan qoniqish, temperament va xarakter, bilim, ko'nikma va qobiliyat kabi yetuklik xususiyatlari, kamtarlik, boshqa odamlarga hurmat kabi muhim parametrlari aniqlandi. Shaxsiy yetuklikning fuqarolik burchini his qilish komponentlarida ahamiyatli farq aniqlandi ($n = -2,842$; $p \leq 0,05$). Treningdan so'ng eksperiment guruhida ijtimoiy-siyosiy hayot hodisalariga qiziqish, huquqiy ong, kasbiy mas'uliyat hissi kabi fazilatlar ma'lum darajada oshishiga sabab bo'ldi. Boshqa odam bilan psixologik yaqinlik qobiliyati komponentida ham ahamiyatli farqlar aniqlandi ($n = -4,800$; $p \leq 0,001$). Keltirilgan natijalarga ko'ra eksperiment guruhida o'tkazilgan trening va o'quv mashg'ulotlar ilk o'spirin va o'spirin yoshlarda tinglash qobiliyati, boshqa odamlarga mehr-oqibat kabi shaxsiy fazilatlarlar shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi (4-jadvalga qarang).



Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, tashkillashtirilgan va o'tkazilgan eksperiment tadqiqot ($n=30$) ilk o'spirin va o'spirin yoshlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlariga nikoh oldi omillari va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Oilaviy hayotga yetuklikning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishimiz bo'yicha nazariy adabiyotlar va empiric ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalar ishlab chiqildi. Mavzuning dolzarbligi ilk o'spirin va o'spirin yoshlarni oila va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantirish zaruriy omil ekanligi nazariy tahlili qilindi.

Ta'lim va tarbiyaviy ishda yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllantirish orqali oilaga (ota-onaga) nisbatan mehr-muhabbat, hurmat kabi shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi va oila funksiyalari haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirish ta'lim jarayonida yuqori darajada namoyon bo'lishi, ilk o'spirin va o'spirin davrdagi yoshlarni oilaviy hayotga psixologik yetuklik xususiyatlarining asosiy uchta fenomeni: shaxsiy, intellektual va ijtimoiy-psixologik yetuklik xususiyatlarini o'rganish orqali ijtimoiy tasavvurlar shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir etishi, yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shallanishiga individ bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari ijobiy ta'sir qilmasligi o'rganildi va o'z tasdig'ini topdi. Shaxslararo munosabatlar jarayonidagi ijtimoiy faoliyatda shakllanadigan bilimlar shaxsiy ma'noga ega bo'lib, oilaviy hayot haqidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining zarur mezonini hisoblanadi.



Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar. 76-modda."O'zbekiston" T.: 01.05.2023.-16 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi II bo'lim. Nikoh 3-bob. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. 15-modda. Nikoh yoshi Oldingi tahrirga qarang. Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. (15-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdagi O'RQ-558-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son)
3. O'zbekiston Respublikaasi Prezidentiining 18.02.2020 yildagi PF-593-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikaasi Prezidentiining 11.09.2023-yildagi PF-158-son qarori
5. Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 820-son qarori.
6. Abdullayeva D, Atabayeva N, Yorqulov R "Oila psixologiyasi" 52-bet.T.Ilm-Ziyo nashriyoti.
7. Karimova Vasila Mamanosirovna OILA PSIXOLOGIYASI o'quv qo'llanma TOSHKENT – 2007. 7-bet
8. Safayev Nuriddin Salixovich "O'spirin yoshida shaxsning o'zini-o'zi baholasi va himoyalani sh mexanizmlaridan foydalanishning o'zaro bog'lanishi" TA'LIM PSIXOLOGIYASI 2018.№10. 18-19 betlar.
9. Shoumarov G'ayrat Bahromovich OILA PSIXOLOGIYASI o'quv qo'llanma Toshkent-2013.120-bet.
10. O'zbekiston Respublikaasi Prezidentiining 11.09.2023-yildagi PF-158-son qarori.
11. P.I.Ivanov "Umumiy psixologiya"-T."O'qituvchi" 1967. .535-bet..
12. P.I.Ivanov "Umumiy psixologiya"-T."O'qituvchi" 1967. 544-betl.
13. N. Z.Taskarayevna, N.G.Kamilova,D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.Toshkent 2018. 412-422 belar.

MATEMATIKA VA FIZIKA FANLARI



Mualliflar

Yarashbek Yusupov

Radiotexnik qurilmalar va tizimlar kafedrası, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O'zbekiston; yarashbekyusupov@mail.ru

Nargiza Baymatova

Radiotexnik qurilmalar va tizimlar kafedrası, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Mas'ul: yarashbekyusupov@mail.ru



Copyright: © 2024 by the authors.

Ushbu maqola Creative Commons Attribution (CC BY) litsenziyasi shartlari asosida tarqatiladigan ochiq foydalanish maqolasi hisoblanadi (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

RAYS SO'NISHILI SIGNALLARNI TO'G'RI ANIQLASH EHTIMOLLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya: Nokogerent ishlov berish sxemasida rays so'nishili signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligi uchun analitik ifodani olish imkonini beruvchi metodologiya tahlil qilingan. Rays (umumlashtirilgan Reley) so'nishili signalga ishlov berish sxemasiga kiritilgan to'g'ri aniqlash ehtimoli uchun analitik ifodani olish usuli taklif etilgan. Shu maqsadda birinchi navbatda Rays so'nishili tebranish normallashtirilgan amplitudasining matematik (statistik) tavsifi keltirildi. Uning asosida Rays so'nishili signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligining Rays parametriga (ya'ni, so'nishning doimiy va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarining nisbati) bog'liqligining ifodasi olindi. Bu xususiy holatlarda tasodifiy boshlang'ich fazali signallarni hamda tasodifiy boshlang'ich fazali va Reley so'nishili amplitudaga ega signallarni nokogerent aniqlash uchun avvaldan ma'lum bo'lgan ifodalarga mos kelishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: signalni aniqlash, rays so'nishi, nokogerent qabul qilish, Gauss shovqini, yolg'on safarbarlik.

Kirish

Gauss shovqini fonida signallarni aniqlash nazariyasining aksariyat masalalari Reley taqsimot qonuni bo'yicha taqsimlangan, o'zgaruvchan boshlang'ich fazali yoki o'zgaruvchan boshlang'ich fazali hamda amplitudali (ya'ni so'nishli) signallarni qabul qilish holatlari uchun hal qilingan [1-3]. Bunday signallar uchun nokogerent aniqlash asosidagi qabul qilgichning strukturaviy sxemasi optimal hisoblanadi. Ushbu sxemaga qo'shimcha signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligi (D) ning yolg'on safarbarlik ehtimolligi (F) va qabul qilingan signal energiyasining shovqin spektral zichligiga nisbati (E_r/N_0) ga bog'liqligi (φ) quyidagi ikkita holat uchun aniqlangan: 1) o'zgaruvchan fazali signallarni qabul qilish $D = \varphi_1(E_r/N_0, F)$; 2) o'zgaruvchan fazali va amplitudasi Reley qonuni bo'yicha so'nadigan signallarni qabul qilish $D = \varphi_2(E_r/N_0, F)$.

Biroq, umumiy holda qabul qilingan signallarning amplitudasi Rays (umumlashtirilgan Reley) taqsimotiga ega bo'lishi ham mumkin [3, 4]. Ushbu taqsimot $\gamma^2 = 0$ dan (releyli so'nish bo'lganda) $\gamma^2 = \infty$ gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan Rays parametri γ^2 bilan tavsiflanadi.

Hozirda signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligining signal-shovqin nisbati, yolg'on safarbarlik ehtimolligi va Rays parametriga bog'liqligini baholash uchun faqat bitta formula ma'lum: $D = \varphi_3(E_r/N_0, F, \gamma^2)$ [5, 6]. Biroq, ushbu formulaning ishonchliligi shubha tug'diradi, chunki u ma'lum xususiy holatlarda (ya'ni $\gamma^2 = \infty$ va $\gamma^2 = 0$ bo'lganda) avvaldan ma'lum bo'lgan so'nish bo'lmagandagi va amplitudasi Reley qonuni bo'yicha so'nishli bo'lgandagi $D = \varphi_1(E_r/N_0, F)$ va ($D = \varphi_2(E_r/N_0, F)$) bog'liqliklar bilan bir xil emas. Shu sababli, tasodifiy boshlang'ich fazali yoki reley so'nishili signallarni qabul qilish holatlari uchun optimal hisoblangan nokogerent sxemali rays so'nishili signallarni aniqlash xarakteristikasini baholash zarurati mavjud.

Maqolaning maqsadi nokogerent ishlov berish sxemasida rays so'nishili signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligini baholashning analitik metodining tahlilini ko'rib chiqishdir.

Rays so'nishili signal amplitudasining normallashtirilgan tebranishlarini tahlil qilish

Ushbu qo'yilgan maqsadga erishish uchun biz avvaldan ma'lum bo'lgan metodikadan, uni rays so'nishili signalni qabul qilingan holati uchun umumlashtirgan holda foydalanamiz [3]. Bunday signalni quyidagicha yozamiz

$$s_r(t) = Af(t - \tau) \cos[\omega_0 t + \varphi(t - \tau) - \theta], \quad (1)$$

bu yerda $f(t)$ va $\varphi(t)$ – amplituda va faza modulyatsiyasini ifodalaydigan funksiyalar; τ – kechikish vaqti; ω_0 – tashuvchi chastota; θ – tasodifiy (noma'lum) boshlang'ich faza.

Signalning normallashtirilgan amplituda so'nishini tavsiflovchi tasodifiy A koeffitsiyenti Rays qonuniga muvofiq taqsimlangan bo'lsin

$$W(A) = \frac{A}{\sigma_A^2} \exp\left(-\frac{A^2 + \alpha_p^2}{2\sigma_A^2}\right) I_0\left(\frac{A\alpha_p}{\sigma_A^2}\right), \quad 0 \leq A \leq \infty, \quad (2)$$

bu yerda α_p^2 va $2\sigma_A^2$ – A koeffitsiyentining muntazam va fluktuatsion tashkil etuvchilarining quvvatlari; $I_0(y)$ – nolinchi tartibli birinchi tur Bessel modifikatsiyalangan funksiyasi.

α_p^2 va $2\sigma_A^2$ qiymatlarini shunday tanlaymizki, bunda soʻnishli qabul qilingan (1) signalning oʻrtacha energiyasi soʻnimsiz ($A = 1$ boʻlganda) qabul qilingan signalning E_r energiyasiga teng boʻladi. Bu energiyalar quyidagicha ifodalanadi:

$$E_r = \int_0^T f^2(t - \tau) \cos^2[\omega_0 t + \varphi(t - \tau) - \theta] dt = \frac{1}{2} \int_0^T f^2(t - \tau) dt;$$

$$\langle E_r \rangle = M \left\{ \int_0^T A^2 f^2(t - \tau) \cos^2[\omega_0 t + \varphi(t - \tau) - \theta] dt \right\} = M\{A^2\} E_r = \langle A^2 \rangle E_r.$$

(2) ifodaga muvofiq A koeffitsiyentining dispersiyasi quyidagicha ifodalanadi.

$$\langle A^2 \rangle = \int_0^\infty A^2 W(A) dA = \int_0^\infty \frac{A^3}{\sigma_A^2} \exp\left(-\frac{A^2 + \alpha_p^2}{2\sigma_A^2}\right) I_0\left(\frac{A\alpha_p}{\sigma_A^2}\right) dA.$$

$x = A/\sqrt{2}\sigma_A$ va $\gamma = \alpha_p/\sqrt{2}\sigma_A$ deb belgilasak,

$$\langle A^2 \rangle = 4\sigma_A^2 \exp(-\gamma^2) \int_0^\infty x^3 \exp(-x^2) I_0(2\gamma x) dx.$$

Ushbu integral standart jadval shaklidagi integral boʻlib [7], $L_n(p)$ Lager polinomi orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\int_0^\infty x^3 \exp(-x^2) I_0(2\gamma x) dx = \frac{1}{2} \exp(\gamma^2) L_1(-\gamma^2) = \frac{1}{2} \exp(\gamma^2) (1 + \gamma^2).$$

U holda $\langle A^2 \rangle = 2\sigma_A^2 + \alpha_p^2$ ga teng boʻladi,

$$\langle E_r \rangle = \langle A^2 \rangle E_r = \alpha_p^2 E_r + 2\sigma_A^2 E_r = E_r \quad (3)$$

va natijada tenglikni taʼminlash uchun α_p^2 va $2\sigma_A^2$ ning qiymatlarini $\alpha_p^2 + 2\sigma_A^2 = 1$ ga teng qilib tanlash lozim.



Rays soʻnishli signallarni toʻgʻri aniqlash ehtimolligini baholash

Nokogerent qabul qiluvchi qurilma kirishiga signal yoʻqligida (1), yaʼni faqat Gauss shovqini taʼsir qilganda yolgʻon safarbarlik ehtimolligi avvaldan maʼlum boʻlgan [3-5] ifoda bilan aniqlanadi

$$F = \exp\left(-\frac{h^2}{2\sigma_z^2}\right) = \exp\left(-\frac{h_0^2}{2}\right), \quad (4)$$

bu yerda

$$h_0 = \frac{h}{\sigma_z^2} = \frac{h}{\sqrt{N_0 E_r / 2}} - \quad (5)$$

h chegaraning normallashtirilgan qiymati; σ_z^2 – spektral zichligi N_0 boʻlgan shovqin taʼsirida moslashgan filtr chiqishidagi z egiluvchisiining dispersiyasi.

Nokogerent qabul qiluvchi qurilmaning kirishiga Gauss shovqini va A koeffitsiyentining belgilangan qiymatida (1) signalning yigʻindisi taʼsir qilganda toʻgʻri aniqlash ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi [8-9].

$$D(A) = \int_h^\infty W(z|A) dz = \int_h^\infty \frac{z}{\sigma_z^2} \exp\left(-\frac{z^2 + A^2 E_r^2}{2\sigma_z^2}\right) I_0\left(\frac{A E_r z}{\sigma_z^2}\right) dz, \quad (6)$$

bu yerda $W(z|A)$ – Rays taqsimoti bilan tavsiflanadigan, $A = \text{const}$ boʻlganda z egiluvchining ehtimollik zichligi. U holda toʻgʻri aniqlashning toʻliq ehtimolligi Rays qonuni (2) boʻyicha (z kabi) taqsimlangan, (6) ifodaning barcha A qiymatlari boʻyicha oʻrtachalashtirish yoʻli bilan aniqlanadi

$$D = \int_h^\infty D(A) W(A) dA = \int_h^\infty \frac{z}{\sigma_z^2 \sigma_A^2} \exp\left(-\frac{z^2}{2\sigma_z^2} - \frac{\alpha_p^2}{2\sigma_A^2}\right) I_0\left(\frac{A E_r z}{\sigma_z^2}\right) \times \\ \times \int_0^\infty A \exp\left[A^2 \left(\frac{E_r^2}{2\sigma_z^2} + \frac{1}{2\sigma_A^2}\right)\right] I_0\left(\frac{A E_r z}{\sigma_z^2}\right) I_0\left(\frac{A \alpha_p}{\sigma_A^2}\right) dA dz. \quad (7)$$

Ichki integral standart jadval integrali [7] ekanligini hisobga olib,

$$\int_0^\infty x \exp(-px^2) I_v(bx) I_0(cx) dx = \frac{1}{2p} \exp\left(\frac{b^2 + c^2}{4p}\right) I_v\left(\frac{bx}{2p}\right),$$

(7) ifodani quyidagi koʻrinishda yozish mumkin

$$D = \int_h^\infty \frac{z}{\sigma_{Az}^2} \exp\left(-\frac{z^2 + E_{pr}^2}{2\sigma_{Az}^2}\right) I_0\left(\frac{E_{pr} z}{\sigma_{Az}^2}\right) dz, \quad (8)$$

bu yerda $\sigma_{Az}^2 = \sigma_A^2 E_r^2 + \sigma_z^2$; $E_{pr} = \alpha_p E_r$.

(5) ni hisobga olgan holda rays soʻnishli signallarni toʻgʻri aniqlash ehtimolligi uchun (8) ifodani yanada ixcham shaklda yozish mumkin

$$D = Q(g_1, h_{01}), \quad (9)$$

bu yerda

$$g_1 = \frac{E_{pr}}{\sigma_{Az}} = \left(\frac{2\alpha_p^2 E_r}{2\sigma_A^2 E_r + N_0} \right)^{1/2} = \frac{\alpha_p (2E_r/N_0)^{1/2}}{(1 + 2\sigma_A^2 E_r/N_0)^{1/2}}; \quad (10)$$

$$h_{01} = \frac{h}{\sigma_{Az}} = \left(\frac{2h^2/E_r}{2\sigma_A^2 E_r + N_0} \right)^{1/2} = \frac{h_0}{(1 + 2\sigma_A^2 E_r/N_0)^{1/2}}; \quad (11)$$

$$Q(y, x) = \int_x^\infty p \exp\left(-\frac{p^2 + y^2}{2}\right) I_0(y p) dp -$$

– Markum funksiyasi.

Xususiyl holda soʻnish mavjud boʻlmaganda (3) ifodaga muvofiq $2\sigma_A^2 = 0$ va $\alpha_p^2 E_r = E_r$ boʻlganda Markum funksiyasining (10, 11) argumentlari quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$g_1 = \left(\frac{2E_r}{N_0} \right)^{1/2} = g;$$

$$h_{01} = \left(\frac{2h^2}{N_0 E_r} \right)^{1/2} = h_0 = \left(2 \ln \frac{1}{F} \right)^{1/2}; \quad (12)$$

va olingan (9) ifoda tasodifiy boshlangʻich fazali signallarni nokogerent aniqlash holati uchun avvaldan maʼlum boʻlgan koʻrinishni oladi [10-11]:

$$D = Q(g_1, h_0) = Q\left(g, \sqrt{2 \ln \frac{1}{F}}\right). \quad (13)$$

Boshqa bir reley soʻnishli hususiy holda (3) ifodaga muvofiq $\alpha_p^2 = 0$ va $\langle E_r \rangle = 2\sigma_A^2 E_r$ boʻlganda Markum funksiyasining (10, 11) argumentlari quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$g_1 = 0;$$

$$h_{01} = \frac{h_0}{\left(1 + \frac{2\sigma_A^2 E_r}{N_0}\right)^{\frac{1}{2}}} = \frac{h_0}{(1 + \langle E_r \rangle / N_0)^{\frac{1}{2}}}. \quad (14)$$

U holda Markum funktsiyasining ma'lum $Q(0, x) = \exp(-x^2/2)$ xususiyatlarini [3] va (14) formulani hisobga olgan holda (9) ifoda tasodifiy boshlang'ich fazali va amplitudasi relely taqsimlangan signallarni nokogerent aniqlash holati uchun avvaldan ma'lum bo'lgan ko'rinishni oladi:

$$D = Q(0, h_{01}) = \exp\left(-\frac{h_{01}^2}{2}\right) = \exp\left(-\frac{h_0^2}{2} \cdot \frac{1}{(1 + 2\sigma_A^2 E_r / N_0)}\right) = F^{\frac{1}{(1 + E_r / N_0)}}. \quad (15)$$

Olingan (9) ifodani rays so'nishili signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligini baholash uchun amplitudaning rays taqsimoti (2) parametri orqali yozish maqsadga muvofiq

$$\gamma^2 = \alpha_p^2 / 2\sigma_A^2, \quad (16)$$

ya'ni γ^2 rays parametrining muntazam tashkil etuvchi α_p^2 quvvatini fluktuatsion σ_A^2 tashkil etuvchi quvvatiga nisbati orqali ifodalanadi va so'nish chuqurligini xarakterlaydi ($\infty \geq \gamma^2 \geq 0$) [12].

(12) ifodani inobatga olib, (3) tenglik $\alpha_p^2 + 2\sigma_A^2 = 1$ va $\gamma^2 + 1 = 1/2\sigma_A^2$ (9) ifodadagi Q-funksiya $D = Q(g_1, h_{01})$ ni quyidagicha yozish mumkin:


$$g_1 = \left\{ \frac{2E_r}{N_0} \cdot \frac{\gamma^2}{1 + \gamma^2 + (E_r/N_0)} \right\}^{1/2}; \quad (17)$$

$$h_{01} = h_0 \cdot \left\{ \frac{1 + \gamma^2}{1 + \gamma^2 + (E_r/N_0)} \right\}^{1/2} = \left\{ 2 \ln\left(\frac{1}{F}\right) \cdot \frac{1 + \gamma^2}{1 + \gamma^2 + (E_r/N_0)} \right\}^{1/2}. \quad (18)$$

Olingan (17, 18) ifodalarning ishonchligi shu bilan tasdiqlanadiki, xususi holda so'nish mavjud bo'lmaganda ($2\sigma_A^2 = 0$ va $\gamma^2 = \alpha_p^2 / 2\sigma_A^2 \rightarrow \infty$ bo'lganda) (13) ifoda bilan bir xil, relely so'nishida esa ($\alpha_p^2 = 0$ va $\gamma^2 = 0$ bo'lganda) (15) ifoda bilan bir xil.

Olingan (9), (17), (18) ifodalarga muvofiq, 1-rasmda signalni to'g'ri aniqlash ehtimolligining qabul qiluvchi qurilma kirishidagi (E_r/N_0) signal/shovqin nisbatiga Rays parametrining 5 ta ($\gamma^2 = \infty; 10; 3; 1; 0$) qiymatida va $F = 10^{-10}$ yolg'on safarbarlik ehtimolligiga bog'liqligi, ya'ni $D = \Psi(E_r/N_0, \gamma^2, F)$ grafigi keltirilgan.

1-rasmni tahlil qilish ko'rsatadiki, to'g'ri aniqlash ($D_{ta} = 0.95$) va yolg'on safarbarlikka ($F = 10^{-10}$) yuqori talablar qo'yilganda, rays so'nishi parametrining $\gamma^2 = \alpha_p^2 / 2\sigma_A^2 = \infty$ (so'nishlar bo'lmaganda) dan $\gamma^2 = 3$ va $\gamma^2 = 0$ qiymatlarigacha kamayishi qabul qiluvchi qurilma kirishida signal/shovqin nisbatini $E_r/N_0 \approx 32$ dan $E_r/N_0 \approx 150$ va 400 (ya'ni, mos ravishda 7 dB va 11 dB) ga oshirishni talab qiladi.



1-rasm. Signalni to'g'ri aniqlash ehtimolligining turli chuqurlikdagi so'nishlar ($\gamma^2 = \infty \dots 0$) va yolg'on safarbarlik ehtimolligi $F = 10^{-10}$ da signal/shovqin nisbatiga bog'liqligi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, so'nish chuqurligi parametriga ($\gamma^2 = \alpha_p^2 / 2\sigma_A^2$) bog'liq holda signallarni ularga ishlov berishning nokogerent sxemasida rays so'nishili signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligini baholash uchun analitik ifodani olishga imkon beradigan metodika tahlil qilingan, va ushbu analitik ifoda xususiy hollarda avvaldan ma'lum bo'lgan tasodifiy boshlag'ich fazali signallarni nokogerent aniqlash (13) va tasodifiy boshlang'ich fazali hamda reley so'nishili signallarni nokogerent aniqlash (15) ifodalariga mos keladi.



Adabiyotlar

1. Yusupov Ya.T. Yaqin masofa qidirib topish radiotexnik qurilmalari yordamida Gauss shovqini fonidagi tasodifiy signallarni aniqlash va farqlash. Muhammad al-Xorazmiy avlodlari ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali 4(18)/2021, 117-120 b.
2. Nazarov A.M., Yarmuhamedov A.A., Yusupov Ya.T. Radiolokatsiya va radionavigatsiya sistemalari. O'quv qo'llanma. – T.: «Tafakkur», 2018. – 248 b.
3. Ван Трис Г. Теория обнаружения, оценок и модуляции. Том 1. М.: Сов. Радио, 1972. 744 с.
4. Тихонов В.И. Статистическая радиотехника. М.: Сов. Радио, 1982. 624 с.
5. Радиолокационные системы [Электронный ресурс]: учебник / В. П. Бердышев, Е. Н. Гарин, А. Н. Фомин [и др.]; под общ. ред. В. П. Бердышева; разработ.: Центр обучающихся систем ИнТК СФУ. – Электрон. дан. (4 Мб). – Красноярск: СФУ, 2012.
6. Радиоэлектронные системы: основы построения и теория. Справочник / Под ред. Я.Д. Ширмана. М.: ЗАО «Маквис», 1998. 828 с.
7. Прудников А.П. Интегралы и ряды. / А.П. Прудников, Ю.А. Бычков, О.И. Маричев. М.: Наука, 1981. 800 с.
8. Куприянов А.И. Радиоэлектронная борьба. Основы теории / А.И. Куприянов, Л.Н. Шустов. – М.: Вузовская книга, 2011. – 800 с.
9. Денисенко А.Н. Сигналы. Теоретическая радиотехника. Справочное пособие. – М.: Горячая линия-Телеком, 2005. – 704с.
10. Теоретические основы радиолокации. Справочник. Под ред. Я.Д. Ширмана. – М.: Радиотехника, 2007. – 510с.
11. Воловач В.И. Решение задачи обнаружения детерминированных сигналов радиотехнических датчиков, работающих в режиме активной радиолокации, и определение величины их порогового напряжения. // Информационные технологии. Радиоэлектроника. Телекоммуникации (ITRT-2012): сб. статей II международной заочной научно-технической конференции. Ч. 1 / Поволжский гос. ун-т сервиса. – Тольятти: Изд-во ПВГУС, 2012. – С. 324-331.
12. <https://www.radartutorial.eu/01.basics/rb10.ru.html>.

Management and Future Technologies

journal.umft.uz